O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/10]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UO‘K:811.512.133:659.123.1

Begzodbek ABDULLAYEV,
University of economics and pedagogy NOTM, dotsenti v.b., PhD ADU doktoranti
E-mail: fayllar@bk.ru

QDPI dotsenti, PhD A. Toshpo‘latov taqrizi asosida

ИСТОРИЯ ВЕРБАЛЬНОЙ РЕКЛАМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ И ЕЕ ОТРАЖЕНИЕ В ОБРАЗЦАХ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТВОРЧЕСТВА

Аннотация

Устная реклама в Узбекистане проявляется в различных формах с древнейших времен и имеет глубокие корни в культурном наследии и традициях народа. Важную роль в торгово-ремесленной деятельности народа играли элементы рекламы через заходы на рынки и ярмарки, фольклор, выступления бахши и певцов, пословицы и загадки.
Ключевые слова: Реклама, устная реклама, фольклор, Равшанский эпос, народные промыслы.

HISTORY OF VERBAL ADVERTISING IN UZBEKISTAN AND ITS REFLECTION IN ARTISTIC CREATION EXAMPLES

Annotation

Oral advertising in Uzbekistan has been manifested in various forms since ancient times and is deeply rooted in the cultural heritage and traditions of the people. Advertising elements played an important role in the people's trade and craft activities through calls at markets and fairs, folklore, bakhshi and singers' performances, proverbs and riddles.
Key words: Advertising, oral advertising, folklore, Ravshan epic, folk crafts.

O‘ZBEKISTONDA OG‘ZAKI REKLAMALAR TARIXI VA BADIIY IJOD NA’MUNALARIDA AKS ETISHI

Annotatsiya

O‘zbekistonda og‘zaki reklama qadimdan turli shakllarda namoyon bo‘lib, xalqning madaniy merosi va an’analarida chuqur ildiz otgan. Bozorlar va yarmarkalarda chaqiriqlar, xalq og‘zaki ijodi, baxshi va qo‘shiqchilarning ijrosi, maqollar va topishmoqlar orqali reklama elementlari xalqning savdo-sotiq va hunarmandchilik faoliyatida muhim o‘rin tutgan.
Kalit so‘zlar: Reklama, og‘zaki reklama, xalq og‘zaki ijodi, Ravshan dostoni, Xalq hunarmandchiligi.

Kirish. O‘zbekistonda qadim zamonlardan beri og‘zaki reklama turli shakllarda mavjud bo‘lib, xalqning boy madaniy merosi va an’analariga chuqur ildiz otgan. Og‘zaki reklama, ya’ni mahsulot yoki xizmatlar haqida og‘zaki axborot tarqatish, savdo-sotiq va hunarmandchilik faoliyatining ajralmas qismi bo‘lgan. Og‘zaki reklamalar, avvaliga, mahsulot nomi bilan aytilgan bo‘lsa, keyinchalik mahsulot sifati bilan aytilgan. O‘rta asrlarga kelib esa, qofiyalangan tarzda aytila boshlagan.

Misol: Kep qoling, op qoling, birinchi zotiga bir uloq aytdim! Halollab olasan! [9]

Ushbu chaqiriqlar hozirgi kunda ham xalq orasida foydalanib kelinadi. Reklama matnidagi asosiy prinsp qisqartirilish bo‘lganligi uchun ajdodlarimiz ham ana shunday prinspga amal qilganligiga yaqqol misol bo‘la oladi. Aslida, morfologik tamoyil asosida yozilsa, “Kelib qoling, Olib qoling!” tarzida aytilishi kerak. Ammo, imkon qadar qisqalik bilan fonemalardan voz kechilib, shu tarzda aytilgan. Bugungi kun bozorlarida yoki ko‘cha savdosida shu chaqiriqlar mahsulot turiga qarab qo‘shimcha birikmalar bilan aytiladi. Misol: 1. Kep qoling, op qoling! Tarvuzlardan yep qoling. 2. Kep qoling, op qoling! Arzon telfon op qoling! 3. Kep qoling, op qoling! Yemaganlar armonda, yeganlar darmonda! kabi ko‘plab versiyalariga guvoh bo‘lamiz.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Og‘zaki reklamalar tarixi ushbu mavzuga doir barcha ilmiy tadqiqotlarning debochasi hisoblanadi. Avvalo, bu turdagi reklamalarning o‘rganilishini rus tilshunosi filologiya fanlari nomzodi Nasonova Yekaterina Anololevna 2003 yili “Устная реклама в России XVIII - XX веков” (XVIII – XX asrlarda Rossiyada og‘zaki reklamalar) nomli nomzodlik dissertatsiyada “Og‘zaki reklamaning kelib chiqishi asrlarga borib taqaladi. Bu bosqichda mavjud bo‘lgan kontseptsiyaga ko‘ra uning paydo bo‘lishi shahar madaniyatining paydo bo‘lgan davriga to‘g‘ri keladi. Og‘zaki ma’lumotlar birinchi shaharlar paydo bo‘la boshlaganda paydo bo‘ldi va savdo-sotiq odamlar hayotiga muqarrar ravishda kirib keldi. Avvaliga tovarlar bir-biriga almashtirildi, keyin pul keldi va u bilan “ishlab chiqaruvchi - savdogar – xaridor” savdo tuzilmalari paydo bo‘la boshladi va bu bosqichlarning har birida mahsulot haqida xabar berish kerak edi. [11]deb ta’kidlagan.

Shaxar madaniyatining rivijlanishi savdos-sotiq ishlariga ham tasir qildi. Endi tartibsiz baqir-chaqirlarga ham barham berildi. Shu tariqa og’zaki reklamalarga badiiy san’at kirib keldi. Shu voqe’lik deyarli barcha davrlarda og‘zaki reklamalar o‘tish bosqichida yuz berdi. Bu voq’elik haqida rus tilshunosi V.Uchenova o‘zining ”Реклама в истории человечества”(Insoniyatning reklama tarixi) maqolasida shunday dalillar keltirgan: “Sotuvchilar potentsial xaridorlarning e’tiborini jalb qilish uchun qisqa shiorlar, aqlli hazillar, notiq resitativ ishontirish va boshqa usullardan foydalanadilar, masalan, shang‘iroqlar va garmonikalar, raqs va ifodali imo-ishoralar, ba’zida noodatiy kiyimlar bilan. Keling, bir lahzaga rus yarmarkasining nomutanosib shovqinini tasavvur qilaylik. Bir tomondan shunday eshitiladi:

Bizga, bizga, bizga!
Issiq kreplarga!
Yan bir misol:
Mana, mo'yna - momiq - oltin!
Mana muloyim - qor-oq!
Mana qorong'u - kamtarin!”[12]

O‘rta osiyo xalqlari bozorlarida ham bunday chaqiriqlar doim yangrab turgan. Shunga ko‘ra, Orta osiyo bozorlaridagi og‘zaki reklamalar quyidagicha tahlil qilindi:

1. Bozor va yarmarkalarda chaqiriqlar.Qadimgi bozorlar va yarmarkalarda savdogarlar o‘z mahsulotlarini baland ovozda chaqiriqlar orqali targ‘ib qilishgan. Masalan, bozor sotuvchilari non, meva yoki boshqa oziq-ovqat mahsulotlari haqida chaqiriq qilish orqali xaridorlarni jalb etishgan. Ushbu chaqiriqlar odatda mahsulotning yangi yoki sifatli ekanligini ta'kidlaydigan iboralar bo‘lgan.

Misol: Nonvoylar yangi pishirilgan nonning xushbo‘y hidini reklama qilib: “Yangi nonlar, qaynoq nonlar! Qo‘lingiz kuyadi, yeyishga oshiqing!” kabi chaqiriqlar qilganlar.[1]. Ushbu chaqiriqda sifat leksemasi asosiy mahsulot sanalgan ot leksemasini izohlab kelmoqda.

Ular xaridorlarni jalb etish uchun mahsulotlarining sifatini, narxini va boshqa afzalliklarini ta’kidlab, turli xil iboralar va ohanglar bilan e’tibor qaratishga harakat qilishgan. Masalan, nonvoylar yangi pishirilgan nonning hidini maqtab, xaridorlarni o‘z do‘konlariga chorlaganlar.

2. Xalq og‘zaki ijodi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi (maqollar, topishmoqlar, dostonlar va qo‘shiqlar) orqali ham reklama elementlari namoyon bo‘lgan. Xalq orasida tarqalgan maqollar va topishmoqlar ko‘pincha savdo-sotiq bilan bog‘liq bo‘lib, ular orqali mahsulotlarning sifati yoki savdogarning halolligi haqida axborot berilgan. Dostonlar va qo‘shiqlar esa hunarmandlar va savdogarlarning faoliyatini tasvirlab, ularning mahsulotlarini maqtash uchun xizmat qilgan. Masalan, “Ravshan” dostoni o‘zbek va turkman xalq og‘zaki ijodiga mansub bo‘lib, unda qahramonning jasoratlari bilan birga, uning hunarmandchilik faoliyati ham tasvirlangan[2]

O‘zbek xalq og‘zaki ijodiyotida maqollar va topishmoqlar orqali ham ma’lum bir mahsulot yoki xizmat haqida bilvosita axborot berilgan. Masalan, savdo va hunarmandchilik bilan bog‘liq maqollar savdogarlar va hunarmandlarning ishonchliligi yoki halolligini tasvirlagan.

Misol: “Yaxshi savdogar har narsani sotadi, yomon savdogar o‘zini sotadi.” [3]

Ushbu maqol savdogarning halolligi va savdo mahoratini oshirib ko‘rsatadigan omil sifatida ishlatilgan.

Yana bir misol Susanbil ertagida keladi. Yoshligidan onasidan eshitgan jumlani barcha hayvonlarga aytish orqali ularni rohatda yashashga qiziqtiradi. Susambil o‘tning bo‘lig‘i, suvning tinig‘i, unda azob-uqubat yo‘q maza qilib yurasan! Ushbu misolda ham izohlovchi leksemalar asosiy predmetga ijobiy izoh bermoqda va qiziqtirmoqda.

3. Baxshi va qo‘shiqchilarning ijrosi. Baxshi va qo‘shiqchilar o‘z ijrolari orqali ham reklama vazifasini bajarganlar. Ular dostonlar va qo‘shiqlarni ijro etib, unda hunarmandlar, savdogarlar yoki mahsulotlar haqida hikoya qilishgan.

Denov epik maktabi vakili Boborayim Baxshi, masalan, o‘z dostonlarida xalqning turmush tarzini, hunarmandchilik va savdo-sotiq faoliyatini tasvirlagan[4]

Qadimda baxshi va qo‘shiqchilar maxsus ijro va dostonlar orqali hunarmandlar va savdogarlar haqida qo‘shiqlar kuylagan. Ushbu qo‘shiqlar xalq o‘rtasida mashhur bo‘lgan va mahsulot yoki xizmatlarni reklama qilish vazifasini bajargan.

Misol: Baxshilar va qo‘shiqchilar xalq yig‘inlarida, bozorlar va to‘ylarda savdogarlar yoki hunarmandlarning mahsulotlari haqida qo‘shiqlar kuylab, ularning ishini maqtashgan.[5]

4. Maqollar va topishmoqlar. Xalq orasida tarqalgan maqollar va topishmoqlar ko‘pincha savdo-sotiq va hunarmandchilik bilan bog‘liq bo‘lib, ular orqali mahsulotlarning sifati, narxi yoki savdogarning halolligi haqida axborot berilgan. Bu og‘zaki ijod namunalari xalqning kundalik hayotida muhim o‘rin tutgan va savdo-sotiqning rivojlanishiga xizmat qilgan.

5. Shahar markazlarida qo‘ng‘iroqchilar. O‘rta asr O‘zbekistoni shaharlari markazida maxsus e’lon qiluvchilar yoki qo‘ng‘iroqchilar bo‘lgan, ular baland ovozda muhim ma’lumotlarni, savdo yangiliklarini yoki mahsulotlar haqida xabar berishgan.

Misol: Shahrisabz va Buxoro kabi shaharlarda qo‘ng‘iroqchilar har kuni shaharning gavjum joylarida turli tovarlar va xizmatlar haqida e’lon qilib, savdogarlarga mijozlarni jalb qilishga yordam berishgan.[7]

6. Hunarmandlarning o‘z mahsulotlarini maqtovi. Hunarmandlar o‘z mahsulotlarini mahalliy bozorlarda yoki karvonsaroylarda sotishdan oldin ularni baland ovozda maqtashgan. Odatda, ularning sifati, go‘zalligi yoki mustahkamligi ta'kidlangan.

Misol: Temirchilar o‘z qurollarini maqtash uchun: “Bu qilich bilan jang qilganlar hech qachon mag‘lub bo‘lmaydi, u qo‘lga o‘tgach, kuchingiz ikki barobar oshadi!” kabi gaplarni ishlatishgan.[8]

XX asr mashxur adibi G.G‘ulom ijodining yorqin na’munasi bo‘lgan “Shum bola” qissasida Qoravoyning boy otadan hizmat haqqiga olgan olmasini bozorda sotishi ham og‘zaki reklamaga misol bo‘la oladi.

Qoravoy: Kep qolinglar! op qolinglar! Yeganlar darmonda, yemaganlar

armonda! Kep qoling! Maza qilasiz! Kep qoling! Judayam zo‘r olma! Puliz o‘ziz bilan birga ketadi! Kep qoling! Kelinglar qizil olmaga! Kep qoling! Kep qolinglar! Yaxshi olma! Shakar olma!

Yana bir meva sotuvchi: Shirin shaftoli! Arzon qilib beraman ukajon!

Yana bir qovun sotuvchi: Shakarpalak, Ko‘kcha, Bosvoldi xammasi shu yerda! kep qoling!

Yana bir sandiq sotuvchi: Kep qoling sandiqdan oling! Tutdan yasalgan!

Yana bir beshik sotuvchi: Mana sizga qo‘chqordek o‘g‘illarga buyursin!

Oshpaz: Qo‘y yog‘i, qo‘y go‘shtiga bo‘lgan palov! Kep qoling!

Shashlikchi: Barra kabob, barra kabob! Kep qoling![10]

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi vaqtda ham bozor munosabatlarida og‘zaki reklamalar juda keng tarqalgan. Deyarli barcha do‘kon va rasta egalari turli chaqiriqlar bilan haridorni o‘ziga tortadi. Misol: Andijon dehqon bozorlarida ilk ko’ringan haridorlar “Keling, Assalomu alaykum!”, “Keling, aka!”(yoki opa, uka, singlim, otaxon, onaxon, amaki), “Nima izladi(ngi)z?”, “Arzoni bizda!”, “Keling, sizga arzon qilib beraman!”, “O‘zi(ngi)zni razmeri(ngi)zdan bor!” kabi chiroyli so‘zlar bilan kutib olinadi. Ko‘chalarda esa ko‘chma savdo avtomobillari mahsulotning nomi bilan “keldi” leksemasini jonlantirib aytib yurishadi. Misol: “Gilam, poloz keldi!”, “Kartoshka, piyoz keldi!”, “Qovun, tarvuz keldi!” kabi teng bog‘lanuvchi sintaktik qurilmalarni “va” bog‘lovchisini qo‘shmasdan qisqalik prinpida e’lon qilib yurishadi.

Tahlil va natijalar. Shunday qilib, O‘zbekistonda og‘zaki reklama qadimdan turli shakllarda namoyon bo‘lib, xalqning madaniy merosi va an’analarida chuqur ildiz otgan. Bozorlar va yarmarkalarda chaqiriqlar, xalq og‘zaki ijodi, baxshi va qo‘shiqchilarning ijrosi, maqollar va topishmoqlar orqali reklama elementlari xalqning savdo-sotiq va hunarmandchilik faoliyatida muhim o‘rin tutgan. Ushbu mavzuga doir izlanishlar milliy qadriyatlarimiz qatori o‘rin olgan og‘zaki chaqiriqlar va e’lonlarni tarixini kelajak avlodga yetkazish, og‘zaki reklamalarni savdo-sotiqdagi samarali kuchini marketing darajasida o‘rganish zarurligini ko‘rsatib turibdi. Ushbu turdagi reklamalarning sintaktik qurilishi,

sheva va lahjalarda ijrosi tahlillari filologlar tadqiq qilishi zarur bo‘lgan vazifaga aylanib ulgurdi.

Xulosa. Yuqoridagi misollarni tahlil qilsak, izohlanuvchi faqat sifat leksemalar bilan izohlanmay, ravish leksema ham ishtirok etyapti. (Barra). Asosiy chaqiriq esa, Kep qoling! sintaktik qurilmasi chorlov mazmunida iste’molchilarni o‘ziga jalb qilmoqda.

O‘zbekistonda og‘zaki reklama an‘anaviy bozorlar, xalq madaniyati va hunarmandchilik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan. U savdo va tijorat faoliyatining muhim qismi sifatida xizmat qilgan va xalq og‘zaki ijodi orqali ko‘p asrlar davomida yashab kelgan.

ADABIYOTLAR

1. Brill E. J., Encyclopedia of Islam, Volume 5, 1995. https://brill.com/
2. Ravshan. Xalq og‘zaki ijodi. [electron manba]URL: https://kitobxon.com/oz/kitob/ravshan-halq-ogzaki-ijodi
3. O‘zbekiston xalq maqollari to‘plami. T., “Hilol” 1960
4. Xushbaxtova D. «Boborayim baxshi» denov epik maktabi bugungi tarixi va faoliyati. «Экономика и социум» №6(121)-2 2024. 808-812 betlar
5. O‘zbekiston Madaniyati Tarixi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi,. –T., 2007
6. Xalq og‘zaki ijodidan namunalar. [electron manba]URL: https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/adabiyot/xalq-og-zaki-ijodidan-namunalar
7. Mukhtarov R., O‘rta asr O‘zbekiston shaharlari tarixi, Toshkent, 1976
8. Eshton J., Trade and Commerce in Central Asia, 1991
9. G‘afur Shermuhammad. Saman toy (qissa). [electron manba]URL: https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/g-afur-shermuhammad-1973/g-afur-shermuhammad-saman-toy-qissa
10. G‘ofur G‘ulom. “Shum bola” qissasi. [electron manba]URL: https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/g-afur-g-ulom-1903-1966/g-afur-g-ulom-shum-bola-qissa
11. Насонова Екатерина Анатольевна. Устная реклама в России XVIII - XX веков : Дис. ... канд. филол. наук : 10.01.10 : Москва, 2003 191 с.
12. Ученова В. Реклама в истории человечества. //Наука и жизн. [Электронниый ресурс.] https://www.nkj.ru/archive/articles/5117/ (Наука и жизнь, реклама в истории человечества)
13. Abdullayev, B. (2023 yil, iyun). Lingvistikada matn tushunchasi. Ko'p tarmoqli tadqiqotlar va ta'lim bo'yicha akademik xalqaro konferentsiyada (1-jild, № 9, 13-15-betlar).
14. Abdullaev KH, B. "A look at advertising and the historical formation of advertising in uzbekistan." Open Access Repository 8.12 (2022): 684-686.
15. Abdullaev, B. (2021). Factors determining the place of discourse in advertising text and its influence on the social structure. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(9), 24-27.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/10]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 801.731

Mohigul ABDULLAYEVA,
“Hududgaz Buxoro” gaz ta’minoti filiali matbuot kotibi
E-mail: famous-star@mail.ru

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti professori v.b. L.Toshmuhammedova taqrizi asosida

TARG‘IBOT MATNLARIDA SARLAVHA TANLASH MAHORATI

Annotatsiya

Maqolada targ‘ibot materiallarida sarlavha tanlashning ahamiyati, uning vazifalari to‘g‘risida fikr yuritilgan. Shuningdek, sarlavha qo‘yishda nimalarga e’tibor qaratish, qanday so‘zlardan foydalanish va aynan piar materiallari sarlavhasining uslubi, tili haqida to‘xtalib o‘tilgan. Jamoatchilik bilan aloqalarni mustahkamlash maqsadida matn sarlavhasining ta’sir kuchi qay darajada ekanligi misollar asosida izohlangan. Maqolada targ‘ibot matnlarini yozishda yo‘l qo‘yilayotgan xatoliklar, matn tarkibi, unsurlari hamda ulardan to‘g‘ri foydalanish, sarlavha tanlash, terminlardan foydalanish borasida fikrlar keltirilgan. Tahlillar davomida har bir fikr mohiyati aniq targ‘ibot materillari orqali ochiqlangan.

Kalit so‘zlar: Sarlavha, mediamakon, globallashuv, piar matn, bosma nashr, pozitsiya, adresat, tarkibiy qism.

УМЕНИЕ ВЫБИРАТЬ ЗАГОЛОВОК В ПРОПАГАНДИСТСКИХ ТЕКСТАХ

Аннотация

В статье рассматривается важность выбора заголовка в рекламных материалах и его задачи. Также обсуждается, на что следует обратить внимание при размещении заголовка, какие слова использовать, а также стиль и язык названия PR-материалов. В целях укрепления связей с публикой на примерах объясняется, насколько мощным является заголовок текста. В статье содержатся мнения об ошибках, допущенных при написании агитационных текстов, композиции текста, элементах и их правильном использовании, выборе названия, использовании терминов. Суть каждой идеи раскрывается посредством четких пропагандистских материалов.

Ключевые слова: Заголовок, медиапространство, глобализация, PR-текст, печать, должность, адресат, компонент.

TITLE SELECTION SKILLS IN PROPAGANDA TEXTS

Annotation

The article discusses the importance of choosing a title in promotional materials and its tasks. Also, what to pay attention to when putting a title, what words to use, and exactly the style and language of the title of PR materials are discussed. In order to strengthen relations with the public, it is explained on the basis of examples how powerful the title of the text is. The article contains opinions on the mistakes made in writing propaganda texts, text composition, elements and their correct use, choice of title, use of terms. The essence of each idea is revealed through clear propaganda materials.

Key words: Title, media space, globalization, PR text, print, position, addressee, component.

Kirish. Bugun axborotdan to‘g‘ri foydalanish hamda kerakli manbaalarni yetkazib berish ommaviy axborot vositalari xodimlari uchun asosiy vazifalardan biri bo‘lib kelmoqda. Qayd etish lozim, globallashuv sharoitida son jihatidan ortib borayotgan axborotlar mazmuni ham turli xil bo‘lib, ulardan to‘g‘ri foydalanish maqsadida jamoatchilik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan. Jamoatchilik bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yish uchun esa mamlakatimizda tizimli ishlar olib borilmoqda. Huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Ularning ijrosi yuzasidan amaliy ishlar, bilim va ko‘nikmalar shakllantirilmoqda. Tashkilotlarda mavjud axborot xizmatlari xodimlari faoliyati davomida idora imidjini shakllantirishda xizmat ko‘rsatar ekan, yoziladigan targ‘ibot materiallarining tili va uslubiga ahamiyat qaratishi barobarida matnni nomlash, undagi atamalar, iboralar hamda janriy xususiyatlariga ham e’tibor qaratishi shart. Chunki bugungi jamiyat vakili o‘ziga kerakli ma’lumotni turli manbaalardan izlaydi, o‘qiydi va atrofdagilarga esa tarqatish ehtimoli katta. Shuning uchun ham axborot xizmati xodimi matn yaratishda, uni nomlashda e’tibor bilan yondashishi shart.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Matn nima? Uning tarkibi qanday tuziladi? Piar materiallarining matni uchun ham qo‘yilgan talablar bormi? Fikrimizni matn atamasining mohiyati bilan boshlasak. Matn hamda uning tarkibiy tuzilishi haqida ko‘plab adabiyotlarda izohlar berilgan. Jumladan, O‘zbek tilining izohli lug‘atida “Yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat. Bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz asosiy qismi” [11] deya ta’rif berilgan. Rus tilshunos olim Ilya Galpirin matn haqida quyidagi fikrlarini bildirib o‘tadi. “Matn bu yozma hujjat shaklida obektivlashtirilgan, turli xil leksik, grammatik va mantiqiy bog‘lanishlar bilan birlashtirilgan bir qator bayonotlardan tashkil topgan, axloqiy xarakter, pragmatik munosabat va shunga mos ravishda adabiy qayta ishlangan ma’lum bir xususiyatga ega bo‘lgan yozma xabardir”. [1] o‘zbek tilshunos olimlari ham matnning mohiyati hamda uning tarkibiy qismi haqida to‘xtalib o‘tishgan. Jumladan, I.Toshaliyev matn tushunchasining keng va tor ma’nolarda talqin etilishi, adabiy jihatdan qayta ishlangan yozma shakldagi tugal asar, tor ma’noda muayyan mazmuniy-mantiqiy tugallikka ega bo‘lgan parcha, band [3] ekanligi to‘g‘risida to‘xtalib o‘tgan. Demak, matn tugullangan fikrga ega, tarkibiy jihatdan mukammal qurilgan gap ekan, uning mohiyati ham bevosita aniqligi bilan ta’sir etish kuchiga ega.

Axborot xizmati xodimlari faoliyati davomida turli mazmundagi matnlar yaratadi. Ular barcha ommaviy axborot vositalari xodimlari bilan ishlaydi, demak piar ishi nafaqat bitta rasmiy kanallar, balki boshqa ommaviy axborot vositalari, jumladan, televideniye, radio, sayt va bosma nashrlarda orqali ham yoritiladi. Matbuot kotibi esa ularning

har biri uchun alohida matn tayyorlab, til va uslubiga rioya etgan holda ma’lumot taqdim etishi lozim. Shuningdek, matnning tuzilishi, ularning tarkibiy qismlari ham piar materiallarining samaradorligini oshiradi. Buxoro viloyat hokimligi matbuot xizmati tomonidan “Buxorolik tadbirkorlarga davlat mukofotlari va ko‘krak nishonlari topshirildi” [9] sarlavhali matn bevosita rasmiy kanal talablaridan kelib chiqqan holda yozilgan. Ya’ni unda jarayonning asosiy qismi dastlab yoritilgan, so‘ng xulosalangan. Uza.uz saytining maxsus muxbiri tomonidan esa bu jarayon [12] dastlab kirish qismi bilan boshlangan. So‘ng esa asosiy qism va xulosa fikrlari berilgan. Demak, piar materiallarini targ‘ib etishda matnlar turli shaklda, asosan ommaviy axborot vositalarining uslubidan kelib chiqqan holda yoziladi. Shuningdek, uni targ‘ib etish matbuot kotibi bilan bir qatorda jurnalistda ham mahorat bo‘lishi shart.

Tadqiqot metodologiyasi. Piar materiallarining tarkibiy qismiga ahamiyat qaratadigan bo‘lsak, asosiy va foydalanuvchining e’tiborini o‘zida jalb qiladigan eng muhim qismlaridan biri bu undagi sarlavha hisoblanadi. Matnni to‘laqonli shaklini yaratish hamda uni muloqot maydoniga olib kirish uchun qismlarga ajratish, qismlar uchun qo‘yilgan talablarni mukammal bilish uning o‘qishliligini ta’minlaydi. Shubhasiz, barcha matnlar singari piar materiallarining ham eng asosiy qismlaridan biri – bu sarlavha. Bu unsur muloqot jarayonida matn bilan bog‘liq bo‘la turib, matndan tashqarida joylashgan holatda o‘z vazifasini bajaradi. [6] Sarlavha har bir matnning boshi hisoblanadi. Adresat sarlavha bilan tanishib, bevosita matn mohiyatiga e’tibor qaratadi. Uning qabul qilish holatiga ta’sir ko‘rsatadi. Matbuot kotiblari targ‘ibot ishida asosan sarlavhasiz matn yozib, xabar janriga murojaat qilgan holda qisqa ma’lumot berishadi. Ular tomonidan boshqa ommaviy axborot vositalari xodimlariga berilgan targ‘ibot matnining sarlavhasini jurnalist nomlaydi. Aslida piar materiallarida ham sarlavha tanlanishi, u butun bir matn mohiyatini o‘zida qamrab olishi shart. Targ‘ibot matnlari uchun sarlavha o‘ziga xos qoidalarga tayangan holda qo‘yilishi kerak. Targ‘ibot matnlarida sarlavha qachon qo‘yiladi? Agar matn olti va undan ortiq gapdan iborat bo‘lsa unga sarlavha tanlanishi shart.

Tahlil va natijalar. Sarlavha qisqa, aniq, uch yoki to‘rt so‘zdan iborat bo‘lishi lozim. Ba’zan janriy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda esa bir so‘z bilan yozilishi mumkin. Sarlavhada yaxlit ma’noni anglash, matnning to‘liq mohiyatini u orqali bilish oson. Bevosita yozilgan targ‘ibot matnining to‘liq mohiyati aynan sarlavha orqali ko‘rsatib o‘tilishi shart. Chunki matn va sarlavha o‘zaro uyg‘un bo‘lsa o‘quvchi o‘ziga kerakli ma’lumotni oladi. Matbuot kotibi barcha ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ib qilar ekan, har birining til va uslubidan kelib chiqqan holda o‘z matnini nomlashi shart. Lekin maqsad bitta – birgina sarlavha bilan matn mohiyatini ochib berish, uning o‘qishliligini oshirishdan iboratdir. Matn uchun sarlavha qanday tanlanadi? Sarlavha tanlashning ikki usuli bor: Birinchisi: kalit so‘zlarni topish hamda ularning orasidan eng ko‘zga tashlanadiganlarini tanlab olish va sarlavha sifatida ishlatish. Ikkinchisi: maqolaning asosiy elementlarini tashkil etadigan fraza yoki gapni tuzish va so‘ngra iloji boricha qisqa shaklga keltirish natijasida sarlavha yaratiladi. [2] Piar matnlarda sarlavha tanlashda aynan shu ikki usuldan foydalanish mumkin. Chunki birgina sarlavha orqali matn mohiyatiga e’tibor qaratiladi. Foydalanuvchi matnni oxirigacha o‘qiydi. Buxoro viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasining rasmiy telegram kanalida bevosita botulizm kasalligi haqida ma’lumot berilgan. [8] Matn “Botulizm nima?” deb nomlangan. Undagi kalit so‘z esa “botulizm”. Matbuot kotibi tomonidan bu so‘zning sarlavha sifatida tanlanishidan asosiy maqsad bevosita aholini jalb qilish, uning nima ekanligi haqida matn mohiyatini o‘qib bo‘lganidan so‘nggina batafsil ma’lumotga ega bo‘lishi mumkinligi hisoblanadi. Sarlavhaning savol tariqasida qo‘yilishi aholini qiziqtirishi tabiiy. Shuningdek, matn qo‘yilgan talablar asosida nomlangan. Bevosita adabiyotlarda qayd etilganidek, sarlavha quyidagi talablarga mos bo‘lishi kerak: qisqa, ko‘zga tashlanadigan, ishontiruvchi, hozirgi zamonda yozilgan, qiziqarli, jalb etuvchi, qo‘pol yoki chalg‘ituvchi - so‘z o‘yini, kalamburlardan foydalanish, atayin yo‘l qo‘yilgan grammatik xatolar, ritm, qofiya, alliteratsiya yordamida “musiqiy” jarangga ega bo‘lishi, tipografik jixatlari asosiy matndan farq qilishi va shrift, fon hamda boshqa usullar bilan erishiladi. [2] Buxoro viloyat hokimligi axborot xizmati tomonidan uning rasmiy kanalida “Paxta qabul qilish maskanlari mavsumga tayyormi?” [10] sarlavhali matn berilgan. Unda viloyatdagi paxta qabul qilish maskanlarining mavsumga tayyorgarlik jarayonlari haqida ma’lumot qayd etilgan. Ammo sarlavha talab doirasida emas. Chunki 5 so‘zdan iborat bo‘lib, matndagi asosiy gaplardan farq qilmaydi. Matn bilan to‘liq tanishish uchun o‘ziga jalb qilish xususiyatiga ega emas.

Buxoro viloyat hokimligi matbuot xizmati tomonidan xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash va bandligini ta’minlash haqidagi bo‘lib o‘tgan kengaytirilgan yig‘ilish haqida rasmiy telegram kanalida matn berilgan. [7] Matn matbuot kotibi tomonidan “Xotin-qizlar bandligini ta’minlash va tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash masalalariga bag‘ishlandi” deb nomlangan. To‘g‘ri, bevosita sarlavhadan matnning nima haqida ekanligini anglash qiyin emas. Ammo sarlavha o‘z qoidasiga tayangan holda qo‘yilishi lozim. Quyida berilgan matn sarlavhasi esa 8 ta so‘zdan iborat bo‘lib, u sarlavha vazifalariga asoslanmagan holda berilgan. Sarlavha tanlashning o‘ziga xos qoidalari mavjud bo‘lganidek, uning vazifalari ham belgilangan. Ilmiy adabiyotlarda bu haqida batafsil ma’lumot berib o‘tilgan. Xususan, sarlavhaning 9 ta vazifasi mavjud bo‘lib, atash, farqlash, xabar berish, reklama qilish, ishontirish, ko‘rsatma berish, tashviq qilish, murojaat qilish, izohlash kabi vazifalari bor. [5] Matbuot kotiblari o‘z targ‘ibot matnlarini sarlavha vazifalaridan kelib chiqqan holda nomlasa maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki har bir foydalanuvchi matn bilan tanishishidan avval uning sarlavhasiga e’tibor berib, matnni o‘qishi mumkin. Piar materiallarining sarlavhalari deyarli barcha vazifalarni bajaradi. Ammo bir ommaviy axborot vositasi boshqa bir ommaviy axborot vositasi orqali yoritilayotgan piar matniga qo‘yilgan sarlavhaning vazifasini takrorlamaydi. Xususan, mediakontentlarda targ‘ibot qilinadigan tashkilot ishlarining sarlavhalari asosan reklama berish, xabar berish, tashviq qilish va murojaat qilish vazifalarini bajarsa, bosma nashrlar orqali qilingan targ‘ibot matnining sarlavhalari esa ko‘rsatma berish, ishontirish, izohlash vazifalarini bajaradi. Buxoro viloyat soliq boshqarmasi axborot xizmati tomonidan uning rasmiy kanal yoki boshqa internet manbalari orqali targ‘ib qilingan piar materiallarining sarlavhalari asosan murojaat qilish vazifasini bajaradi. “Xaridorlarga QR-kodli chek berilishi shart”, “Xodimlar sonini yashirish mansabdor shaxslarga nisbatan jarima solishga sabab bo‘ladi”, “2024-yil 1-iyuldan...”, “Korrupsiya haqida xabar bering!” [13] kabi sarlavhalar orqali bevosita iste’molchiga murojaat qilinmoqda. Fuqarolarning vazifalari nimadan iborat ekanligi, soliq qonunchiligida qanday yo‘l tutishi lozimligi to‘g‘risida aniq tushunchalar berish maqsadida qo‘yilgan sarlavhalar murojaat vazifasini bajarmoqda. Ushbu axborot xizmati tomonidan “Buxoronoma” gazetasining 2024 yil 16 avgust sanasidagi 59-sonida “Soliq tizimi mahalla darajasiga tushgani nima bermoqda?” sarlavhali matnida aynan tizimning imkoniyatlari, bir qator soliq tizimi bilan bog‘liq muammolarning hal etib kelinayotganligi, bevosita ko‘plab masalalarning chuqur o‘rganilayotganligi haqida ma’lumot berilgan. Bunda sarlavha tuzilishi jihatidan so‘roq shaklida bo‘lib, atash vazifasini bajargan.

Sarlavha matnning asosiy pozisiyasi hisoblanadi. Bu muhim unsurning vazifasi adresatning qabul qilish jarayoniga ta’sir o‘tkazishdir. Qabul qilish nuqtai nazaridan sarlavhaga yondashish sarlavhaning tuzilish mexanizmlarini va uning xususiyatlarini tushunishga yordam beradi. Resipiyentning pozisiyasini hisobga olish juda muhim. Chunki har bir resipiyent alohida shaxs bo‘lib, materialni o‘rganish jarayonida asosiy fikrni so‘zlar orqali qabul qiladi. [5]

Jamoatchilikka axborotni sifatli, mazmunli yetkazib berish axborot xizmatining faoliyati hamda strategik shakllanishi uchun xizmat qiladi. U qaysi bir ommaviy axborot vositasi orqali targ‘ibot qilish ishini tanlamasin, avvalo taqdim etadigan ma’lumotida aniqlikni ta’minlashi, piar matnini nomlashda esa mukammallik asosida yondashishi shart. Sarlavha asosan bosma nashrlar yoki turli mediakontentlar, jumladan, rasmiy kanallar, ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshiriladigan targ‘ibot matnlarida qo‘yiladi. Lekin aksar matbuot kotiblari ma’lumotlarni o‘z rasmiy kanallari, boshqa ijtimoiy tarmoqlar orqali sarlavhasiz targ‘ibot qilishlari kuzatilmoqda. Bu esa jarayonning samaradorligiga to‘sqinlik qilishi tabiiy. Har bir ijodkor xoh u matbuot kotibi bo‘lsin, xoh jurnalist yaratayotgan asarining xalqqa nechog‘lik kerakli ekanligini, uning foydali jihatlarini anglashi shart. Shuningdek, ishining bir tomonlama emas, balki har tomonlama rivojlanishi uchun matn qurilishi, tarkibiy qismlariga e’tibor berishi lozim. Har bir ijodkor avvalo xalq tilini yaxshi bilishi lozim. “Narsa, voqea va hodisalarni aniq, ravon, yorqin, tushunarli anglatishi uchun xalq tili o‘z bag‘rida noyob javohirlarni saqlovchi ummondir”. [4] Shunday ekan, uning yaratadigan har bir mehnatida maqsad bo‘lishi kerak. Matbuot kotibi ijodkor kasb egalari sifatida tan olinmoqda. Ular targ‘ibot matnlarining tili va uslubiga e’tibor berib, matn sarlavhasining mohiyatiga har jihatdan ahamiyat qaratishi lozim.

Xulosa va takliflar. Targ‘ibot matnlaridagi sarlavha aniq va tugal mazmunga ega bo‘lishi kerak. Asosan murojaat tarzida yoki atash shaklida yozilgan sarlavha matn mohiyatiga chuqurroq yondashish uchun turtki bo‘ladi. Matn yoki sarlavha – qaysi biri dastlab yozilishi kerak, degan savolga matbuot kotibi o‘z ijodiy prinsipidan va voqe’likdan kelib chiqqan holda yondashishi mumkin. Piar matnlarning sarlavhasi uch yoki to‘rt so‘zdan ortiq bo‘lmasligi joiz, chunki to‘rtdan ortiq so‘zdan iborat tuzilgan sarlavhaning qo‘yilishi uning mohiyatini chuqurroq anglashga to‘sqinlik qilishi mumkin. Bu bilan matn mazmuni, bo‘lib o‘tgan targ‘ibot jarayoni bevosita qiziqtirmay qo‘yishi ham tabiiy. Sarlavha adabiy til me’yorlariga rioya etilgan holda ijtimoiy uslubda yozilishi lozim. Har bir matbuot kotibi ishini yorqinroq ko‘rsatish uchun piar matnga sarlavha tanlashda mahorati kuchli bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Bu bilan tashkilot imidji ko‘tariladi, faoliyati haqida esa barcha birdek ma’lumotga ega bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. Гальперин И. Р. О понятии «текст» // Материалы научной конференции «Лингвистика текста».— Т. 1.— М., 1974.— С. 67.
2. Colin Macfarlane. Hit the HeadlinesExciting journalismactivities forimproving writing and thinking skills. c 2012. P. 156. 150)
3. Toshaliyev I., Abdusattorov R. Ommaviy axborotning tili va uslubi. – T.: Zar-qalam. 2006. – B.37
4. Toshmuhammedova L. Adabiyot tarixi va nazariyasi. – T. 2020. – B. 136
5. Shamaqsudova S. Media tili va uslubi. T. 2021. – B.155. 117
6. Shamaqsudova S. Mediamatnlarning tili, uslubi va janriy xususiyatlari. diss. T. 2023
7. https://t.me/buxorouz_official/92615
8. https://t.me/BuxoroFVB/18248
9. https://telegra.ph/Buhorolik-tadbirkorlarga-davlat-mukofotlari-va-k%D1%9Ekrak-nishonlari-topshirildi-08-16
10. https://telegra.ph/Pahta-%D2%9Babul-%D2%9Bilish-maskanlari-mavsumga-tajyormi-08-14
11. https://izoh.uz/uz/word/matn
12. https://uza.uz/uz/posts/buxorolik-tadbirkorlar-mukofotlandi_625698
13. https://t.me/soliq_Live/9855

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/10]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 811.512.133, 271.2

Burxon ABDULXAYROV,
Milliy rassomlik va dizayn instituti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
E-mail: abdulxayrov@list.ru

Toshkent kimyo-texnologiyalari instituti dotsenti, f.f.n. G.Tavaldiyeva taqrizi asosida

ON THE SOCIAL IMPORTANCE OF THE DEVELOPMENT OF SPEECH CULTURE

Annotation

This article emphasizes the importance of developing a culture of speech in public life. It is known that mastering a culture of speech is a complex process that requires, in addition to attention, a lot of time, knowledge and skills. However, its role in human cultural activity is incomparable. The article examines the role of speech culture in the spheres of general culture, education and upbringing, as well as its correctness, purity, the importance of observing the norms of the literary language in achieving it.
Key words: Speech culture, literary language, literary norm, dialect, oral speech, written speech, literary style.

О СОЦИАЛЬНОЙ ЗНАЧИМОСТИ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ

Аннотация

В данной статье подчеркивается важность развития культуры речи в общественной жизни. Известно, что овладение культурой речи – сложный процесс, требующий помимо внимания много времени, знаний и умений. Однако его роль в культурной деятельности человека бесподобна. В статье рассматривается роль культуры речи в сферах общей культуры, образования и воспитания, а также ее правильность, чистота, важность соблюдения норм литературного языка в ее достижении.
Ключевые слова: Культура речи, литературный язык, литературная норма, диалект, устная речь, письменная речь, литературный стиль.

NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY AHAMIYATIGA DOIR

Annotation

Ushbu maqolada nutq madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati yoritilgan. Ma’lumki, nutq madaniyatini o‘zlashtirish insondan diqqat-e’tibordan tashqari bilim va ko‘nikma hamda ko‘p vaqt talab qiladigan murakkab jarayon hisoblanadi. Biroq uning inson madaniy faoliyatida tutgan o‘rni beqiyosdir. Maqolada nutq madaniyatining umummadaniyat, ta’lim, tarbiya sohalarida tutgan o‘rni, shuningdek, uning to‘g‘riligi, sofligi, unga erishishda adabiy til me’yorlariga rioya qilinishining ahamiyati masalalari tadqiq etilgan.
Kalit so‘zlar: Nutq madaniyati, adabiy til, adabiy me’yor, sheva, og‘zaki nutq, yozma nutq, adabiy uslub.

Kirish. Nutq madaniyati – bu, eng avvalo, til me’yorlarini (talaffuz, urg‘u, so‘zlar boyligidan o‘rinli foydalanish) bilish, shuningdek, turli xil muloqot va tilning barcha ekspressiv vositalaridan foydalanish qobiliyatini o‘zlashtirganlik darajasidir.

Bundan tashqari, nutq madaniyati ona tilini muhofaza qilish, uning tarixi va kelajagi haqida qayg‘urish, o‘zbek adabiy tilini egallash va takomillashtirishga qaratilgan alohida tilshunoslik fanidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. 20-asrda o‘zbek tilshunoslaridan Alibek Rustamov, Ernest Begmatov, Yormat Tojiyev, T.Qudratov, N.Bekmirzayev va ularning ko‘plab shogirdlari “nutq madaniyati” yoki “nutq madaniyati” atamalari bilan ifodalangan hodisalar to‘plamini to‘liqroq va kengroq tadqiq etdilar. Shunday qilib bu atama o‘zbek tilshunosligidan mustahkam o‘rin oldi. Bu atamaning demarkatsiyasi ham mavjud bo‘lib, u bu yangi bilim sohasini tan olishni taqazo etadi. Bu fanning vazifasi nutq madaniyati va uning haqiqiy xususiyatlari majmuini chuqur o‘rganishdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Nutq madaniyati muloqot madaniyati o‘laroq umumiy madaniyatning muhim bir qismi hisoblanadi. Chunki har bir insonning nutqiy madaniyati tilni bilish darajasi bilan belgilanadi. Nutq madaniyatini tavsiflashning qiyinligi uning tarkibiy qismlari boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liq ekanligi bilan bog‘lanadi.

Nutq madaniyatining o‘rganish ob'ekti muayyan til og‘zaki va yozma shaklining me’yor talablariga javob berishini tekshirish va targ‘ib qilishdir.

Nutq madaniyati – nutqning adabiy til me’yorlariga muvofiqlik darajasi bo‘lib, tilni madaniyat quroli sifatida takomillashtirishga qaratilgandir. Unda adabiy tilni me’yorlashtirish muammolari, ya’ni nutq to‘g‘riligining o‘ziga xos me’yor va mezonlari har taraflama o‘rganiladi.

Binobarin, nutq madaniyati – bu nutq madaniyatining umumiyligi va uning kommunikativ fazilatlari tizimi haqidagi lingvistik bilimlar sohasidir.

Tahlil va natijalar. Shuningdek, nutq madaniyati – bu muayyan vaziyatni hisobga olgan holda va topshiriqga muvofiq qabul qiluvchiga eng yaxshi ta’sir ko‘rsatadigan fazilatlar yig‘indisidir.

Bularga quyidagilar kiradi:
– nutqning boyligi (xilma-xilligi);
– uning sofligi;
– ifodaliligi
– tushunarliligi;
– aniqlik va to‘g‘riligi.

Ushbu ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, nutq madaniyati “nutqning to‘g‘riligi” tushunchasi bilangina cheklanib qolmaydi. Aksincha yuqoridagi ta’riflardan “nutq madaniyati” tushunchasi tilning taraqqiyoti va rivojlanish qonuniyatlari, shuningdek, nutqiy faoliyat bilan chambarchas bog‘liq hodisa ekanligi anglashiladi.

Nutq madaniyati nutqiy muloqot jarayonida lingvistik vositalarni tanlash, ulardan foydalanishni tartibga solish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va ulardan nutq amaliyotida foydalanishda ongli munosabatni shakllantirishga yordam beradi.

“Nutq madaniyati” tushunchasi adabiy til me’yorlarini (talaffuz, urg‘u, so‘zlardan foydalanish qoidalari, grammatika, stilistika) o‘zlashtirishni, shuningdek, turli xil muloqot sharoitida til vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish qobiliyatini o‘z ichiga oladi.

“Nutq madaniyati” atamasi, bir tomondan, ijtimoiy va lingvistik voqelikning o‘ziga xos hodisasini belgilash, ikkinchi tomondan esa, ushbu hodisani o‘rganadigan fan sifatida o‘quv intizomini belgilash uchun ishlatiladi. Nutq madaniyati stilistika – adabiy tilning ekspressiv vositalari va funksional uslublari haqidagi fan bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

Shu o‘rinda nutq madaniyatini egallash borasida muhim o‘rin tutadigan adabiy til haqida ham to‘xtalib o‘tishga to‘g‘ri keladi. Zero, adabiy til xalq tilining eng yuqori, qayta ishlangan shaklidir. Adabiy til, alohida vakolatga ega bo‘lib, kitob tili vazifasini bajaradi va ta’limning predmeti hisoblanadi.

Adabiy til milliy tilning kodlanmagan turlari - shahar xalqi tili, hududiy va ijtimoiy dialektlarga qarama-qarshidir. Tilning bu turlari cheklangan foydalanish sohalariga ega bo‘lib, me’yorlar bilan tartibga solinmaydi, va birinchi navbatda, og‘zaki nutq bilan bog‘liqlik kasb etadi.

Adabiy tilning ikkita – og‘zaki va yozma shakli bor. Og‘zaki nutq – bu yozma nutqdan oldin paydo bo‘lgan nutq hisoblanadi. Yozma nutq esa keyinchalik jamiyatning o‘qimishli qatlami tomonidan ishlanib yaratilgan, til qoidalariga rioya etilib yoziladigan nutq shaklidir.

Yozma nutqda to‘g‘ridan-to‘g‘ri suhbatdosh bo‘lmagani uchun undagi barcha ma’lumotlar to‘liq va grammatik tarzda ifodalanishi kerak bo‘ladi. Yozma nutq o‘quvchining muloqot holati to‘g‘risidagi bilimini yoki og‘zaki aloqani nazarda tutmaydi, u yuz ifodalari, imo-ishoralar yoki intonatsiya vositalariga ham ega emas.

Og‘zaki nutq oldindan tayyorlanmagan bo‘ladi. Yozma nutq esa har doim matnni oldindan tayyorlab olishni nazarda tutadi.

Zamonaviy o‘zbek adabiy tili aloqaning turli sohalarida qo‘llaniladi. Bu sohalarning har biri o‘zining nutqiy xususiyatlari va vazifalari bilan ajralib turadigan adabiy tilning alohida uslublariga ega. Ushbu uslublar funktsional uslublar hisoblanadi. Zamonaviy o‘zbek adabiy tilida beshta funktsional uslublar ajralib turadi. Bular: 1. So‘zlashuv; 2. Ilmiy; 3. Rasmiy; 4. Badiiy; 5. Publitsistik uslublardir. Ushbu uslublarning har biri og‘zaki va yozma nutqda ifodalanishi mumkin.

So‘zlashuv uslubi asosan nutqning og‘zaki shakliga xos bo‘lsa, qolgan uslublar yozma shakl bilan bog‘liq bo‘ladi.

Nutqning asosiy sifatlari. So‘zlovchining so‘z boyligi va uning xilma-xilligi haqida to‘xtalganda, bir odamning so‘z boyligi va u qancha bo‘lishi kerak? degan savol o‘rtaga chiqadi. Bu savolga aniq javob berish juda qiyin. Ba’zi tadqiqotchilarning fikricha, zamonaviy insonning so‘z boyligi, odatda, 5–6 mingdan oshmaydi, boshqalarga ko‘ra esa, u 9–10 mingga yetadi.

Notiq o‘z fikrini aniq va ravshan ifodalashi uchun yetarlicha so‘z zaxirasiga ega bo‘lishi va bu zaxirani kengaytirish haqida doimiy qayg‘urishi hamda ona tili boyliklaridan foydalanishga harakat qilishi lozimdir.

Nutq madaniyatining yana bir ajralmas sharti uning sofligidir.

Nutqning sofligi – bu nutqda keraksiz, begona va parazit so‘zlarning yo‘qligi hisoblanadi.

Nutqdagi begona va parazit so‘zlar hech qanday semantik yukka ega emas va ularda informativlik ham yo‘q. Ular shunchaki ma’ruzachining nutqini to‘sib qo‘yadi. Ular idrok etishni qiyinlashtiradi va e’tiborni bayonot mazmunidan chalg‘itadi.

Nutqning yana bir xususiyati uning yorqinligi, obrazliligi va ifodaliligi bilan belgilanadi.

Ma’ruzachi nafaqat tinglovchilarning ongiga, balki his-tuyg‘ulari va tasavvurlariga ham ta’sir qilishi kerak. Obrazlilik tasviriy va emotsionallikni oshirishi natijasida nutqning ta’sirchanligi hamda yaxshiroq tushunilishi, idrok etilishi va esda saqlanishiga yordam beradi. Bu esa tinglovchiga estetik zavq beradi.

Binobarin, barcha davrlarning atoqli so‘z ustalari, yirik jamoat va siyosiy arboblari, taniqli olimlar, ma’ruzachilar o‘z nutqlarining obrazliligiga katta e’tibor qaratganlar.

Shuningdek, aniqlik va tushunarlilik ham nutq madaniyatining muhim belgisidir.

Nutqning ravshanligi va tushunarliligi ko‘p jihatdan til leksik tarkibining turli qatlamlaridan to‘g‘ri foydalanishga bog‘liq. Atamalar, xorijiy so‘zlar, dialektizmlar, jargonlar, professionalizmlar, istorizmlar, arxaizmlar, neologizmlar cheklangan doiralarda qo‘llaniladigan so‘zlar bo‘lib, notiq ulardan foydalanishda motivatsiyani nazarda tutishi kerak.

Nutqning yana bir muhim xususiyati uning aniqlik sifatidir.

Aniqlik nutq madaniyatining belgisi sifatida notiqning aniq fikrlash qobiliyati bilan belgilanadi. Chunonchi, notiq nutq mavzusi va o‘zbek tili qonunlarini yaxshi bilishi kerak. Nutqning aniqligi ko‘pincha polisemantik so‘zlar, sinonimlar, antonimlar va omonimlardan to‘g‘ri foydalanish bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Leksik vositalarni tanlashda quyidagi omillarni hisobga olish tavsiya etiladi:

– so‘zning ma’nosi;
– uning aniqligi;
– boshqa so‘zlar bilan muvofiqligi;
– hissiy ekspressiv rang berilishi;
– stilistik xususiyatlari;
– foydalanish doirasi;
– affikslar grammatik shaklining o‘ziga xosligi.

Leksik vositalarni tanlashning asosiy mezonlariga rioya qilmaslik so‘zni ishlatishda xatolarga olib keladi. Bunday xatoning eng tipik ko‘rinishi – bu so‘zlarning o‘zlari uchun odatiy bo‘lmagan ma’noda qo‘llanishi bo‘lib, u kontekst tomonidan bartaraf etilmagan polisemiyali noaniqlikni keltirib chiqaradi. Bunga paronimlarni almashtirish, so‘zlarni stilistik baholashdagi xatolar, so‘z birikmalari bilan bog‘liq chalkashliklar, universal ma’noga ega so‘zlardan foydalanish va hokazolar kiradi.

Notiqqa qo‘yiladigan talablarni qisqacha quyidagicha ifodalash mumkin:

1. O‘zbek tili grammatikasini mukammal bilish;
2. Notiqlik san'ati va nutq madaniyati haqidagi adabiyotlardan xabardorlik;
3. Orfoepik me’yorlarni o‘zlashtirish, ya’ni har bir tovushni, har bir so‘zni, har bir iborani aniq ifodalash, urg‘uni to‘g‘ri joylashtirish, tovushlarni benuqson talaffuz qilish va hokazolar;
4. Lingvistik obrazli vositalardan mohirona foydalanish.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib notiq nutqiga qo‘yiladigan talablarni qisqacha quyidagicha ifodalash mumkin:

1) u savodli va adabiy til me’yorlariga mos bo‘lishi;
2) obrazli bo‘lishi;
3) informatsion bo‘lishi;
4) qiziqish uyg‘otadigan bo‘lishi kerak.

Mantiqiy ketma-ketlikning buzilishi, taqdimotda mantiqning yetishmasligi nutqning noto‘g‘riligiga olib keladi.

Zotan, to‘g‘ri nutq – bu, birinchi navbatda, o‘zbek adabiy tilining amaldagi me’yorlariga rioya qilingan nutqdir.

Nutq – bu nutqning aytilishi (yoki yozib olinishi) jarayonida nutqni o‘zini ifodalovchi faoliyat bo‘lib, bu jarayonning natijasi nutqning asosiy birligini tashkil etuvchi matndir.

Nutq har doim qandaydir qo‘zg‘atuvchiga javob bo‘lib, o‘z navbatida nutq harakati u yoki bu javobni keltirib chiqaradi. Binobarin, nutq madaniyati nutq faoliyatining barcha ana shu komponentlarini va ularning tarkibiy qismlarini qamrab olishi kerak. Bu shuni anglatadiki, madaniy nuqtai nazardan, nutqda birinchi navbatda quyidagilar baholanadi:

1) maqsad va unga erishish vositalari;

2) nutqiy jarayon sifatida (nutq xatti-harakati);

3) nutqiy natija (matn).

Nutqning asosiy maqsadlari – axborot, his-tuyg‘ularni ifodalash, ta’sir qilish – nafaqat muloqot holatlarining turlarini, nafaqat janrlarni, balki nutq xatti-harakati va nutqiy faoliyat natijasini baholashning u yoki bu mezonlarini ham keltirib chiqaradi.

Har qanday nutqiy faoliyatni baholashning asosiy mezoni uning samaradorligi va faoliyat o‘z maqsadiga erishgan yoki erishmaganligi, agar erishilgan bo‘lsa, qay darajada ekanligini baholashdir.

Xo‘sh, nutqning asosiy maqsadlari nimalardan iborat?

1) axborotni uzatish (axborot, informatsion nutq);

2) his-tuyg‘ularni ifodalash, baholash (hissiy-baho nutqi);

3) ma’lum bir nuqtai nazarni isbotlash uchun adresatga ta’sir o‘tkazish (argumentlarga boy nutq).

Demak, nutqning barcha tarkibiy qismlarini nutq madaniyati, muloqot madaniyati va umuman madaniyat elementlari deb hisoblash mumkin. Demak, nutq madaniyati – bu shaxs va umuman jamiyatning jismoniy, moddiy va ma’naviy madaniyatining nutqiy faoliyatda namoyon bo‘lish sohasidir.

Nutq madaniyatining darajalari va turlari. Nutq madaniyatining darajalari: a) yuqori; b) o‘rta; s) past ko‘rinishlarda bo‘ladi. Bu ko‘rinishlarni a) madaniy; b) nomadaniy; v) butunlay madaniyatsiz deb atash ham mumkin. Biz bu borada har bir insonni beixtiyor ravishda baholaymiz. Chunonchi, biz nutq madaniyatining juda yuqori darajasini yoki pastligini jimgina qayd etamiz va o‘rtacha darajani sezmaymiz ham.

Nutqiy madaniyatning yuksakligi nutqning barcha jihatlarida yaqqol ko‘rinadi. Tashqi tomondan – ovoz tovushlari va intonatsiyalari, odamning yurish-turishi, gapirishi, imo-ishoralari, mimikalari va qarashlari - bularning barchasi og‘zaki nutqda ularning qanchalik darajada ekanligi nuqtai nazaridan baholanadi. U odamning boshqa odamlarga qanday munosabatda bo‘lishini, suhbatni qanday o‘tkazishini, monologni qanday qurishini va hokazolarni tahlil qiladi.

Nutqiy madaniyatning pastligi ham barcha xatti-harakatlarda yaqqol ko‘rinadi. Agar yuksak madaniyatli odam hamma narsada hech kimga noqulaylik tug‘dirmaslik uchun ehtiyot bo‘lsa, past madaniyatli odam esa uni butunlay teskarisini qilishga majbur qiladi. Shuning uchun qo‘pollik va o‘tkir tabiatlilik, biror narsani bilmaslik va bilishni istamaslik va undan ham ko‘proq har qanday me’yorlarga rioya qilishni istamaslik bular ayni nutqiy madaniyatsizlikda yaqqol namoyon bo‘ladi. Aynan mana shu ko‘rinishlar tufayli biz madaniyati past odamni darhol tasavvur etamiz.

Nutq madaniyatining o‘rtacha darajasining namoyon bo‘lish doirasi ancha keng. Qoidaga ko‘ra, bu holatda turli xil me’yorlarga ochiq e’tibor berilmaydi. Aksincha, vaziyatga qandaydir yo‘naltirilganlik mavjud qoidabuzarlik jazolanishi mumkin bo‘lganda asosiy me’yorlarga rioya qilish kerak. Aks holda, madaniyat darajasi o‘rtacha bo‘lgan odamlar, odatda, yuqori darajadan ko‘ra past darajaga yaqinroq bo‘lishadi. Chunki haqiqatan ham yuqori darajadagi madaniyatga ega bo‘lgan odam har qanday vaziyatda qoidalarni buzgan holda o‘zini qurbon qilishga noloyiq deb hisoblaydi.

Nutq madaniyatini to‘laqonli egallagan ma’ruzachilar nutqi o‘zbek tili lug‘at boyligini yuqori darajada o‘zlashtirganlik, sinonimlarning ma’nosi va qo‘llanilishining barcha nuanslarini hisobga olgan holda, ulardan to‘g‘ri foydalanish kabi sifatlar bilan tavsiflanadi.

Shuningdek, ular quyidagi fazilatlari bilan ajralib turadi:

1. Adabiy tilning barcha uslublarini o‘zlashtirish;

2. Adabiy til me’yorlariga (imlo va tinish belgilari, imlo va intonatsiya, stilistik, leksik me’yoriy moslik va boshqalar) rioya qilish.

Biroq, mutlaqo xatosiz nutq juda kam uchraydigan hodisa. Ammo ma’ruzachi nutqida me’yorlarning minimal buzilishi bilan tavsiflanadi.

Jamiyatda nutq madaniyatini yuqori darajada egallagan toifaga mansub odamlarning soni, uni o‘rta va past darajada egallagan odamlarning sonidan sezilarli darajada oz. Biroq aholining nutq madaniyati holatida ularning roli katta ahamiyatga ega. Chunki aynan shu toifaga ko‘pchilik oliy ma’lumotlilar, jumladan maktab o‘qituvchilari, universitet professor-o‘qituvchilari, jurnalistlar va yozuvchilar kiradi.

Eng keng tarqalgani nutq madaniyatini o‘rta darajada egallagan toifaga mansub insonlar bo‘lib, uning tashuvchilari birinchi navbatda o‘rta va to‘liq bo‘lmagan o‘rta ma’lumotlilardir. Ular adabiy til me’yorlarini juda yuzaki bilish bilan ajralib turishadi. Shuning uchun ular talaffuzida o‘rinsiz, noto‘g‘ri ma’noda va noto‘g‘ri talaffuz bilan qo‘llaniladigan xorijiy so‘zlar ko‘p uchraydi. Nutqning oyozma shaklini yaxshi bilmaslik bunday toifa odamlar uchun asosiy muammo hisoblanadi.

O‘rtacha adabiy til vakillarining nutqi qo‘pol va haqoratli so‘zlarga to‘la bo‘ladi. Ular nutqida klishelar ustunlik qiladi. Tilni boshqarish, va nutqqa oldindan tayyorgarlik ko‘rish kuzatilmaydi.

Shuning nutqning uchinchi past turi ham bo‘lib, bu toifaga mansublar kam ma’lumotli aholi orasida uchraydi. Ularning nutqi faqat kundalik ishlatiladigan so‘zlarga ega bo‘lgan og‘zaki nutqdan iborat. Ular o‘zlaricha na rasmiy monolog va na yozma nutq ishlab chiqara olishmaydi.

Yoshlar orasida eng ommabop nutq madaniyatining turi o‘rtacha adabiy tur bo‘lib, u dunyoni idrok etish va tushunishda ishontirishdan ko‘ra ma’lumotlarning ustunligidagi keskinligi bilan ajralib turadi.

Jamiyat nutq madaniyatining hozirgi holatidan kelib chiqib, so‘nggi paytlarda nutq madaniyati fanida o‘zaro tushunishning asosi sifatida funktsional savodxonlik muammosi faol rivojlanmoqda. Funktsional savodxonlik lingvistik to‘g‘rilikning ahamiyatini inkor qilmaydi yoki kamaytirmaydi, balki nutq madaniyatini shakllantirishga sof lingvistik yondashuvning yetarli emasligini, birinchi navbatda nutqning asosiy funktsiyalari – kommunikativga e’tibor qaratish zarurligini ta’kidlaydi. Shuningdek nutqqa katta e’tibor berishni talab qiladi.

Xulosa va takliflar. Demak, nutq madaniyati pirovard natijada muloqot madaniyati bo‘lib, uni o‘zlashtirish inson umumiy madaniyatining yuksak darajada rivojlanganligini, ya’ni fikrlash, muayyan kommunikativ vazifani hal qilish uchun til vositalaridan unumli foydalanish kabilarni nazarda tutadi.

Nutq madaniyatini egallashning dastlabki bosqichlaridan biri, fikrlashda nutq faoliyatining mohiyatini anglashdir. Chunki insonning muloqot qilish qobiliyati, uning ijtimoiy mavqei nutq yaratish va nutq qobiliyati bilan ta’minlanadi. Matnlarni yaratish va idrok etish qobiliyati esa insonga o‘zini shaxs sifatida ko‘rsatishga imkon beradi.

Ikkinchi bosqichni nutq mexanizmlarini rivojlantirish va takomillashtirish deb atash mumkin. Xotirani, e’tiborni, tasavvurni va oldindan ko‘rish qobiliyatini rivojlantirish nutqni o‘stirish uchun muhim hisoblanadi. Natijada, nutq aniq, mantiqiy, ifodali va ma’lum bir bayonot tuzganda muallif nimani nazarda tutganini aniq yetkaza oladigan bo‘ladi. Agar bu nutqda bu sifatlar sodir bo‘lmasa, demak, o‘sha odam matnning maqsadini, uning ma’nosini aniq tushunmaydi yoki aytilgan narsani tushunishni ta’minlaydigan so‘zlarni topa olmaydi va shuning uchun u zaruriy nutqiy malakaga ega emas.

Yaxshi nutq aniq bo‘lishi kerak. Uning og‘zaki turining “nomunosib” so‘zlar bilan ifloslanishi unga beparvo, mas'uliyatsiz munosabat tufayli yuzaga keladi va asosan o‘zbek tilining boyliklarini bilmaslik bilan izohlanadi.

Nutq sofligi uning zaruriy sifati bo‘lib, u nutq madaniyatining mavjudligi va insonning umumiy madaniyatidan dalolat beradi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, nutq madaniyatining darajasi uning tarkibiy qismlari butunligida va matn (bayon) yaratish jarayonida namoyon bo‘ladi. Lekin yaxshi matn yaratish uchun nutq madaniyatiga oid bilim va malakalar yetarli emas. Buning uchun matn yaratish qonunlarini ham bilish kerak.

ADABIYOTLAR

1. Рустамов А. Ўзбек тили жозибаси. Тошкент, Ғафур Ғулом нашриёти, 2021. 536 бет.
2. Тожиев Ё. Ўзбек тили морфемикаси. Тошкент, 2023. 68 бет.
3. Қудратов Т. Нутқ маданияти асослари. Тошкент, “Ўқитувчи” 1993. 160 бет.
4. Rasulov R., Mo‘ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. Toshkent, 2015. 116 bet.
5. Bekmirzayev N. Nutq madaniyati va notiqlik asoslari. Toshkent, “Fan” nashriyoti, 2007. 156 bet.
6. Suyunov O.J., Tashmatov SH.O‘. Notiqlik san’ati va nutq madaniyati fanidan ta’lim texnologiyasi. Samarqand, 2010. 110 bet.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/10]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:81.22

Sayohat ARZIQULOVA,
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
E-mail: sayokhat.arzikulova@bk.ru

QarDU dotsenti, PhD N.Umarova taqrizi asosida

POETIC COMMUNITIES IN MODERN UZBEK AND TURKISH WOMEN'S POETRY

Annotation

The article discusses modern Uzbek and Turkish women's poetry. Also, formal researches specific to women’s poetry in sister nations were analyzed. Poems of modern Uzbek and Turkish poets Halima Ahmedova, Zulfiya Mominova Gulnoz Mominova and Turkish poets Gulten Madak, Fatma Shengul Suzar, Zaynab Arkan are studied in a comparative aspect.

Key words: Women’s poetry, poetic genres, form studies, lyrical interpretation, typology, lyrical image, sarbast, finger, rhyme, billet, trident.

ПОЭТИЧЕСКИЕ ОБЩНОСТИ В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ И ТУРЕЦКОЙ ЖЕНСКОЙ ПОЭЗИИ

Аннотация

В статье рассматривается современная узбекская и турецкая женская поэзия. Также были проанализированы официальные исследования, посвященные женской поэзии в братских странах. В сравнительном аспекте изучаются стихи современных узбекских и турецких поэтесс Халимы Ахмедовой, Зульфии Моминовой, Гульноз Моминовой и турецких поэтов Гюльтена Мадака, Фатмы Шенгуль Сузар, Зайнаб Аркан.

Ключевые слова: Женская поэзия, поэтические жанры, формоведение, лирическая интерпретация, типология, лирический образ, сарбаст, палец, рифма, заготовка, трезубец.

ZAMONAVIY O‘ZBEK VA TURK AYOLLAR SHE’RIYATIDA POETIK MUSHTARAKLIKLAR

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy o‘zbek va turk ayollar she’riyati xususida fikr yuritilgan. Shuningdek, qardosh xalqlarda ayollar she’riyatiga xos poetik mushtarakliklar tahlilga tortilgan. Zamonaviy o‘zbek va turk shoiralari Halima Ahmedova, Zulfiya Mo‘minova Gulnoz Mo‘minova hamda turk shoiralaridan Gulten Akin, Didem Madak, Fatma Shengul Suzar, Zaynab Arkan singari ijodkorlar she’rlari qiyosiy aspektda tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: Ayollar she’riyati, she’riy janrlar, shakliy izlanishlar, lirik talqin, tipologiya, lirik obraz, sarbast, barmoq, qofiya, ignabarg, uchchanoq.

Kirish. Globallashgan davrda adabiyot o‘zining shakliy izlanishlari bilan dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, boshqa adabiy turlarga qaraganda lirik asar adabiy jarayon maxsuli o‘laroq bunday poetik o‘zgarishlarni ilg‘ashda va ifoda etishda yetakchi sanaladi. Adabiyotshunoslikda zamonaviy lirik tafakkurga xos poetik izlanishlar she’riy asarning motiv, detal, obraz, syujet, arxitektonikasidan tortib mazmun va g‘oyasigacha bo‘rtib ko‘rinmoqdaki, bu yangi janrlarni va she’riy tizimlarni yuzaga kelishida asos bo‘lmoqda.

Masalan, birlik, ikkilik, uchchanoq, uchpaxsa, ignabarg, g‘azalsimonlar, chorzarb, shashqator, qayirma, tasbeh, geometrik shakl, sonetlar gulchambari shular jumlasidandir. Zotan poetik ijod harakatdagi jarayon mevasi bo‘lib, uning har davrga xos badiiy qiyofasi adabiyotshunoslikning o‘zak muammolaridan biri sanaladi. Aytaylik, she’riy asarda shakl va mazmun hodisasi qator so‘z ustalari tomonidan turlicha talqin qilingan. Masalan, hazrat Navoiy bu xususida shunday yozadi:

Nazmda ham asl anga ma’ni durur,
Bo‘lsun aning surati har ne durur.
Nazmki, ma’ni anga marg‘ub emas,
Ahli maoniy qoshida xo‘b emas.
Nazmki, ham surat erur xush anga,
Zimnida ma’ni dag‘i dilkash anga [1]

Mutafakkirning fikrlaridan shu nardsa anglashiladiki, she’r(nazm)da shakl qanchalik chiroyli va bejirm bo‘lmasin, unda mazmun yetakchi sanaladi. She’r mukammal bo‘lmog‘i uchun esa shaklga mos mazmun, mazmunga monand shakl talab etiladi.

Rus adabiyotshunos olimi V.G.Belinskiy esa shakl va mazmun hodisasi haqidagi qarashlarini bildirar ekan shakl va mazmunni ajratish mumkin emasligini ta’kidlab fikrini quyidagicha bayon etadi: “mazmunni ifodalovchi shakl bir-biriga shunday bog‘liqki shaklni mazmundan ajratish mazmuni yo‘q qilish, mazmunni shakldan ajratish shaklni barbod qilish demakdir”[2].

Adabiyotshunos T.Boboyev ham she’riyatda shakl va mazmun mutanosibligi haqida mulohaza yuritar ekan she’r unsurlari bir-biriga chambarchas bog‘liqligini, ularni bir-biridan ajratib bo‘lmasligini ta’kidlaydi. “Hatto she’rda bir unsur ikkinchisiga va ayni chog‘da ikkinchisi birinchiga o‘tib turishi, ba’zan unsur ham mazmun, ham shakl vazifani o’tashi (obraz kabi) mumkin. She’rda mazmun va shakl bir butun holda voqe bo‘ladi. She’r to’qimasidagi mazmunga oid unsurlarni shaklda ifodalangan (shaklli) mazmun va shaklga oid unsurlarni mazmunli deb bilmoq kerak”[3].

Tadqiqot metodologiyasi. Ko‘rinadiki, she’rshunoslikda she’riyatdagi shakliy izlanishlarga doir qarashlarni qiyoslab o‘rganish, ularga xos individual, milliy va umuminsoniy estetik xususiyatlarni belgilash masala mohiyatini chuqurroq tadqiq qilishga xizmat qiladi. Shu ma’noda kichik tadqiqotda she’riy asarlarda shakliy izlanishlarni yoritishda zamonaviy o‘zbek va turk shoiralari ijodiga murojaat qilindi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Zamonaviy o‘zbek ayollar she’riyatida Halima Ahmedova, Zulfiya Mo‘minova, Gulnoz Mo‘minova, Guljamol Asqarova, Zebo Mirzo, Bashorat Otajonova va boshqalar. Turklarda Gulten Akin, Nilgun Marmara, Didem Madak, Fatma Shengul Suzar, Aysha Sevim, Zaynap Arkan singari shoiralar ijodiga xos poetik shakl izlanishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, H.Ahmedovaning “Tungi marvaridgullar”, Z.Mo‘minovaning “Ayol baxt bering”, G.Mo‘minovaning “Kometa” she’riy to‘plamlari, G.Akinning “Uzoq bir qirg‘oqda”, D.Madakning “Qayg‘ular daraxti”, F.Shengul Suzarning “So‘yla jimjitlik”, Z.Arkanning “Iqror” nomli to‘plamlarida ayol ruhiyatidagi evrilishlarni ko‘rsatish bilan bir qatorda shakliy izlanishlar ham ko‘zga tashlanadi. Masalan, Halima Ahmedova she’rlarida obraz, detal, ramzlar ifodasida aks etadi. Shoiraning “Yashil” nomli she’rida “yashil” haqiqatning rangi sifatida ramziy shaklda ifodalanadi:

“Chunki haqiqatning rangi yam-yashil…
Va yana kimdir aytgan edi:
Avval va oxirni
to‘ldirar yashil”

Yana bir misrada esa shoira hayotni odam o‘rgatuvchiga qiyoslaydi:

Chil-chil sindirgancha ko‘ngilni deyman:
Makkor hayot-odam o‘rgatuvchidir…[4]

Zamonaviy turk shoiralaridan Gulten Akin she’rlarida tabiat va undagi har bir detal orqali o‘z ruhiyati va ichki kechinmalarini ifodalaydi. Masalan, “Chumoli boshini o‘girdi” she’rida chumoli obrazida shoira yashab o‘tgan hayotini bir-bir namoyish qiladi. O‘z holicha tuproq bilan ovunib yashagan chumolining shovqinli katta shahar bilan tanishish istagi va bu istak yo‘lidagi sarguzashtlari she’rda hikoya qilinadi. Sarguzasht oxirida chumolining hayollari aslida o‘ziga tamoman begona ekanligi ochiqlanadi.

Bir lahzada vaqt ikkiga bo‘lindi,
“yog‘li o‘q” jon uyiga kirdi
arzimaydi, do‘stim arzimaydi,
hatto bir chumoli ham bu yolg‘onchi dunyoga boshin o‘girdi.[5]

Zamonaviy o‘zbek she’riyatdagi shakliy izlanishlar haqida olib borgan tadqiqotlarida adabiyotshunos Sa’dullo Quronov shunday yozadi. “XX asr o‘zbek she’riyatida zinapoya shaklidagi misralar, so‘zlarni alohida misraga chiqarish, turli usullarda tovush tovlanishlarini berishga intilish, bosh harflar bilan yozish kabi qator usullarning keng ommalashgani buning dalilidir. O‘tgan asrning oxirgi choragidan boshlab she’riyatimizda kuzatilgan ijodiy izlanishlar bu jabhani ham chetlab o‘tmadi”[6: https://quronov.narod.ru/smaqk1.html].

Xususan, o‘zbek shoiralari she’rlarida Sharq mumtoz she’riyati unsurlari saqlangan, sarbast vazn barmoq vazniga nisbatan biroz kam qo‘llaniladi. She’rlar ba’zan qofiyali, ba’zan esa qofiyasiz shaklda yaratilmoqda. So‘nggi o‘n yillikda sarbast vaznida yozilgan qofiyasiz she’rlar yanada ommalashganiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, shoira Gulnoz Mo‘mimova “Chig‘anoq” nomli to‘plamidagi she’rlari barmoq vaznida yozilgan bo‘lib zamonaviy she’riyatning go‘zal namunalari sanaladi. 2019-yilda nashr qilingan “Kometa” to‘plamidagi she’rlari esa qofiyasiz shaklda bo‘lib, misralar ba’zan bosh, ba’zan kichik harflar bilan boshlanadi. Bunday uslubni ko‘pgina yosh shoiralar she’rlarida ham uchratish mumkin. Turk shoiralari ijodida esa ko‘proq G‘arb she’riyatiga xos shakllar, g‘oyalar, tasvirlar kuzatiladi. Qoliplarni inkor qilish, haqiqatga g‘arbona nuqtai nazar bilan yondashish shaklsiz she’rlarni yuzaga ketirganiga guvoh bo‘lamiz. Zamonaviy turk shoiralari kitob nashr qilishda ham o‘zgacha yondashadilar. Xususan, shoira Gulten Akin “Uzoq bir qirg‘oqda” deb nomlangan she’riy to‘plamida she’rlar g‘ayritabiiy shaklda joylashtirilgan: she’rlar sahifa boshidan boshlanmay o‘rtasi yoki oxiridan boshlanadi. To‘plamda shoiraning bir, ikki, uch va to‘rt misradan tashkil topgan she’rlari ham kiritilgan bo‘lib, har biri alohida sahifada va sahifaning quyi qismidan joy olgan. Shoira ijodining so‘nggi davrida yaratilgan she’rlarida ilk misra bosh harflar bilan boshlanadi, keyingilari esa kichik harflarda davom etadi. Shoira Fatma Shengul Suzarning “So‘yla jimjitlik” nomli to‘plamiga kiritilgan she’rlari esa faqat kichik harflar bilan yozilganini ko‘rishimiz mumkin. Albatta, bu zamonaviy she’riyatdagi bir uslub sanaladi va bunday she’rlar kishini o‘zining g‘ayritabiiy joylashuvi va mazmunning bir qarashda anglashilamasligi bilan mulohazaga chorlaydi.

O‘zbek shoiralari orasida bunday shakliy yangilanishlar sirasiga she’riyatdagi janrlar rivojini ham ta’kidlab o‘tish lozim. Jahon she’riyati hamda mumtoz lirika ta’sirida o‘zbek she’riyatida ham birlik, ikkilik, uchlik, oltilik poetik shakllari yuzaga keldi, sonet janri yanada rivojlandi. Ular o‘zbek mumtoz adabiyoti va jahon adabiyoti yutuqlari bilan boyitilgan holda zamonaviy ijodkorlar ijodidan o‘rin oldi. Adabiyotshunos N.Rahimjonov o‘zining “Mustaqillik davri o‘zbek she’riyati” nomli risolasida bu xususda shunday mulohaza yuritadi: “An’anaviy janrlardan tashqari yana mavzu problemalariga ko‘ra tavsiflanuvchi ijtimoiy-siyosiy, peyzaj, ishq-muhabbat lirikasi yo‘nalishida, sonet, ikkilik-fard, uchlik-xokku, tanka, oktava, beshlik, oltilik, sakkizlik singari poetik janr va shakllarda ham izlanishlar yuzaga kelmoqda”[7]. Poetik janr va shakllardagi ushbu izlanish va yangilanishlardan kelib chiqib istiqlol davri she’riyatidagi o‘zgarishlarni avvalo, mumtoz lirika ta’sirining ortishi, folklor elementlarining zamonaviy she’riyat bilan uyg‘un shaklda qo‘llanishi hamda lirik shakllardagi poetik yangilanishlarda kuzatish mumkin. Bu haqida adabiyotshunos Nurboy Abdulhakim o‘zining “Yangi zamon she’riyati: tamoyillar, izlanishlar” nomli maqolasida quyidagicha yozadi: “Bugungi davr she’riyatini zamonaviy mavzularni ko‘hna aruzda ifodalashga intilish, she’riyatda xalqona ohanglarga ehtiyojning ortishi, poetik shakldagi yangilanishlar hamda poetik obrazlardagi yangilanishlarning yuzaga kelishi bilan izohlanadi”[8]. Ayni shu mavzular yuzasidan tadqiqot olib borgan yosh olima D.Tashova istiqlol yillarida o‘zbek she’riyatidagi badiiy shakllar genezisini tasniflar ekan uni 2ga:

O‘zbek mumtoz she’riyati ta’sirida yuzaga kelgan badiiy shakllar. Ularga ikkilik, uchchanoq, uchpaxsa, g‘azalsimonlar, chorzarb, shashqator, beshnavo, qayirma, o‘rtqavatlilar, tarona, muqarnas kabilar;

Jahon she’riyati asosida yuzaga kelgan badiiy shakllar. Bu tasnifga birlik, ignabarg, o‘rtabarmoq, tasbeh, geometrik shakl, sonetlar gulchambari kabilarni kiritadi[9].

Zamonaviy turk she’riyatida esa, asosan G‘arb adabiyoti ta’sirida lirik janrlar yuzaga kelganini kuzatiladi. Sonet, ballada, terza-rima, erkin mustazot, triole va boshqalar. Ammo ushbu janrlar bugungi kunda yanada yangilanib dastlabki shaklidan o‘zgarganini ko‘rish mumkin. Yangi turk she’riyatining o‘ziga xos xususiyatlari haqida turk adabiyotshunosi Sinan Bakir shunday yozadi: “Zamonaviy she’riyat an’analarini shakllantirgan Ikkinchi yangilanish davrining oxirgi avlodlari badiiy adabiyotda ma’no va voqelik, go’zallikni idrok etish, so‘z qo‘llash mahorati, tasvir va tasavvur, ritm, texnika, noan’anaviy birlashmalar singari jihatlardan chuqur ta’sirlangan”[10] Masalan, bu janrlar muayyan bandlar miqdoriga va qofiya tizimiga ega. Biroq, hozirda ba’zi janrlarda band va misralar miqdori mavjud bo‘lsada, qofiyalanish tizimi erkin holatda. Yana bir lirik janr sarbast mustazod bo‘lib, devon she’riyati ta’sirida yuzaga kelgan. Biroq hozirda G‘arb she’riyati an’analari bilan yangidan shakllangan. Xususan, erkin mustazot ham aruz, ham bo‘g‘inning turli naqshlari bilan yozilishi mumkin, ba’zan esa hech qanday tartibga rioya qilinmaydi. Qofiyalanishi ham qoidaga emas, balki shoirning irodasiga

bog‘liq. Bugungu kunda ushbu janrni ko‘pchilik ijodkorlar ijodida uchratish mumkin.

Gulten Akin butun umrini turk ayollarining erki va ozodligi uchun kurashga bag‘ishlagan, hatto ijodining dastlabki davrlari feministik g‘oyalar bilan sug‘orilgan sarbast vaznida yozilgan she’rlari bisyor edi. Biroq shoira umri poyonida “men”ga qaytish, o‘tgan umrini mushohada qilish, idilliyaviylik g’oyalari ifodalangan ikki, uch, to‘rt, hatto bir misradan taskil topgan she’rlar yozgan:

“sen Laylo emassan” dedi Majnun qovushgan onini
aqldan ozgan deb o‘ylashdi [11].

Shoiraning bunday qofiyasiz she’rlarida asosan, falsaviy mazmundagi fikrlar yoritilgan. “Jim-jit orqa bog‘chlar” to‘plamidagi she’rlari fikrimizga asos bo‘ladi.

Bundan tasqari qardosh shoiralar ijodidagi shakliy izlanishlarda mushtarak jihatlar ham ko‘zga tashlanadi. Xususan, Gulnoz Mo‘minova aralashband shaklidagi she’rlar Fatma Shengul Suzar ijodidagi ayrim shakliy izlanishlar bilan uyg‘unlik kasb etadi:

Kaftimga suv olib
Tashna yulduzlarga tutdim -
Ichdilar.

G.Mo‘minovaning quyidagi she’ri aralash band shaklida yozilgan bo‘lib, qofiya unsurlaridan foydalanilmaydi, ammo shoiraning so‘z topish mahorati tufayli butun she’rda ritmik uyg‘unlik yuzaga kelganini ko‘rish mumkin. Birinchi band uch misradan tashkil topgan bo‘lib, kafti bilan chanqagan yulduzlarni sug‘orarkan ularni yuragi bilan his etadi. Keyingi bandda esa o‘z qalbidagi ishq va dardni so‘ndirishga imkon qidiradi:

Ulardan ortganin
Chap ko‘ksimga sepdim -
Gulxanlar o‘chdilar.

Ushbu ikki bandga umumiy planda qarasak, shoira avval muayyan bir harakatni amalga oshiradi, so‘nggi misrada uning natijasini ko‘radi. Bu ham, albatta, shoira uslubiga xos soddalik, go‘zal va nozik shaklda ichki kechinmalarni tasvirlash. So‘nggi misralarni tahlil qiladigan bo‘lsak, avvalo, usbu band oldingi bandlar kabi uch misra emas, balki 4 misra ekanligi e’tiborni tortadi:

Tarqaganda gulxanimning
So‘nggi tutuni,
Shamol o‘ynab yurar edi
Kuyuk hidini [12].

Ushbu bandda birinchi va ikkinchi bandlarda amalga oshirilgan harakatning natijasi va umumiy xulosasi yuzaga chiqadi. Bir qaraganda shamolning hidni o‘ynashi ko‘z oldimizga go‘zal manzarani yuzaga keltiradi, biroq bu hid shoira qalb otashining kuyuk hidi ekanligi idrok etilsa, qalbda bir og‘riqni his etadi kishi. Shoira bu tasvirni real hayotdagi tabiiy hodisaga o‘xshatadi. Ya’ni yonib turgan olovga suv sepilsa, quyuq va achchiq tutun hidi keladi. Ko‘rinishidan oddiygina hodisa, ammo shoiraning mahorati tufayli u she’riyatda go‘zal tasvir va tashbehni yuzaga keltiradi.

Ayni holat zamonaviy turk shoiralari ijodida ham ko‘p uchraydi. Shoira Fatma Shengul Suzarning “So‘yla jimjitlik” nomli to‘plami kichik harflar bilan aralash band shaklda yozilgan she’rlardan iborat.

ey yooooor!
yosh edim
sukut qildim sokin bo‘ldi botinim
isming tasbehim takrorladim

tuni zeferdek zim-ziyo
dardi tog‘ qadar ulkan
nolasi skripka ovozidek itimning
qay vaqt, qaysi tong yorning ovozi
tusha boshlar qop-qora
bu shaharning qubbasiga [13]

Shoira ushbu she’rida oshiqning ichki kechinmalarini kuylar ekan, tun tasvirida zeferni*, achchiq dardni his ettirishda tog‘ni*, itning nolasini* skripka ohangi bilan ifodalaydi. Turk shoiralari she’rlari asosan, qofiyasiz shaklda ifodalanadi. Bu zamonaviy turk she’riyatining anchagina o‘zgarish va yangilanishlarga yuz tutganini ko‘rsatadi.

Tahlil va natijalar. Tahlillardan ko‘rinadiki, o‘zbek va turk shoiralarining she’rlaridagi shakliy izlanishlarni o‘zaro qiyoslab o‘xshash va farqli jihatlarga duch keldik. Xususan, qofiya, vazn, band va misralar, hatto she’r so‘zlarini tashkil qilgan harflarning ishlatilishida ham birmuncha o‘xshash va tafovutli holatlarni uchratamiz. Zamonaviy o‘zbek ayollar she’riyatidagi shakliy yangilanishlarlar asosan, Sharq mumtoz she’riyatiga xos jihatlarni o‘zida mujassam etsa, turk ayollar she’riyatida G‘arb dunyosiga xos xususiyatlar yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o‘zgarishlar, evrilishlar, yozuvchi-shoirlar ijodida o‘z aksini topadi. Shuningdek, shoiralar ijodi bevosita ularning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni, biografiyasi bilan bog‘liq holda kechadi. Ayniqsa, ayol ijodkorlar ruhiyatida kechayotgan og‘riqlar, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga bo‘lgan intilishlar tabiiy ravishda tasvirlanadi. Zamonaviy o‘zbek va turk she’riyati misolida ana shunday tasvirlar, ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar, yangilanishlar kuzatiladi. Xususan, she’riyatda bu kabi o‘zgarishlar va yangilanishlar so‘z ummonining g‘avvoslari bo‘lmish shoir va shoiralar ijodida o‘z aksini topadi.

ADABIYOTLAR

1. Navoiy A. Hayrat ul-abror. - T.: G‘.G‘ulom,2013. - B.51.
2. Белинский.В.Г. Собр.соч. в трех томах, Т. 3, М., ГИХЛ, 1948. - С.138.
3. Boboyev T. She’r ilmi ta’limi. -T.: O‘qituvchi, 1996. - B.16.
4. Ahmedova H. Yashil. -T.:Akademnashr, 2016. -B.19.
5. Akin G. Uzoqdagi qirg`oqda. To‘plam. – Istambul. YKY, 2023. - B.15.
6. https://quronov.narod.ru/smaqk1.html
7. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърияти. – Тошкент: Фан, 2007. - B.66.
8. Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърият. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт матбаа бирлашмаси, 2015. - B.21-45.
9. Tashova D. Mustaqillik davrida badiiy shakl izlanishlari. Avtoreferat. - Buxoro, 2023. - B.12.
10. Bakir S. Modern türk şıırında 2000’li yıllar. 2000’ler şiiri. - Istambul. Türkbilig, 2022/43: 187-216, 30. 05. 2022.
11. Akin G. Jim-jit orqa hovlilar. To‘plam. – Istambul. YKY, 2004. - B.6.
12. Mo‘minova G. Kometa. To‘plam. – Toshkent. Akademnashr, 2019. - B.277.
13. Shengul Suzar F. So‘yla jimjitlik.– Istambul: Ankara, 2021. - B.24.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/10]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK. 80/81.811.111(075.8)

Gulruh BAHODIROVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti v.b., PhD
E-mail: gulruhbahodirova7777@gmail.com

PhD A.Murtazayev taqrizi asosida

ZAMONAVIY TERMINOLOGIYADA ILMIY TERMIN VA KASB-HUNAR TERMINI TUSHUNCHALARI TALQINI MUAMMOLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy terminologiyada ilmiy terminlar va kasb-hunar terminlarining tushunchalari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari va talqini muammolari tahlil qilinadi. Shuningdek, terminologiya muammolari, ya’ni yangi atamalarni yaratish, ularni standartlashtirish va ommalashtirish masalalari ham ko‘rib chiqilgan. Terminologizatsiya va determinologizatsiya jarayonlari, shuningdek, maxsus leksikaning shakllanishi haqida batafsil ma’lumot berilgan. Maxsus leksikaning mohiyati va tarkibi, uning turlari, kasb-hunar so‘zlarining roli hamda dialektal leksikaning o‘ziga xosligi muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: Termin, terminologizatsiya, determinologizatsiya, maxsus leksika, ilmiy termin, professional leksika, sohaviy leksika, dialektal terminologik leksika.

PROBLEMS OF INTERPRETATION OF THE CONCEPTS OF SCIENTIFIC TERM AND PROFESSIONAL TERM IN MODERN TERMINOLOGY

Annotation

This article analyzes the concepts of scientific terms and professional terms, their characteristics and interpretation problems in modern terminology. Also, the problems of terminology, that is, the creation of new terms, their standardization and popularization, were also considered. The processes of terminologization and determinologization, as well as the formation of a special lexicon, are given detailed information. The essence and composition of the special lexicon, its types, the role of professional words and the uniqueness of the dialectal lexicon were discussed.

Key words: Term, terminologicalization, determinologization, special lexicon, scientific term, professional lexicon, sectoral lexicon, dialectal terminological lexicon.

ПРОБЛЕМЫ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ПОНЯТИЙ НАУЧНЫЙ ТЕРМИН И ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЙ ТЕРМИН В СОВРЕМЕННОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

Аннотация

В данной статье анализируются понятия научных терминов и профессиональных терминов, их характеристики и проблемы интерпретации в современной терминологии. Также были рассмотрены проблемы терминологии, то есть создания новых терминов, их стандартизации и популяризации. Подробно освещены процессы терминологизации и детерминологизации, а также формирования специальной лексики. Обсуждались сущность и состав специальной лексики, ее виды, роль профессиональных слов и своеобразие диалектной лексики.

Ключевые слова: Термин, терминологизация, детерминологизация, специальная лексика, научный термин, профессиональная лексика, отраслевая лексика, диалектная терминологическая лексика.

Kirish. Fan-texnika taraqqiyotining axborot ta’minoti turli mutaxassisliklarning til bazasini rivojlantirish, yangi fan yo‘nalishlarining paydo bo‘lishi, ushbu soha mutaxassisliklarining tilni o‘rganish jarayonini lingvistik ta’minotini yaratish ehtiyoji bugungi kunda mazkur soha leksikasining leksik va semantik ko‘lami yuzasidan tadqiqotlar olib borishni taqozo qilmoqda.

Termin bir paytda professional (maxsus) sohaning kommunikativ vositasi hamdir. Shu nuqtayi nazardan u diskursning turli ko‘rinishlarida ilmiy faoliyat natijasini ifodalovchi mental birlik sifatida qo‘llanishi mumkin[1]. Bu esa terminni boshqa lingvistik belgilar kabi kognitiv-diskursiv paradigma doirasida ko‘rib chiqishga imkon beradi. Aniqrog‘i, diskursning turli ko‘rinishlari, xususan, professional soha vakillari nutqida referentning ma’lum bir kasb-kor yuzasidan bilimlarini mustahkamlovchi, tabiiy til birligi va, shu bilan birga, bosqichma-bosqich lisoniylashib – terminologizatsiya natijasida muayyan tushuncha haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan lingvistik belgi hamdir[2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahon tilshunosligida terminologik tizimlar, xususan, sohaviy leksikani kompleks tahlil qilish, umumxalq tilining tarkibiy qismi sifatida ahamiyatini ochib berish borasida hozirgi kunga qadar turli aspektdagi qator tadqiqotlar bajarilgan, zamonaviy terminologiya maktablari yuzaga kelgan (“Vena terminologiya maktabi”, “Rossiya terminologiya maktabi”, “Praga terminologiya maktabi”) bo‘lsa-da, hanuz maxsus leksika va uning ichki turlarini ajratish tilshunoslarning eng ko‘p diqqatini tortayotgan muammo, terminologik nazariyalar eng munozarali masala, terminologiya fani esa tilshunoslikning eng ko‘p tadqiq qilinayotgan, eng bahsli sohasiligicha qolmoqda. Jumladan, jahon tilshunosligida E.Vyuster, H.Felber, M.T.Kabre Kastelvi, R.Temmerman, G.O.Vinokur, D.S.Lotte, S.V.Grinev, V.M.Leychik, A.V.Superenskaya, V.P.Danilenkolarning, o‘zbek tilshunosligida S.Ibrohimov, N.Mamatov, S.Akobirov, M.Asomiddinova, X.Baqoyeva, T.Tursunova, N.Mirzayev, O.To‘raqulov, R.Doniyorov, H.A.Dadaboyev, X.Doniyorov, Q.Sapayev, A.Hojiyev, M.Qosimova, Z.Miraxmedova, N.Ikromova, A.Madvaliyev, A.Sh.Sobirov va boshqalarning tadqiqotlari alohida e’tirof etilishi lozim.

Tahlil va natijalar. Terminologik tizim, xususan, sohaviy leksika taraqqiyoti ko‘proq ekstralingvistik omillarga bog‘liq holda kechadi. Negaki, yangi termin yangi bilimlarning paydo bo‘lishi, ilgari noma’lum bo‘lgan obyektning kashf etilishi bilan bog‘liq holda tug‘iladi. Shuning uchun, odatda, yangi terminlar tegishli sohalarda kashfiyot qilgan, obyekt yoki hodisalar o‘rtasidagi yangi munosabatlarni aniqlagan, voqelikning ilgari o‘rganilmagan tomonlarini kashf etgan tadqiqotchilar tomonidan umumiy foydalanish uchun taklif etiladi. Ammo taklif qilingan har qanday termin ham soha mutaxassislari tomonidan foydalanish uchun qabul qilinavermaydi, ya’ni har qanday termin ham uzoq umr ko‘ravermaydi[3]. Bu esa jahon terminologiyasida terminologizatsiya va determinologizatsiya jarayonlari tadqiqiga e’tiborning oshishiga olib keldi[4].

Terminologizatsiya – umumiste’mol leksikaga oid so‘zning terminga aylanishi[5]. Sohaviy leksikaga oid terminlarning aksariyati mana shu yo‘l bilan lisoniy bosqichga ko‘tariladi. Masalan, kashtachilik leksikasiga oid naqsh elemetlari nomiga aylangan lola, shoh, qalampir, bodom, paxtagul, rayhon, dastagul kabi o‘simlik nomlari, chashmiqush (qush ko‘zi), qushpanja, yol, tovus, kaptar kabi hayvon yoki qushlarning a’zolari nomlari terminlashish natijasida yuzaga kelgan.

O‘z navbatida, umumistemol adabiy til va og‘zaki so‘zlashuv leksikasi terminologiyaning shakllanishiga asos bo‘ladi. “Terminlar, ko‘pincha, umumiste’mol leksikadan ma’lum bir ma’nolarining maxsuslashuvi asosida hosil bo‘ladi. Masalan, [fojia], [ega], [ot], [qo‘shish], [ayirish] leksemalari umumiste’mol birlik. Ammo ilmiy terminologiyada ham shunday leksema mavjud”[6]. Yoki “hozirgi murakkab mashinalarning anchaginasi insoniyat tomonidan eng qadimgi zamonlarda yaratilgan sodda texnikaning rivojlana borib, yuksak darajaga erishuvining natijasidir. Demak, eski texnika elementlari va ularning nomlari har choq texnikaning keyingi taraqqiylashgan yangi shakllariga ham o‘tadi”[7].

Tilshunoslikda terminologik leksikaga mansub bo‘lmagan birliklarning maxsus soha leksikasiga o‘tish jarayoni – terminologizatsiyaning bir necha usullari ajratiladi. Masalan, O.S.Axmanova buni ma’noning kengayishi yoki umumlashishi yoxud “differensial belgining neytrallashishi” va ma’noning torayishi yoki unga yaqin ma’noning ixtisoslashuvi, ya’ni, umumiy, keng ma’noli so‘zni yo‘qotish va uni torroq, maxsus so‘z bilan almashtirish”[8] bosqichlarini ajratsa, boshqa olimlar tropeik terminlarning shakllanishi, ya’ni yuzaga kelishi trop – ko‘chma ma’no bilan bog‘liq – umumiy leksikadan metafora, istiora yoki metonimiya asosida yuz berishi, shuningdek, ko‘p ma’noli so‘z ma’nolari o‘rtasidagi semantik bog‘lanishning uzilishi natijasida omonimlarning yuzaga kelishi va bosh ma’nodan mutlaqo uzoqlashuvchi yangi ma’noning paydo bo‘lishi, so‘z mustaqil leksik birlik sifatida qabul qilinishi bilan asoslaydilar[9].

Determinologizatsiya – terminning umumiste’mol so‘zga aylanishi, ilmiy tushuncha bilan aloqani yo‘qotishi[10]. Determinologizatsiya bosqichma-bosqich terminologik ma’noning yo‘qolishi yoki so‘zdagi terminologik va noterminologik ma’nolarning aralashib ketishiga olib keladi. Bugungi kunda determinologizatsiya jarayonlari yo tabiiy ravishda, ya’ni ilmiy va madaniy bilimlarning ommalashuvi bilan bog‘liq holda o‘z-o‘zidan yoki terminlarning umumadabiy tilga mansub matnlarda turli uslubiy maqsadlarda ongli ravishda qo‘llanilishi bilan bog‘liq holda kechadi. Mutaxassislar terminologik ma’noga ega bo‘lmagan yangi maxsus leksemalarga metaforalashgan birliklar, slengizmlar, terminologik maqsadda kelib chiqqan frazeologik birliklarni kiritishadi[11].

Terminlashish jarayoni turli bosqichlar asosida kechib, terminoldi birlik, kvazitermin, prototermin, nomzod termin, terminoid, gibrid termin kabi birliklarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan.

Mavjud darslik va qo‘llanmalarda, odatda, maxsus leksika va terminologik leksika terminlari sinonim holda ishlatiladi. “Maxsus leksika deganda ma’lum bir sohaga tegishli lug‘aviy birlik va ularga tenglashgan birikma tushuniladi. Bunday maxsus leksika terminologiya ham deb yuritiladi: lingvistik terminologiya, fizik terminologiya[12].

Maxsus leksikaning ikki turi ajratiladi: 1) adabiy tilga mansub terminologik leksika; 2) dialektal terminologik leksika.

Birinchi guruhga ilmiy terminlar, ya’ni fan-texnika, qishloq xo‘jaligi, san’at va madaniyat sohalariga xos leksik birlik va so‘z birikmalari; ikkinchi guruhga turli kasb-hunar egalari nutqida qo‘llanuvchi leksemalar – kasb-hunar terminlari kiritiladi. Kasb-hunar terminlarining dialektal terminologik leksika deb nomlanishi shu hunar egasi qaysi sheva vakili bo‘lsa, shu sheva leksikasi tarkibiga kirishi bilan asoslanadi. “Masalan, Shahrisabz shevasiga mansub hunarmand ishlatadigan atama Buxoro shevasida bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun kasb-hunar leksemasi ikki hissa chegaralangan leksikani tashkil etadi. Bu leksika, birinchidan, ma’lum bir sheva doirasida bo‘lsa, ikkinchidan, shu shevada so‘zlashuvchi ayrim kishilar nutqiga xos”[12].

Akademik A.Hojiyev maxsus leksikaga quyidagicha izoh beradi:

Maxsus leksika. Mehnat faoliyatining turli sohalariga oid narsa-hodisalarni nomlovchi so‘zlar. Termin va kasb-hunarga oid so‘zlar maxsus leksikaga kiradi[13]. Ko‘rinib turibdiki, A.Hojiyev ham terminologik leksikaga nisbatan maxsus leksika terminini ishlatadi. Shu nuqtayi nazardan yondashsak, kasb-hunar so‘zlari – professionalizmlar ham termin hisoblanadi.

Tahlillarimiz asosida zamonaviy terminologiyaning asosiy terminlari ta’rifini keltirib o‘tamiz:

Termin (lot. terminus – chegara, had, me’yor) – fan, texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so‘z yoki so‘z birikmasi; atama. Terminlar bir ma’noli bo‘lishi, ekspressivlik va emotsionallikka ega bo‘lmasligi kabi belgilari bilan ham umumiste’moldagi so‘zlardan farqlanadi[14]. Termin ayrim o‘rinlarda istiloh, atama ham deb yuritiladi.

Istiloh ham aksariyat lug‘atlarda termin, atamaning ma’nodoshi sifatida keltiriladi:

Istiloh [a. – odatdagi so‘z qo‘llash; atama, termin] esk. kt. Termin, atama[15].

Tadqiqotchi F.A.Saidova ham atama – termin – istilohga ma’nodoshlik paradigmasi sifatida qaraydi va “ishlatilish doirasining kamligiga ko‘ra darajaviy o‘sib borish qatori” deb izoh beradi. Ushbu izohiga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ushbu birliklarga berilgan talqinni asos qilib keltiradi:

Atama 1 ayn. termin. 2 Umuman, nom[16].

Termin [lot. terminus – chek, chegara] Fan, texnika, kasb-hunarning biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo‘lgan so‘z yoki so‘z birikmasi; atama[17].

Istiloh [a. – odatdagi so‘z qo‘llash; atama, termin] esk. kt. Termin, atama[18]

O‘zbek tilida termin tushunchasiga doir nazariyalarni o‘rgangan M.Hojiyeva bu boradagi o‘z qarashlarini shunday xulosalaydi: “termin so‘zini ilm-fanning biror sohasi yoki tarmog‘ida qo‘llanuvchi so‘z yoki so‘z birikmalariga nisbatan qo‘llanilsa, atama so‘zini esa insonlar tomonidan shartli ravishda qo‘yilgan nomlarga, geografik joylarga, toponimlarga qo‘llash o‘rinli. Atama termin ma’nosiga nisbatan keng bo‘lib, u barcha narsalarning nomi sifatida tushuniladi hamda atamadan keng omma ham ko‘proq foydalanadi. Unda

terminologiyaga umuman tegishli bo‘lmagan toponimiya, antroponimiya, oykonimiya, ya’ni onomastikaga aloqador leksik birliklar ham tushuniladi. Istiloh so‘zini termin ma’nosida qo‘llash noto‘g‘ri, chunki bu so‘z ko‘proq tarixiy tushunchalarni ifodalab, tarixiy mavzulardagi matnlarda ishlatiladi”[19].

Umuman, sohaga doir manbalarda: maxsus leksika, terminologik leksika; termin, atama, istiloh; professionalizm, kasb-hunar so‘zlari, kasb-hunar leksikasi, professional leksika, sohaviy leksika, dialektal terminologik leksika birliklari sinonim sifatida ishlatilishi kuzatiladi.

Kasb-hunar leksikasi. Ma’lum kasb-hunar kishilari guruhiga xos, shular nutqida ishlatiladigan leksika: bigiz, sari, sog‘i, poshna, dastak, dazgil so‘zlari kosiblikka oid so‘zlardir[13].

Professionalizm (lot. professio – kasb-kor, mutaxassislik). Biror kasb-hunar egalari nutqiga xos so‘z yoki ibora. Mas, xat (sopol idishlarga bo‘yoq bilan solinadigan to‘g‘ri chiziq).

Professional leksika – q. Kasb-hunar leksikasi[13].

Nomen (lot. nomen – nom, ism) – yagona tushuncha ifodalaydigan bir turdagi narsa, predmet, mahsulotning nomi. Nomenlar tizimi terminlar tizimi kabi yopiq emas va qat’iy tartibga solinmagan. Termin muayyan sohaga doir umumiy tushunchalarni ifodalasa, nomen yagona tushunchani ifodalaydi. Unga alohida nomlar va nomlar tizimini umuman o‘zgartirmasdan qo‘shish yoki chiqarib tashlash mumkin. Nomenlar tizimi, ro‘yxati – nomenklatura, nomenlarni o‘rganadigan fan nomenologiya deb yuritiladi[20].

Predtermin (terminoldi birlik) – yangi shakllangan va yuzaga kelayotgan tushunchalarni nomlashda termin sifatida qo‘llanadigan, ammo terminga qo‘yiladigan asosiy talablar – aniqlik, tushunarlilik, usluban betaraflik kabi talablarga javob bermaydigan maxsus leksema. Ko‘pgina hollarda, vaqt o‘tishi bilan predterminlar terminga aylanadi[21].

Kvazitermin – predterminning terminologik talablarga ancha mos keladigan leksik birlik bilan uzoq vaqt davomida almashishi natijasida barqaror xususiyat kasb etgan maxsus leksema[22].

Terminoid – aniq ta’rifi, shuningdek, chegarasiga ega bo‘lmagan, qat’iy shakllanmagan va noaniq tabiiy tushunchalarni nomlash uchun ishlatiladigan maxsus leksemalar. Terminoidlar garchi muayyan tushunchalarni nomlasa ham, terminologik birliklar kabi aniqlik, kontekstual mustaqillik va barqaror tushuncha ifodalash xususiyatiga ega emas[23].

Prototerminlar – maxsus bilimlar rivojlanishining fangacha bo‘lgan davrida paydo bo‘lgan va qo‘llanilgan maxsus leksemalar. Shu bois ular ilm-fan paydo bo‘lishi bilan yuzaga keladigan tushunchalarni emas, balki maxsus nazariyalar, shartli tushunchalarni nomlaydi. Ayni paytda prototerminlar ilmiy-nazariy asoslarga ega bo‘lgan fan sohalarining leksik birliklari shaklida yoki ilmiy atamalar bilan parallel ravishda ishlatiladigan, ammo tushunchalar tizimi bilan bog‘liq bo‘lmagan xalqona atamalar shaklida qo‘llanadi[24]. M, gepatit – sarg‘ayma, gipertoniya – xafaqon kabi.

Xullas, maxsus – terminologik leksika bir-biriga juda yaqin bo‘lgan va ko‘p hollarda tutashib ketadigan quyidagi ko‘rinishlarga ega:

1) ilmiy terminlar; 2) kasb-hunar terminlari; 3) sohaviy terminlar.

Ilmiy terminlar – muayyan fan, texnikaga oid tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo‘lgan so‘z yoki so‘z birikmasi. Masalan, falsafa terminlari, biologiya terminlari, tilshunoslik terminlari.

Kasb-hunar terminlari muayyan sohada qo‘llanuvchi va shu soha vakillari nutqida ishlatiladigan, ular uchungina zarur bo‘lgan, terminlashgan so‘z. Masalan, kashtachilik, gilamchilik, zargarlik, rassomchilik, qurilish, chorvachilik, muhandislik terminlari kabi[25].

Sohaviy terminlar keng ma’noda, terminning barcha ko‘rinishlarini, tor ma’noda esa muayyan sohaga oid nomlar, masalan, kiyim-kechak, to‘y-hasham, aza-marosim, oziq-ovqat, taom nomlari, o‘yin nomlari va boshqalar[26]ga nisbatan ishlatiladi.

Xulosa va takliflar. Maxsus – terminologik leksika ilmiy terminlar va kasb-hunar terminlaridan tashkil topadi. Kasb-hunar termini muayyan sohada qo‘llanuvchi va shu soha vakillari uchungina zarur bo‘lgan, terminlashgan so‘z. Kasb-hunar terminlarining tarixiy etimologik asosi, lug‘aviy qatlamlari ma’naviy merosimiz va muqaddas qadriyatlarimizni o‘zida jamlagan dialektal leksika bilan bilan chambarchas bog‘liq. Negaki, kasb-hunar terminlari shevalardan xalq og‘zaki ijodiga, badiiy asarlarga va asta-sekinlik bilan adabiy tilga ko‘chadi. Shu nuqtayi nazardan kashtachilik terminlariga dialektal terminologik leksika sifatida qarash va uning tadqiqiga bir paytda ham etnolingvistik, ham lingvokulturologik, ham sotsiolingvistik, ham kognitiv nuqtayi nazardan yondashish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. Дроздова Т. В. Научный текст и проблемы его понимания (на материале научных экономических текстов): Дисс. ...д-ра фил. наук. – Москва, 2003.– . 390.
2. Карелова Д.Г., Гурьянова Т.П. Процесс терминологизации и детерминологизации терминов в профессиональном языке.
3. Андреев В.П., Соломин В.П. Каким должен быть учебный терминологический словарь // Известия Российского государственного педагогического университета имени А.И.Герцена. - N 9(46).
4. Косова М.В. Терминологизация как процесс переосмысления русской общеупотребительной лексики: автореф. дисс. ... д-ра. филол. наук. – Нижний Новгород, 2004. – С. 51.
5. Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Боқиева Г.Ҳ., Қурбонова М.М., Юнусова. З.Қ., Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 2009. – Б.116.
6. Мусаева Н.Э. Шевалар лексикасининг тараққий этишида касб-ҳунар терминларининг ўрни. Развитие лингвистики и литературоведения и образовательных технологий в эпоху глобализации. 2022, 1(1), – Б. 282. https://inlibrary.uz/index.php/dllseteg/article/view/5607 .
7. Ахманова, О.С. Словарь лингвистических терминов / О.С. Ахманова. –Москва: Сов. энциклопедия, 1969. – С.93.
8. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания / В.П. Даниленко. – Москва: Наука, 1977. – С. 246.
9. Толковый словарь Ефремовой. Т.Ф. Ефремова. 2000. / https://dic.academic.ru/dic.nsf/efremova/.
10. Небышинец М.С. Терминологизация и детерминологизация лексики как способы обогащения английского языка. Лингвистика, лингводидактика, лингвокультурология: актуальные вопросы и перспективы развития: материалы III Междунар. науч.-практ. конф., Минск, 14–15 марта 2019 г. – Минск: БГУ, 2019. – С. 89. https://elib.bsu.by/handle/123456789/217687.

11. Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Боқиева Г.Ҳ., Қурбонова М.М., Юнусова З.Қ., Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 2009. – Б.116.
12. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларнинг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002, – Б.47, 82, 104.
13. Винокур Г.О. (1939) О некоторых явления словообразования в русской технической терминологии // История отечественного терминоведения: классики терминоведения. – М., 1994.
14. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 238.
15. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 113.
16. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 73.
17. Саидова Ф.А. Луғатларда синоним лексемалар талқини. Филол. фан. бўй. фалс. д-ри. (PhD) ... дисс. – Гулистон, 2023. –Б. 80.
18. Hojiyeva M. Termin tushunchasiga oid nazariy qarashlar. Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar. // Respublika ikkinchi ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2022. –B.323.
19. Винокур Г.О. (1939) О некоторых явления словообразования в русской технической терминологии // История отечественного терминоведения: классики терминоведения. – Москва, 1994.
20. Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. Изд-е 2. – Москва: КомКнига, 2006.
21. Лейчик В.М. Некоторые вопросы упорядочения, стандартизации и использования научно-технической терминологии // Термин и слово. – Горький, 1981.
22. Хаютин А. Д. Термин, терминология, номенклатура (учебное пособие). – Самарканд, 1971.
23. Гринев С. В. Исторический систематизированный словарь терминов терминоведения. – Москва, 2001.
24. Bahodirovna, B. G. (2023). KASHTACHILIK LEKSIKASINING LEKSIK-SEMANTIK TASNIFI. Science and innovation, 2(Special Issue 5), 222-226.
25. Bahodirova Gulruh Bahodirovna. (2024). Interpretation of Embroidery Terms in Dictionaries. Excellencia: International Multi-Disciplinary Journal of Education (2994-9521), 2(6), 981-983. https://doi.org/10.5281 /

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/10]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:338.48:005.44

Sitora GULOMOVA,
Teacher of the Alfraganus University
E-mail: s_gulomova@mail.ru

On the review of N.Yakubova, associate professor PhD of UzSWLU

FEATURES OF THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE TOURISM SPHERE AND ITS TERMINOLOGY

Annotation

This article examines the evolution of the tourism industry, detailing its historical formation and contemporary development. It highlights key features such as the transition from ancient travel for trade and pilgrimage to modern mass tourism, driven by technological advancements and economic growth. The study emphasizes current trends, including sustainable tourism, digital transformation, and experiential travel, and introduces relevant terminology such as “eco-tourism”, “cultural tourism”, and “adventure tourism”. Understanding these aspects is crucial for stakeholders, including policymakers and businesses, as they navigate challenges like overtourism and environmental sustainability. Overall, the article underscores the importance of recognizing the dynamic nature of the tourism sphere and its language to promote effective strategies for sustainable growth in the industry.

Key words: Tourism industry, historical formation, contemporary development, mass tourism, sustainable tourism, digital transformation, experiential travel, eco-tourism, adventure tourism.

ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКОЙ СФЕРЫ И ЕЁ ТЕРМИНОЛОГИИ

Аннотация

Данная статья рассматривает эволюцию туристической индустрии, подробно описывая её историческое становление и современное развитие. Подчёркиваются ключевые особенности, такие как переход от древних путешествий для торговли и паломничества к современному массовому туризму, движимому технологическими достижениями и экономическим ростом. Исследование акцентирует внимание на современных трендах, включая устойчивый туризм, цифровую трансформацию и опытный туризм, а также вводит соответствующую терминологию, такую как «экотуризм», «культурный туризм» и «приключенческий туризм». Понимание этих аспектов имеет решающее значение для заинтересованных сторон, включая политиков и бизнес, поскольку они сталкиваются с такими проблемами, как переполнение туристами и экологическая устойчивость. В целом, статья подчёркивает важность признания динамичной природы туристической сферы и её языка для разработки эффективных стратегий устойчивого роста в индустрии.

Ключевые слова: Туристическая индустрия, историческое формирование, современное развитие, массовый туризм, устойчивый туризм, цифровая трансформация, экспериментальный туризм, экотуризм, приключенческий туризм.

TURIZM SOHASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI HAMDA UNING TERMINOLOGIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqola turizm sanoatining evolyutsiyasini o’rganadi, uning tarixiy shakllanishi va zamonaviy rivojlanishini batafsil bayon etadi. U qadimiy savdo va ziyorat uchun sayohatlardan zamonaviy ommaviy turizmga o’tishni, texnologik taraqqiyot va iqtisodiy o’sish tomonidan boshqarilayotgan asosiy xususiyatlarni ta’kidlaydi. Tadqiqot sifatli turizm, raqamli transformatsiya va tajribaviy sayohat kabi hozirgi tendentsiyalarni ajratib ko’rsatadi hamda “ekoturizm”, “madaniy turizm” “sarguzasht turizmi” kabi tegishli terminologiyani kiritadi. Ushbu jihatlarni tushunish, siyosatchilar va biznes kabi manfaatdor tomonlar uchun juda muhimdir, chunki ular turizmning haddan tashqari ko’payishi va ekologik barqarorlik kabi muammolarni hal qilishga harakat qilmoqdalar. Umuman olganda, maqola turizm sohasining dinamik tabiati va uning tilini tan olishning ahamiyatini ta’kidlaydi, bu esa sanoatda barqaror o’sishni ta’minlash uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Turizm sanoati, tarixiy shakllanish, zamonaviy rivojlanish, ommaviy turizm, sifatli turizm, raqamli transformatsiya, tajribaviy sayohat, ekoturizm, sarguzasht turizmi.

Introduction. The tourism industry has evolved into a significant global sector, influencing economies, cultures, and societies. This article explores the features of the formation and development of the tourism sphere, focusing on its historical context, current trends, and the terminology used within the industry. Understanding these elements is crucial for stakeholders, including policymakers, businesses, and researchers, to navigate the complexities of tourism effectively.

Literature review. The roots of tourism can be traced back to ancient civilizations. Early travel was primarily motivated by trade, exploration, and pilgrimage. According to Cohen (1972), the establishment of trade routes facilitated the movement of people, which laid the groundwork for future tourism practices. The Grand Tour of the 17th and 18th centuries marked a significant cultural shift, with young European aristocrats traveling across the continent to enhance their education and social standing [2].

The Industrial Revolution in the 19th century catalyzed mass tourism. With advancements in transportation—such as steamships and railways—travel became more accessible to the middle class [5]. This period saw the emergence of organized travel, led by companies like

Thomas Cook, which offered package tours and guided experiences[8].

In recent decades, the tourism industry has experienced dramatic changes due to globalization, technological advancements, and shifts in consumer behavior. Sustainable tourism has become a focal point, with a growing emphasis on minimizing environmental impact and promoting cultural preservation [4]. Scholars like Smith (2015) argue that sustainable practices are essential for the longevity of tourism destinations.

Digital transformation has also reshaped the tourism landscape. The rise of online booking platforms and social media has fundamentally changed how travelers plan and experience their journeys [1]. The concept of "bleisure" travel—where business trips are combined with leisure activities—illustrates the evolving motivations behind travel [3].

The development of the tourism industry has led to the emergence of various terms that reflect its complexity. Key terminologies include:

- Sustainable Tourism: Tourism that focuses on minimizing negative impacts while enhancing the socio-economic well-being of local communities [9].

- Cultural Tourism: A form of tourism that emphasizes experiencing the culture, heritage, and lifestyle of a destination [8].

- Eco-Tourism: Responsible travel to natural areas that conserves the environment and improves the well-being of local people [6].

- Experiential Travel: Travel focused on immersive experiences and authentic interactions rather than traditional sightseeing [7].

Understanding these terms is crucial for stakeholders, including policymakers and businesses, as they navigate challenges such as overtourism and environmental sustainability [10].

Methods. This study employs a qualitative research approach to examine the features of the formation and development of the tourism sphere and its associated terminology. The following methods were utilized:

1. Literature Review: An extensive review of academic journals, books, and reports was conducted to gather historical and contemporary perspectives on tourism. Key sources included works by leading scholars in tourism studies, reports from international organizations such as the United Nations World Tourism Organization (UNWTO), and industry publications.

2. Case Studies: Specific case studies of popular tourist destinations were analyzed to illustrate the practical applications of tourism concepts and terminology. These case studies provided insights into how different regions have adapted to evolving tourism trends and challenges.

3. Content Analysis: A systematic content analysis of relevant online and print materials was performed to identify and categorize key terms and phrases in the tourism industry. This analysis focused on how terminology has evolved in response to changes in consumer behavior, technology, and sustainability practices.

Maqolada o‘zbek dramalarida uchrovchi paremiyalarning lingvokultrologik xususiyatlari misollar yoradamida tahlil qilinadi. Ushbu maqolada Turli xususiyatlarga ega bo‘lgan Frazeologik birliklar majmui tilning frazeologik qatlamini tashkil etadi. Tilning frazeologik qatlami doimiy ravishda yangi frazeologemalar bilan boyib boradi va xalqning madaniy-tarixiy tajribasini, shuningdek, muayyan tilning tarixiy taraqqiyot qonunlarini aks ettiradi. Frazeologemalarni o‘rganish va tasnif qilish bilan frazeologiya shug‘ullanadi.

Kalit so‘zlar: Lacuna, maqol, frazeologik birliklar, lingvokulturologiya, ekvivalent.

LINGUISTIC AND CULTURAL CHARACTERISTICS OF PAREMIAS FOUND IN UZBEK DRAMAS

Annotation

The article analyzes the linguistic and cultural characteristics of paremies found in Uzbek dramas with the help of examples. In this article, a set of phraseological units with different characteristics constitutes the phraseological layer of the language. The phraseological layer of the language is constantly enriched with new phraseology and reflects the cultural and historical experience of the people, as well as the laws of historical development of a particular language. Phraseology deals with the study and classification of phraseology.

Key words: Lacuna, proverb, phraseological units, linguoculturology, equivalent.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ И КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПАРЕМИЙ, ВСТРЕЧАЮЩИХСЯ В УЗБЕКСКОЙ ДРАМАТУРГИИ

Аннотация

В статье на примерах анализируются лингвокультурные особенности паремий, встречающихся в узбекских драматургах. В данной статье совокупность фразеологизмов с различными характеристиками составляет фразеологический пласт языка. Фразеологический пласт языка постоянно обогащается новой фразеологией и отражает культурно-исторический опыт народа, а также закономерности исторического развития того или иного языка. Фразеология занимается изучением и классификацией фразеологии.

Ключевые слова: Лакуна, пословица, фразеологизм, лингвокультурология, эквивалент.

Kirish. Bugungi kunda lingvokulturologiya ko‘pincha ekstralingvistik sharoitlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ta’lim sifatida ko‘riladi. Tilshunoslikdagi antropotsentrik yondashuv an’anaviy ravishda lug‘at sohasiga taalluqlidir; uzoq yillar davomida shakllangan an’analar aks etgan badiiy matnni tahlil qilishda antropotsentrik yondashuv asosida bajariladi. Bunday yondashuvni tilshunos Y.S. Stepanov to‘g‘ri deb hisoblaydi, chunki lingvistik tadqiqotlarda antropotsentrik paradigmaning boshlang‘ich asosi ma’ruzachining (shaxs yoki jamiyat) “qo‘llash jarayonida tilni o‘zlashtirish” qobiliyatini tan olishdir[10].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqot zamonaviy tilshunoslikning: frazeologiya, leksikologiya, lingvokulturologiya va qiyosiy tilshunoslik kabi yo’nalishlarida olib borilgan uslubiy ishlarga asoslanadi. Quyidagi tilshunoslarning tadqiqotlari asarning nazariy asoslari uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi: V. L. Arxangelskiy, I. V. Arnold, O. S. Axmanova, N. D. Arutyunova, V. V. Vinogradov, M. D. Stepanova, I. I. Chernysheva, N. M. Shanskiy, V. G. Gaka, A. V. Kunin, V. N. Teliy va boshqalar. Ishda o‘rganilayotgan birliklar ustida tadqiqotini amalga oshirishda kompleks va tizimli yondashuv asosida umumiy ilmiy uslubiy tamoyillarga asoslangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning nazariy ahamiyati mavzuni o‘rganish jarayonida paremiyalarning xususiyatlarini va sotsiopragmatik komponentining dolzarb ahamiyatiga ta’sir qilish doirasini aniqlashdir. Bu zamonaviy tilshunoslikda, xususa pragmalingvistikada, til vositalarining funktsiyasini aniqlashtirishga yordam beradi va maqollar tomonidan ko‘tarilgan funktsional-semantik va pragmatik masalalarni o‘rganishga hissa qo‘shadi.

Tahlil va natijalar. Kognitiv va etnolingvistik tahlil yordamida antroposentrik tilshunoslik millatning o‘ziga xosligini va turmush tarzini, uning qadriyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan lingvokulturologik leksikaning mohiyati ochib beriladi. Hozirgi kunda zamonaviy tilshunoslikning antroposentrik yo’nalishida obyekti ma’lum bir millatning kognitiv dunyoqarashining muhim ko‘rsatkichi bo‘lgan til hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishning asoschilari: Gumboldtning millat va til birligi haqidagi g‘oyalari chet el va rus tatqiqotchilari A. Potebnja, Boduen de Kurtene, G. Shtayntal, I. Gerder ta’limotlarida, bundan tashqari, D. Uitni, D.U. Pauell, Xaydiger, F. Boas, E. Sepir, B.L. Vorf, L. Vaysgerber, U. Stepanov, Teliya, E. Kubryakova, D. Lixatchev, V. Demjankov, M.Minski, U. Apresyan, U. Karaulov, N. Jinkin, V. Maslova, I. Galperin kabi olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Zamonaviy lingvistik paradigmaning nazariy va kognitiv tadqiqot jarayonlari tobora mazmunli bo‘lib, zamonaviy tadqiqotlar uchun asosiy shart bo‘lib xizmat qilmoqda. Til dialektik hodisa degan fikrga asoslanib, antropotsentrik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maqsad insonning tilga ta’sirini ham,

tilning inson hayoti, fikrlash jarayonlari va turmush tarziga ta’sirini ham aniqlashdir. Hozirgi kunda har bir xalq tomonidan real dunyoni idrok etish va tushunish, shu orqasidan dunyoning lisoniy tasvirini shakllantirish jarayonida, ushbu zamonaviy ilmiy yo‘nalishlarning fanlararo "til va tafakkur", "til va etnos", "til va madaniyat" va "til va psixologiya" kabi xususiyatini tasdiqlaydi va o‘zaro bog‘liqliklarni yuzaga keltiradi. Ikki turli xil fanning til konsepti bilan birlashishi natijasida tilshunoslik fanining yangi kognitiv lingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika kabi yo‘nalishlari shakllandi. Hozirgi vaqtda ushbu sohalarning har biri alohida ob'ekt va tadqiqot mavzusiga, shuningdek, alohida ilmiy va intizomiy xususiyatga ega. Ular toifalar, kontseptual tizimlar va metall tildan iborat.

Til – madaniyat tushunchasiga bo‘lgan qiziqishning tobora ortishi esa terminologik qatlam tarkibiga kiruvchi tushunchalarni aniqlashtirishni dolzarb masala darajasiga ko‘tarmoqda. Insonni o‘z tilidan tashqarida o‘rganishning iloji bo‘lmaganligi sababli, til milliy madaniyatning mavjudligini va uning asosiy shakllarini o‘zida namoyon etadi. Til, madaniyat, etnosning o‘zaro munosabati masalasi yangi hodisa emas. XIX asrning boshlaridanoq bu muammoni nemis olimlari aka-uka Grimmlar o‘rganishga xarakat qilganlari ma’lum. “til-madaniyat” tushunchalarining uzviy aloqadorligi dastlab V.Fon Gumboltning ishlarida ko‘rinadi[11].

Turli xususiyatlarga ega bo‘lgan Frazeologik birliklar majmui tilning frazeologik qatlamini tashkil etadi. Tilning frazeologik qatlami doimiy ravishda yangi frazeologemalar bilan boyib boradi va xalqning madaniy-tarixiy tajribasini, shuningdek, muayyan tilning tarixiy taraqqiyot qonunlarini aks ettiradi. Frazeologemalarni o‘rganish va tasnif qilish bilan frazeologiya shug‘ullanadi.

Lakunalar (realialar) tilning semantik xaritasida faqat bir millatgagina xos bo‘lgan so‘zlardir ya’ni nominativ birliklarning milliy-madaniy o‘ziga xosligi nafaqat ekvivalent birliklar mavjudligida, balki ma’lum bir tilda ifodalangan so‘zlar va ma'nolarning boshqa tillarda yo‘qligida ham namoyon bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha tillardan birida lakunaning mavjudligi tegishli denotatning yo‘qligi bilan emas, balki ayni qaysidir madaniyatda bunday farqning ahamiyati yo‘qligi bilan izohlanadi. Iymon va insof haqida, vijdon haqida, mehmondo‘stlik va vatanparvarlik haqidagi maqollar shu jumlasidandir.

Arzon bo‘lsa, oluvchidan insof ketar,
Qimmat bo‘lsa — sotuvchidan.

Vijdondan kechgan yiqilar.

Da'vogar sust bo‘lsa,
Qozi muttaham bo‘lar.

Insof — sari baraka.

Insofi borning barakati bor.
Insofi yo‘qning imoni yo‘q.

Insofli oshini yer,
Insofsiz — boshini.

Dunyoning milliy-madaniy rivojlanishi ona tili ta’siri ostida sodir bo‘ladi, chunki biz dunyo haqida faqat o‘z tilimizning birliklarida, uning kontseptual tarmog‘idan foydalangan holda o‘ylashimiz mumkin. Shu sababli, turli millatlar kontseptsiyaning turli xil vositalaridan foydalanib, dunyoning turli xil lisoniy tasvirini shakllantiradilar, bu aslida milliy madaniyatlarning asosidir. Fransuz va o‘zbek tili uchun umumiy xos bo‘lgan bir yana bir narsani ko‘rish mumkin. Maqollarda diniy lakunlalarning bo‘lishiShunday qilib, xalq tili uning hayoti, tarixi, madaniyati, dunyoqarashini aks ettiradi. Tushunchasi til va madaniyat bir-biridan ajralmasdir. Til va madaniyat o‘zaro ta'sir qiladi. Har bir xalqning tili o‘ziga xos xususiyatni ifodalaydi va “xalqning eng yaxshi xarakteristikasi”dirНачало формы

O‘zbek tilidagi paremiyalar, shu jumladan maqol va matallarda o‘zbek xalqining qadriyatlari, urf-odatlari va donoligini aks ettiruvchi madaniy kemtiklar mavjud. O‘zbek tilidagi paremiyalar bilan bog‘liq ba’zi madaniy xususiyatlarga nazarr tashlab chiqamiz

Mehmondo‘stlik va saxiylikni anglatadigan maqollarda o‘zbek xalqi madaniyatiga xos bo‘lgan mehmondo‘stlik va mehmonlarga iliqlik va saxiylik bilan munosabatda bo‘lish muhimligini ta’kidlaydi.

Mehmon otangdan ulug‘,

Borini bergan uyalmas,

Mezbon borini qo‘ysa, mehmon ozga sanamas.

Mehmon - aziz, mezbon – laziz

Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan[12]

O‘zbek xalqi orasidagi o‘zaro mehr-muruvvatning go‘zal ko‘rinishlaridan biri bu ualrning mehmonavozligidir. Xalqimiz asrlar davomida o‘zining mehmondo‘stlik ananalarini saqlab kelmoqda va bu yaqqol o‘zbek tilidagi paremialarda o‘z aksini topadi. O‘zbek xonadoniga mehmon kelishi yaxshilik belgisi, to‘kin-sochinlik alomati, mehr-oqibat, muhabbat, insoniylik ramzi hisoblanadi. Zero, mehmon bilan birga uyga tinchlik-totuvlik, osoyishtalik va rizq kirib keladi, ko‘ngilsiyohliklar, gina-kudurat ko‘tariladi, qarindoshlar o‘rtasida totuvlik rishtalari o‘rnatiladi.

Yuqorida keltirilgan maqollarni lingvokulturologik jihatdan tahlil qilar ekanmiz, mehmondo‘stlik kabi o‘zbek madaniyatiga xos belgi odamlarda insonparvarlik, saxiylik, xushmuomalalik, xushfe’llik sifatlarini namoyon qilishi, mehmon kirgan uyga u bilan birga osoyishtalik kirishi nazarda tutiladi.

Mehmon mezbon tomonidan qadrlangani uchun ham uning uchun yangi ko‘rpachalar yoziladi, mehmon uchun kundalik turmushda ishlatilmagan idish -tovoqlarda taom suziladi. Dasturxon ustida shirin suhbatlar quriladi.

Har bir xalqni o‘ziga yarasha mehmon kutish udumi bor. Masalan, g‘arb mamlakatlarida yoki fransuzlarda mehmon birovnikiga borishdan avval albatta uy egasi shu kuni uyda bo‘ladimi yo‘qmi, uning vaqtiga qarab mehmonga borish kelishiladi va albatta o‘zi bilan dasturxonga tortiladigan birorta taom ham olib kelinadi. Lekin yer yuzida qaysi millat bo‘lmasin, eshikdan kirib kelgan odamni hurmati joyiga qo‘yilib kutib olinadi, u lazzatli taomlar bilan siylanadi.

2. Yoshi kattalarga hurmat va shu bilan birga donolik aks etganda, ushbu bayonot oqsoqollarga hurmat ko‘rsatish va yoshlar bilan birga keladigan donolikni tan olishning madaniy ahamiyatini aks ettiradi:

Kattaga hurmatda, kichikka izzatda,
Qadrlasang qadring oshar,
Qadrsizdan hamma qochar;
Qadringga yetganni bil, qadrlabdi, hurmat qil.
Qadr bilmas qarindoshdan yaqindagi yot yaxshi.

3. Sabr-toqatning ahamiyati:

Sabr tagi sariq oltin.
Sabr tog‘ni yiqitar.
Sabr - umr xazinasi.
Sabr -shodlik kaliti.
Sabr etgan yetar murodga,
Besabr qolar uyatga.
Sabr etgan - murodga yetgan.
Sabr qilgan moy oshar,
Olqish olgan ko‘p yashar
Sabr qilsang, tuyaning yukini bo‘ta ko‘tarar.
Sabr qilsang, g‘o‘radan holva bitar,
Besabrlar o‘z oyog‘idan yitar.

Ushbu maqollar sabr-toqat va u keltiradigan mukofotlarning fazilatlariga madaniy ishonchni ta’kidlaydi. O‘zbek xalqi sabr-qanoat qilish yaxshi hayot sari eltishi, go‘zal fazilat egasi bo‘lgan kishigina sabr qila olishi mumkin ekanligiga ishora qilgan asnoda ushbu maqollarni asrlar osha qo‘llab keladi.

Xulosa. Til muloqot vositasi bo‘lishdan tashqari, millat ideallarini himoya qilish va inson tabiatini anglashning o‘ziga xos kaliti bo‘lib xizmat qiladi. Tildan foydalangan holda kelajak avlodlar tarixiy rivojlanishning uzoq davrida shaxslar to‘plagan hayotiy tajribalar, shuningdek, ularga saboq bergan barcha narsalar va turli sharoitlarda o‘rganilgan ma'lumotlar haqida bilib olishlari mumkin.

Til madaniy va tarixiy tajribalarni etkazish vositasi bo‘lib xizmat qilganligi sababli, ushbu tilda so‘zlashuvchilar o‘zlarining madaniy merosi bilan chambarchas bog'liqdir. Til millatning tarixiy va madaniy o‘ziga xos xususiyatlarini ochib beradigan, shu millat to‘g‘risida lingvokulturologik ma’lumotni yetkazish vositasi sifatida etnik madaniy birliklarda (frazeologik birliklar, iboralar, maqollar va matallar, epitet, metafora, metonimiya, taqqoslash va boshqa birikmalar yordamida) yanada yaqqol ko‘rinadi. Bundan tashqari, shu xalqning dunyoqarashi va dunyoning lisoniy tasvirini shakllantirishda o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. Masalan, o‘zbek tilida tasvirlangan dunyo qiyofasi millatning etnokognitiv tabiati o‘zbek millatining donoligi va hayotiy falsafasi shu tilda aks etadi va o‘zaro bir-biri bilan uzviy bog‘liq tushunchalardir.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayev X.D. Xalq maqollarining “Qutadg‘u bilig” poetikasidagi o‘rni va badiiy estetik funksiyalari: Filol.fan. nomzodi ...dis. T., 2005. – 152 b.
2. Amosova N.N. Osnovy fransuzskoy frazeologii.– M.: 1961. – 236 ct.
3. Anikin V.P. Mudrost narodov // Poslovisy i pogovorki narodov vostoka. – M.: Nauka, 1961. – 76 s.
4. Ataxanova G.Sh. Nominasii “vozrast cheloveka” v kognitivnopragmaticheskom i lingvokulturologicheskom aspektax (na materiale fran. yazyka): Avtoref. dis…. kand.filol.nauk. – T., 2006. – 20s.
5. Vinogradov V.V. Osnovniye ponyatiya russkoy frazeologii kak lingvisticheskoy dissiplinы. V kn.: Leksikologiya i leksikografiya. – M.,1977. –278 ct.
6. Vlaxov, C., Florin, C. Neperevodimoye v perevode, - M., 1980. – 244 c. 95.
7. Shirinova R.H., Rakhimova G.A. and others. Representation of the national picture of the world in literary translation. International Journal of Advanced Science and Technology. Vol. 29, No. 5, (2020), pp. 1436-1445. https://www.researchgate.net/publication/340966581_Representation_of_the_national_picture_of_the_world_in_literary_translation?_tp=eyJjb250ZXh0Ijp7ImZpcnN0UGFnZSI6InB1YmxpY2F0aW9uIiwicGFnZSI6InByb2ZpbGUiLCJwcmV2aW91c1BhZ2UiOiJwdWJsaWNhdGlvbiJ9fQ.
8. Rakhimova G., Narimonova Z., Otajonova S., Abdulxaeva M.Stereotypy and poetics of the endemic of recit. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems. 2019. T. 11. № 7. C. 966-969. https://www.elibrary.ru/item.asp?id=43249894. https://www.elibrary.ru/contents.asp?id=39218042
9. Rakhimova, G.A, Kizi, A.I.M., Kizi, E.B.A., Ashurova, S.A, Kakharova, N.I. Literary translation and stylistic figures. (2019) International Journal of Recent Technology and Engineering, 8 (2 Special Issue 6), pp. 435-438. https://www.scopus.com/inward/record.uri?eid=2-s2.0-85073424244&doi=10.35940%2fijrte.B1082.0782S619&partnerID=40&mDOI: 10.35940/ijrte.B1082.0782S619
10. Степанов Ю. С. Концепт «причина» и два подхода к концептуальному анализу языка – логический и сублогический // Логический анализ языка: культурные концепты. М.: Наука, 1991. С. 5–14.
11. В. Гумбольт. Центральная Азия, исследования горных хребтов. 3 рейса. 1843, 134-140.
12. O'zbek xalq maqollari – ZiyoUz, uzbek_xalq_ogza ki_ijodi/T.Mirzayev, A... · 2013-11-11 · 1988), A. Naumov (1985).

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/10]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:796.06:654.19

Dilnoz MURTAZAYEVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti
E-mail:dilnozmurtazaeva@gmail.com

PhD Sh.Hayitov taqrizi asosida

TELEKO‘RSATUVLAR VA SPORTNI OMMALASHTIRISH MASALALARI (O‘zMTRK MISOLIDA)

Annotatsiya

Biz oynai jahon ya’ni, televideniye orqali olimpiada sport turlarini mashhur tarixiy manbalar, kitoblar va tarixiy kinolar orqali ham ko‘rishimiz mumkin. Bir so‘z bilan aytganda, o‘sha davrda sportga, jismoniy tarbiyaga bo‘lgan katta ishtiyoq yillar oshib, sport jurnalistikasi shakllanib rivojlandi, ommalashdi. Ma’lumki, XX asrda O‘zbekiston televideniyesi qoshida “Sport” muharririyati ijodkorlari tomonidan ko‘rsatuvlar tayyorlangan. Har bir teleko‘rsatuvni tayyorlashda janr, mavzu, kontseptsiya hamda yaxshi yozilgan ssenariy muhim o‘rin egallaydi.

Kalit so‘zlar: OAV, televideniye, ssenariy, ko‘rsatuv, islohot, sport, sog‘lom turmush tarsi.

ВОПРОСЫ ПОПУЛЯРИЗАЦИИ ТЕЛЕПРОГРАММ И СПОРТА (НА ПРИМЕР НТРК УЗБЕКИСТАНА)

Аннотация

Мы можем смотреть олимпийские виды спорта по телевидению, через известные исторические источники, книги и исторические фильмы. Словом, в этот период с годами возросло большое увлечение спортом и физкультурой, сформировалась и развивалась спортивная журналистика, становилась популярной. Известно, что в XX веке программы готовились создателями редакции «Спорт» на Центральном телевидении Узбекистана. Жанр, тема, концепция и хорошо написанный сценарий играют важную роль в подготовке каждой телепередачи.

Ключевые слова: СМИ, телевидение, сценарий, шоу, реформа, спорт, здоровый образ жизни.

ISSUES OF POPULARIZATION OF TV PROGRAMS AND SPORTS (FOR EXAMPLE OF NTRK UZBEKISTAN)

Annotation

We can watch Olympic sports on television, through famous historical sources, books and historical films. In short, during this period over the years, a great passion for sports and physical education has grown, sports journalism has formed and developed, and has become popular. It is known that in the twentieth century, programs were prepared by the creators of the editorial board "Sport" on the Central Television of Uzbekistan. Genre, theme, concept and a well-written script play an important role in the preparation of each TV program.

Key words: Media, television, script, show, reform, sports, healthy lifestyle.

Kirish. Ma’lumki, bugungi kunda televideniye va radio ommaga mamlakatimiz va xorijda ro`y bergan muhim xabar va yangiliklarni yetkazib berish, ijtimoiy fikr uyg`otish, qolaversa,dam olishiga ko‘maklashish kabi asosiy vazifalaridan tashqari, inson psixologiyasiga ta'sir ko`rsatish, uning dunyoqarashi kengaytirish, ongini o`zgartirish qudratiga ega kuchli vositalardan biriga aylangan[1]. Har bir teleko`rsatuvni tayyorlashda janr, mavzu, kontseptsiya hamda yaxshi yozilgan ssenariy muhim o`rin egallaydi.

Mamlakatimiazda sportni ommalashtirishda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.02.2024 yildagi PF-37-son Farmoni asosida “O`zbekiston-2030”strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo`llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi qabul qilndi[2]. Ushbu dasturda ta`kidlanganidek, 10 million nafar aholini yugurish, futbol, voleybol, stol tennisi, shaxmat, milliy va belbog`li kurash kabi sport turlari bo`yicha marafon va musobaqalarni tashkil etish orqali ommaviy sportga jalb etish choralari ijrosini amalda ta`minlashi yuzasidan joylarda izchil islohotlar, sport tadbir va musobaqalari olib borilayotganligi O`zbekiston milliy teleradiokompaniyasida atroflicha yoritib borilmoqda.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili ma`lumki, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son farmoni qabul qilingan[1]. Ushbu 2022-2026 yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to`g`risidagi farmonda mamlakatimizni 2017-2021yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalish bo`yicha harakatlar strategiyasi doirasida o`tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300ga yaqin qonun, O`zbekiston Respublikasining to`rt mingdan ziyod qarorlari qabul qilindi. Mazkur strategiyada inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatni yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish borasida 100 ta maqsad belgilangan. Jumladan, 67-maqsadda “ Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug`ullanadigan fuqarolarning sonini oshirish” masalasi muhimdir. Unda quyidagilar belgilangan.Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug`ullanadigan aholi sonini 2026-yilda 33 foizga chiqarish.Respublika yoshlari o`rtasida milliy sport turlarini ommalashtirish.O`zbekistonda sportning ommaviyligini oshirish maqsadida milliy sport turlari va xalq o`yinlarini rivojlantirish.

-Yurtimizning chekka hududlari va qishloqlarida sog`lomlashtirish ishlarini yanada rivojlantirish.

-Barpo etiladigan har bir “Yashil hudud”da yugurish, velosipedda harakatlanish uchun “Salomatlik yo`laklari” hamda badminton, stritbol va vorkaut maydonchalarini tashkil etish.

-Vazirlik, idora hamda tashkilotlar xodimlarini va aholini sport tadbirlariga jalb qilish, ular ўrtasida musobaqalar tashkil qilish.

-Milliy olimpiada sport o`yinlarini o`tkazish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish.

-Sport o`yinlari o`tkaziladigan sport ob'ektlari infratuzilmasini yaxshilash va zarur sport inventarlari bilan jihozlash.

-Milliy olimpida o`yinlarini yuqori darajada tashkil etish hamda g`olib va sovrindorlarni munosib rag`batlantirish.

-Milliy olimpida o`yinlariga tayyorgarlik ishlarining borishini ommaviy axborot vositalari orqali, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog`ida keng yoritilishini tashkil etish [9]. Ushbu vazifalarnim puxta o`rganish va Respublikamiz hududlarida olib borilayotgan ommaviy sport turlarining aholi o`rtasidagi targ`ibot va tashviqot hamda turli sport to`garak va sekstiyalar faoliyati haqida “Sport”DM telekanalida maxsus repotaj va informatsion dasturlarida yoritilib borilmoqda.

Prezidentimizning 21.02.2024 yildagi PF-37-son farmonida “O`zbekiston-2030”strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo`llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dastuririga ko`ra; “Aholining yosh toifalari bo`yicha barcha hududlarida har yili jismoniy tayyorgarlik sinovlarini o`tkazish.Sport bilan shug`ullanishga jalb qilingana aholi ulushini oshirish.Aholini sport turlariga jalb qilish orqali jismoniy tarbiya va sport bilan shug`ullanuvchilar qamrovini 26 foizdan 28 foizga yetkazish vazifalari belgilandi [1]. Mazkur farmonning ijrosi borasida kelejakda ko`plab islohotlar amalga oshiriladi.Hamda jamiyatimizda sog`lom avlod tarbiyasida sportning o`rni nechog`li muhim ekanligi haqida OAVda targ`ibot ishlari yanada jadallashadi.Ushbu farmonning to`liq tafsiloti (Lex.uz saytida) kengroq berilgan va kerakli ma'lumotlarni olish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi Ma'lumki, XX asrda Markaziy O`zbekiston televideniyesi qoshida “Sport” muharririyati ijodkorlari tomonidan “Quvnoq startlar” 45 daqiqali bolalarga oid ko`rsatuv tayyorlangan. Tajribali sharhlovchi Axbor Imomxo`jayev musobaqalarni sharhlagan.Tadqiqotlar o`rganilgan so`rovnomalarga ko`ra, 1980 yil Moskvada to`rt yilda bir marotaba tashkil etiladigan yozgi olimpiada o`yinlari o`tkazilgan edi.Ushbu musobaqalarni O`zbekiston televideniyesi Moskvadan to`g`ridan-tog`ri translyatstiya orqali efirga uzatgan.O`zbekiston televideniesi orqali turli yosh toifalariga oid spartikiada o`yinlari va nufuzli musobaqalar namoyish etilgan.

Ma'lumki, O`zbekiston milliy teleradiokompaniyasining asosiy maqsadi respublikamiz va jahonda sodir bo`layotgan voqea-hodisalardan aholini tezkorlik, xolislik va haqqoniylik asosida xabardor etish bo`lsa, mamlakatimizda ro`y berayotgan ulkan ijobiy o`zgarishlarni huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatni shakllantirish yo`lidagi islohotlarni keng yoritish uning ustuvor vazifalardan iborat.

Ta`kidlash joizki, 2015 yilga kelib teleradiokompaniya tizimidagi telekanallar 26taga etdi, radiokanallar soni 16tani tashkil etdi.Hozirgi kunda O`zbekiston milliy teleradiokompaniyasida 14ta telekanal 24 soat mobaynida o`z tomoshabinlariga sifatli telemahsulotni tayyorlashda o`z faoliyatini davom ettirayapti [2].

Sportni ommalashtirishda tematik, mavsumiy ko`rsatuvlar mavjud.Mamlakatimiz yil davlat dasturi asosida tayyorlanadigan sportni ommalashtirishga oid teleko`rsatuvlar “O`zbekiston”,” O`zbekiston 24”, “Sport”,”Toshkent” “Mahalla”, “Yoshlar”, Dunyo bo`ylab” telekanallarida keng yoritilib boriladi.

Tahlil va natijalar 2024 yil 28 aprel kuni O`zbekiston Respublikasi Sport vazirligi tomonidan “Yangi nafas” yugurish musobaqasi tashkil etildi.Aholi o`rtasida sog`lom turmush tarzini targ`ib qilish,ularning salomatligini mustahkamlash va ommaviy sportni yanada rivojlantitish maqsadida “Bir Vatanda, bir vaqtda, bir masofada birga yuguramiz” shiori ostida hududlarda yugurish marafoni o`tkazildi.Tahlil va natijalarga ko`ra, Qoraqalpog`iston Respublirasida 7000 nafar, Qashqadaryo viloyatida 3000 nafar, Navoiy viloyatida 5000 nafar, Namangan viloyatida 4500 nafar, Farg`ona viloyatida 6000 nafar, Sirdaryo viloyatida 1000 nafar, Toshkent viloyatida 6000 nafar sportsevar ishtirok etdi.Ushbu sport bahslari mamlakatimizning barcha OAVda keng tarzda yoritildi[1].

Hozirgi kunga kelib, chet eldagi OAVda ham sog`lom turmush tarziga oid turli ko`rsatuv va tok-shoular tayyorlanib kelinayapti. Jumladan, TV3.ru https: G`G`tv3.ru>project>azbuka-zdorovya internet tarmog`idagi saytida berilgan ma'lumotga kўra, Rossiya davlatidagi “TV3” telekanalida “Azbuka zdorovya” nomli tok-shou ham sog`lom turmush tarziga asoslanganligi bilan muhim o`rin egallaydi.[1] Mazkur tok –shou 2016 yildan buyon ko`plab tomoshabinlar e'tiborini qozonib kelayapti.

Tongi dam olish dasturining 48 daqiqasida teleboshlovchi va muallif Gennadiy Malaxov noan'anaviy xalq tabobati hamda fitness bo`yicha murabbiy Mariya Korpan yaratgan nafas tizimiga oid gimnastika, sog`lomlashtiruvchi mashqlar efirga beriladi.[2] Ushbu tok-shou orqali ular teletomoshabinlarga tog`ri ovqatlanish va kasalliklarni noodatiy usullar orqali davolash muolajasi, inson tanasi uchun yaxshi va yomon bo`lgan holatlar haqida o`z maslahatlarini berishadi. Bu tok-shou keng auditoriyaga inson salomatligini saqlashda zamonaviy super tibbiyot metodikasi va oddiy yo`l bilan sog`lom turmush tarziga rioya qilish usullari haqida foydali ma'lumotlar bilan alohida o`rin tutadi. Mazkur dastur insonlarni kun davomida yaxshi kayfiyatda bo`lib, ortiqcha depressiya va stress holatlardan xoli bo`lishga undaydi.Ko`rsatuv jarayonida tomoshabin o`z sog`ligiga befarq bo`lmaslik, zamonaviy tibbiyot yangiliklardan boxabar bo`lish, xalq tabobati orqali foydali tavsiyalarning ahamiyati haqida mutaxassislar o`z fikrlarini intervyu yoki suhbat orqali berib borishadi[3].

Shubhasizki, ushbu ko`rsatuvni tayyorlashda mahoratli ssenariytslar, teleboshlovchilar, muharrirlar, prodyusserlar va tasvirchilar hamda ijodiy jamoaning mehnati, tajribasi keng auditoriyada namoyon bo`ladi.Mazkur tok-shouning ssenariy muallifi Yuliya Tetdoeva va mahoratli boshlovchilarning sa`yi-harakatlari hamda televizion atmosferadagi o`zaro ahillik ham telemahsulotni sifatli bo`lishini ta'minlaydi.Hamda ijodkorlarning teletomoshabinlar e'tiborini qozonishdagi sa`yi-harakatlari tasvirga olish jarayonida yaqqol sezilib turadi.

O`zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tomonidan xorijiy teleradioeshittirish tuzilmalari, axborot agentliklari va xalqaro tashkilotlar bilan teleradioeshittirish sohasida erishilgan kelishuvlarni hamda yo`lga qo`yilgan samarali hamkorlikni mustahkamlash va sifat jihatidan yangi pogonaga ko`tarish borasida izchil faoliyat amalga oshirib kelinmoqda.[1]Ushbu hamkorlik O`zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tashqi aloqalarda o`z ijobiy natijasini berayapti.Shu o`rinda 1999 yildan O`zbekiston milliy teleradiokompaniyasi mintaqadagi xalqaro muassasalar, ya`ni ABU Osiyo va Tinch okeani teleradioeshittirishlari Uyushmasiga a`zo aylandi.2004 yildan esa uning to`la huquqli a'zosi bo`ldi.Ushbu o`zaro manfaatli hamkorlik ijobiy natijasini berdi. MTRK, 2009 yilda AIBD ya`ni Osiyo va Tinch okeani mintaqasi teleradioeshittirishni rivojlantirish institutiga a`zosi hamdir.2015 yilda Toshkent shahrida O`zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “ABU” bilan hamkorlikda“Uyushma forum”larini muvaffaqiyatli o`tkazdi.2019 yil noyabrda Osiyo va Tinch okeani teleradioeshittirishlari Uyushmasi Bosh assambleyasining Yaponiya davlatida bo`lib o`tgan 56-yig`ilish yakunlarida O`zbekiston millliy teleradiokompaniya yangi uch yillik muddatga Uyushma Boshqaruv kengashi a`zoligiga qayta saylandi.Mazkur hamkorlik axborot va teledasturlar bilan almashinuv,mintaqada teleradijdaturlar sohasini rivojlantirish,

ijodiy hamda texnik jamoa malakasini oshirish va qayta tayyorlash, xalqaro sport tadbirlarini birgalikda yoritishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar. Har yili O`zbekiston milliy teleradiokompaniyasi xalqaro aloqalar bo`limi tomonidan Malayziyaning “ABU” Media Academy akademiyasi bilan hamkorlikda dunyo jurnalistika sohasida ro`y berayotgan zamonaviy islohotlar bo`yicha onlayn malaka oshirish o`quv kurslari tashkil etiladi.

2021 yil pandemiya davrida xalqaro Uyushma kotibiyati bilan mintaqa qatnashuvchilari va manfaatdor ishtirokchi davlatlar hamkorligida onlayn “ABU Media Forum” bo`lib o`tdi. “ABU” nufuzli tashkilot doimiy ravishda tele va radiokanallar muxbirlari va texnik xodimlari uchun yangi texnologiyalar bo`yicha o`quv kurslar, seminarlar, treninglar o`tkazadi.Shu o`rinda soha mutaxassislarining kasbiy bilim va tajribasini oshirish maqsadida forumlar, konferentsiyalar, mahorat darslari va tadbirlarni tashkil etadi.Men 2024 yil bahor mavsumida Malayziyaning “ABU” Media Academy akademiyasining malakaviy o`qishida ishtirok etdim.”ABU Webinars”, ”ABU Sports “kabi onlayn o`quv seminar va vebinarlar bo`lib o`tdi. [1] Mutaxassislar bizga “Parij -2024” yozgi olimpiada o`yinlaridagi tasvirga olish bo`yicha tashkiliy ishlar hamda sport jurnalistlari, reportyorlari va sharhlovchilari uchun yaratilgan sharoitlar, qulay zamonaviy texnologiyalar, kompyuter grafikasi va ovoz yozish texnikasi, sohasiga oid rasmiy veb-saytlardan foydalanish haqida taqdimotlarini tavsiya etishdi.Vebinarda onlayn tarzda Parijdan yetakchi mutaxassislar “ZOOM” platformasi orqali sport jurnalistlariga o`z ijodiy videoroliklarini namoyish etdilar.[2]Vebinar ishtirokchilarni qiziqtirgan savollariga javob berishdi.Ushbu xalqaro o`quv sport vebinari ingliz tilida olib borildi.E'tiborlisi, unda Osiyo qit`asidagi malakali sport jurnalistlari ishtirok etishdi.

Xulosam, yakunida men ushbu o`quv seminarda qatnashganim, kelajakda o`z kasbimga bo`lgan intilishni zamonaviy bilim va tajribani uzviy bog`liq ravishda olib borishimga katta yordam berdi.Bu o`quv jarayoni televideniye sport jurnalisti o`zaro tajriba almashish bilan birga, zamon bilan hamnafas bo`lishda xorijiy sport jurnalistikasida ro`y berayotgan so`nggi yangiliklardan boxabar bo`lish imkoniyatini beradi. Eng asosiysi, ular sport o`yinlarini yoritish bilan birga, o`z tomoshabinini ushlab qolishda yangi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish tajribasini amalda ko`rsata oldi.

Taklifim, televideniye va sportni ommalashtirish masalalari bo`yicha sotsiologik tadqiqotlarni ko`paytirish maqsadga muvofiq bo`ladi.Ushbu so`rovnomalarni aholi o`rtasida haqqoniy va holisona olib borishda, sotsilog mutaxassislar bilan hamkorlikni mustahkam yo`lga qo`yish kerak.Bu borada ommaviy axborot vositalari faol pozitsiyaga ega bo`lishsa, tayyorlayotgan telemahsulotni tomoshabinga yanada sifatli, mazmunli va tahliliy yetkazishda o`z samarasini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Lex.uz saytidan olindi. O`zbekiston Respublirasi Prezidentining qarori, farmoni 21.02.2024 yildagi PF-37-son “O`zbekiston-2030”strategiyasini “Yoshlar va biznesni q`ollab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi
2. Lex.uz saytidan olindi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01 2022 eildagi PF -60-son.2022-2026 yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to`g`risida 67-maqsad: Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanadigan fuqarolarning sonini oshirish.
3. O`zbekiston Respublikasi Sport vazirligi Web-sayt,Telegram, Facebook, Instagram, Yutube platformasidan foydalanildi.
4. TV3.ru https: G`G`tv3.ru>project>azbuka-zdorovya
5. webinars@abu.org.my
6. ЖУРНАЛИСТИКА. Аудиовизуал журналистика.6-жилд. –Т.:Ўзбекистон, 2019.
7. Рўзиев Ф., Жўраева Х. Тележурналистга тавсиялар – Т.: Шарқ, 2013.
8. Цвик В.Г. Телевизионная журналистика. Теория и практика. –М., 2000.
9. Ўзбекистон миллий телерадиокомпанияси : замон билан ҳамқадам.– Т:. “O`zbekiston” НМИУ, 2016-192б. “Sport” телерадиоканали. 74-бет
10. Ўзбекистон миллий телерадиокомпанияси : замон билан ҳамқадам Т:. “IJOD-PRESS” нашриёти, 2022-172-б.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/10]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 1 (092). 043

Oygul NAZIROVA,
Namangan muhandislik texnologiyainstituti tayanch doktoranti
E-mail:oygul_nazirova@mail.ru.

JTSBMQTMOI Samarqand filiali dotsenti F.Eshnazarova taqrizi asosida

ZAMONAVIY DIZAYN (KOSTYUM) TERMINOLOGIYASINING TARJIMA TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada dizayn (kostyum) terminologiyasining tarjimada berilish masalalari va yechimlari muhokamaga tortilgan. Unda ekvivalentlari yo‘q terminlarni kalkalash, transliteratsiya va transkripsiya usullari bilan tarjima qilish yo‘llari ham yoritib berilgan. Tahlilda shuningdek, transkriptsiya va transliteratsiya usullaridan foydalanishning ahamiyati, so‘z o‘zlashtirish, dizayn va modaning doimiy o‘zgaruvchan ekanligi, shu sababdan sohaga yangi terminlar kirib kelishi va ularning tarjima tilida ekvivalentlari yo‘qligi sababli tavsifiy tarjima uslubi ham keng qo‘llanishini guvohi bo‘ldik.

Kalit so‘zlar: Tarjima, ekvivalent, adekvatlik, transkripsiya, transliteratsiya, kalkalash, tavsifiy tarjima, so‘z o‘zlashtirish.

АНАЛИЗ ПЕРЕВОДОВ СОВРЕМЕННОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ ДИЗАЙНА (КОСТЮМА)

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы перевода терминологиидизайна (костюма) и пути их решения. Также объясняются способы перевода терминов, не имеющих эквивалентов, средствами калькирования, транслитерации и транскрипции.В ходе анализа мы также стали свидетелями важности использования методов транскрипции и транслитерации, феномена словообразования, того факта, что дизайн и мода постоянно меняются, из-за этого в поле выходят новые термины, не имеющие эквивалентов в язык перевода, и в этом случае также широко используется метод описательного перевода.

Ключевые слова: Перевод, эквивалент, адекватность, транскрипция, транслитерация, калька, описательный перевод, заимствование.

ANALYSIS OF THE TRANSLATIONS OF MODERN DESIGN (COSTUME) TERMINOLOGY

Annotation

This article discusses the problems of translating design terminology (costume) and ways to solve them. It also explains the methods of translating terms that have no equivalents by means of calquing, transliteration and transcription.During the analysis we also witnessed the importance of using transcription and transliteration methods, the phenomenon of word formation, the fact that design and fashion are constantly changing, due to which new terms appear in the field that have no equivalents in the target language, and in this case the method of descriptive translation is also widely used.

Key words: Translation, equivalence, adequacy, transcription, transliteration, calque, descriptive translation, borrowing.

Kirish. Inson qaysi bilim sohasini tadqiq etmasin, u doimo turli terminlarga duch keladi. Terminlar ma’lum bir bilim sohasi uchun katta ahamiyatli tushunchalar bo‘lib, ular bitta so‘z bilan ifodalanadi. Ya’ni termin o‘ziga xos aniq va yagona ma’noga ega bo‘lgan maxsus so‘zdir. Ko‘p hollarda termin bir so‘z emas, balki semantik yadroni aniqlay olishi kerak bo‘lgan terminologik guruh bo‘lishi ham mumkin. Terminlar tarjimasining o‘ziga xosligi va murakkabligi ham shundadir. Tilshunoslar tarjimonlar tarjima qilishda qo‘llaydigan ko‘plab usullar va uslublarni biladilar. Mutaxassilik terminlarini va ayniqsa, termin-neologizmlarni tarjima qilish tarjimondan maxsus bilim va malakaga ega bo‘lish talab qilinadi. Shu bois, Amerikalik tarjimashunos olima S. Bassnett-Makgayr “Tarjimon avvalo o‘quvchi, u matnni talqin etuvchi o‘quvchi”, deb ta’riflaydi[1]. Bizning fikrimizcha, tarjimonning asosiy xususiyati uning o‘quvchiligi emas, tarjimonligi va undan ham muhimrog‘i, ijodkorligidir.

Adabiyotlar tahlili. Terminlar tarjimasi bilan ko‘plab xorijlik va o‘zbekistonlik tarjimashunos olimlar tadqiqotlar olib borishgan: V.N.Komissarov, L.S.Barxudarov, L.K.Latishev, G‘.Salomov, Q.Musayev, K.Jo‘rayev, N.Otajonov, M.Umarxo‘jaev, M.Xolbekov, Sh.Safarov, G‘.Rahimov, Z.Isomiddinov, Z.Sodiqov va boshqalar. V.N.Komissarovning so‘zlariga ko‘ra, “tarjima to‘laligicha asl nusxaga qaratilgan o‘ziga xos lingvistik vositachilik turidir” [2]. L.S.Barxudarov va L.K.Latishevlar ham, “tarjima imkon qadar tabiiy tilga yaqin bo‘lgan ikki tilli muloqotni ta’minlashga qaratilgan bo‘lishi kerak” degan nuqtayi nazarni ilgari suradilar. Darhaqiqat, terminlarni tarjima qilishda noaniqlikka yo‘l qo‘ymaslik lozim. Bu ularni noto‘g’ri tushunishga va keyinchalik nutqda noto‘g’ri harakatlarga olib keladi. Tarjimashunos Q.Musayev tarjimaga lingvistik nuqtayi nazaridan yondashgan holda, shunday ta’rif beradi: “Insoniyat faoliyatining murakkab shakli bo‘lmish tarjima - bir tilda yaratilgan nutqiy ifodani (matnni), uning shakl va mazmun birligini saqlagan xolda, o‘zga til vositalari asosida qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayondir”[3]. Demak, asliyat mansub bulgan til vositalari yordamida yaratilgan nutqiy ifoda (matn) tarjima tili qonuniyatlari asosida vujudga kelgan shunday ifoda bilan almashtiriladi. Bu orqali asl nusxa va tarjima tillari matnlarining mazmuniy-uslubiy adekvatligi yuzaga keladi.

Dizayn (kostyum) va moda termin tizimi dinamik va yaxlit, shuningdek, doimiy ravishda ijtimoiy-madaniy va estetik qadriyatlarni yetkazib bera oladigan, o‘zining tizimliligi, amal qilishi va tarjimasi jihatidan murakkab tizimdir. Turli soha matnlarini tarjima qilishda tarjimon maxsus soha terminlariga alohida e’tibor qaratishi lozim, chunki mutaxassislik matnlardagi ma’lumotlarni kodlaydigan, tuzadigan va tartibga soladigan aynan terminlardir.

V.M.Leychik va S.D.Shelovlarning fikricha, terminlarni adekvat tarjima qilishning quyida ko‘rsatilgan uchta sharti mavjud:

1) matnning alohida terminlarini to‘g’ri tarjima qilish;

2) har bir tarjima qilingan terminni asliyat va tarjima tilining terminologik tizimlari nuqtayi nazaridan tekshirish;

3) har bir tilda ma’noni yetkazishning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, terminlardagi farqlarni hisobga olish [4].

“Terminlarni tarjima qilishda ikkita holat yuzaga keladi: lug’atlarda qayd etilgan asl til terminining ko‘rsatilgan tildagi ekvivalentlarining mavjudligi; ekvivalentlarning mavjud bo‘lmasligi”[5]. S.V.Griney-Grinevichning fikricha, tarjimada ekvivalentlik – bu asl nusxadagi kabi bir xil vaziyatni, butunlay boshqa nashrda tasvirlashdan iborat bo‘lgan tarjima texnikasidir. Ekvivalentlik zamonaviy tarjima nazariyasining markaziy tushunchasidir.Shu o‘rinda “terminlar tarjimasi” iborasining shartliligini ta’kidlagan A.V.Achkasovning “terminni tarjima qilib bo‘lmaydi, faqatgina uning leksik ekvivalentlari ro‘yxati va asl terminning mazmunini aks ettiruvchi ta’riflarito‘g‘ri tanlansa bo‘ldi”, degan fikrini keltirib o‘tish maqsadga muvofiqdir[6].

Tahlil va natijalar. Har qanday leksik birliklarni tarjima qilishning asosiy omili bu ekvivalentlikdir: “Tillararo va matnlararo muvofiqlik shaklida umumiy kontseptual ma’noga asoslangan ekvivalentlik – tarjimonlar o‘zlarining kasbiy faoliyatini amalga oshirishda pirovard natijada rioya qiladigan maqsaddir”[7]. Terminologik ekvivalentlarga quyidagilar misol bo‘lishi mumkin: dress - ko‘ylak, trousers - shim, pocket - cho‘ntak, stitch - chok, collar–yoqa, sleeve - yeng.

Yangi terminlar maxsus mutaxassilik sohasi uchun neologizm hisoblanadi. Ushbu terminlarning tarjimasi esa o‘ziga xos qiyinchiliklarga ega. Leychik va Shelov tarjima tilida terminlarning moslik tanlovi bo‘yicha 5 ta tarjima usullarini ajratib ko‘rsatadilar: 1) tarjima tilida ekvivalentlarning mavjudligi; 2) semantik konvergentsiya (yaqinlik); 3) kalkalash; 4) so‘z o‘zlashtirish; 5) tavsifiy tarjima[8]. Tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatdiki, dizayn (kostyum) sohasidagi terminlarni ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishning keng tarqalgan usullari transkripsiya va transliteratsiyadir. B.N.Klimzo ham ekvivalenti mavjud bo‘lmagan terminning ekvivalentini yaratish usuli sifatida transkripsiya va transliteratsiyadan foydalanishni taklif qiladi[9].

M.Y.Ilyushkinaning ta’rifiga binoantranskripsiya - bu tarjima qilingan so‘zning tovush shaklini tarjima tilining harflari bilan berishdir. Asliyat va tarjima tillarining fonetik tizimlaridagi tafovutlar ko’proq transkriptsiya usulidan foydalanishga olib keladi.Masalan: Mackintosh – Makintosh; trenchcoat – trenchkot; leggings – leggins; look – luk, design – dizayn.

Transliteratsiya – fransuzcha “transliteration”-“tarjima qilish” ma’nosini anglatib, yozuvdagi harflarni boshqa tilning harflari bilan beriladigan rasmiylashgan va shu jihatdan qat’iy usuldir. I.A.Leyennsonning mazkur ta’rifiga ko‘ra transliteratsiyada tarjima usulida asl tildagi so‘zning harflari chet tilidagi harflarda beriladi. Masalan:raglan = reglan, batik = batik, bomber = bomber, top=top. Tarjimaning tavsifiy tarjima usuli ham mavjud bo‘lib, uning mohiyati xorijiy so‘zning ma’nosini umumiy tushuntirish va izohlash yordamida yetkazishdir: winklepickers - uzun uchli poyabzal; pigache - uchi uchli va tepaga qayrilgan antik davr poyabzali.Har bir tarjima usulining o‘zafzallik va kamchiliklari mavjud. Termin yaratilishining dastlabki bosqichda, nutqda yangi xorijiy so‘z paydo bo‘lganda, odatda u o‘ziga izoh talab qiladi. Shunday holatlarda transkripsiya va transliteratsiya bilan bir qatorda tavsifiy tarjima ishlatiladi: monks – to‘qali (tasmali) poyabzal (bog’ichsiz); Juliet sleeve – tepa qismi shishgan uzun, tor yeng, (Shekspirning “Romeo va Julietta” fojiasining qahramoni bilan uyg‘unlashgan). Shuningdek, tarjima jarayonida tarjimon tomonidan terminning inglizcha imlosini lotin yozuvida berish holatlari ham kuzatiladi. Masalan, Haute Couture, Pret-a-porter va boshqalar. Kezi kelganda ta’kidlash joizki, kalka va transkripsiya usullari terminning qisqaligini ta’minlab beradi, tavsifiy tarjima esa uning semantikasini ochib beradi.

So‘z o‘zlashtirish boshqa til so‘zlarining milliy tilga kirib kelishi jarayoni bo‘lib, u o‘zbek tili leksikasining o‘zlashma qatlam sathini yuzaga keltiradi. “So‘z o‘zlashtirish til taraqqiyotining qonuniy ko‘rinishidir: xalqlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy va ilmiy aloqalar bir tildan ikkinchi tilga so‘z va terminlarning o‘tib turishini taqozo qiladi”[10]. Jamolxonovning fikriga ko‘ra xalqlar o‘rtasidagi turli aloqalar tufayli tilga yangi-yangi o‘zlashmalar kirib kelaveradi. Kiyim-kechak nomlari ham faqat o‘zimizga tegishli bo‘lmay, shu so‘zlar orasida ham turli tillarga taalluqli bo‘lgan o‘zlashmalar juda ko‘p uchraydi. “Hamma tillarda ham yangi tushunchani ifodalash uchun yo boshqa tildan tayyor termin qabul qilinadi, yo shu tilning o’zida mavjud bo’lgan so’z yoki termindan foydalaniladi, yo bo’lmasa yangi termin yasaladi”[11]. Bildirilgan fikrlardan terminshunoslikda ham hamma tillarda bo‘lgani kabi chetdan so’z o’zlashtirish jarayoni yuz beradi, deya xulosa qilish mumkin.

O‘zbek va ingliz tillaridagi dizayn (kostyum) terminlarining shakllanishi va boyishida fransuz,rus, yunon, lotin, italyan va olmon tillaridan o’zlashgan terminlarning o’rni alohida. Masalan, beret terminining asl kelib chiqish iitalyancha, ammo bizning tilimizga fransuz tili orqali kirib kelgan. Korset – asli ispancha so‘z, u ham nutqqa fransuz tilidan kirib kelgan. Sanoatning rivojlanishi bilan yangi materiallarga nisbatan ehtiyoj neylon terminining keng qo‘llanilishiga sabab bo‘ldi, u moda olamida inqilob qildi va juda tez mashhurlikka erishdi. Shotlandiya milliy erkaklar kiyim nomi - kilt - ingliz tiliga Angliya va Shotlandiya xalqlari o‘rtasidagi madaniy aloqalar tufayli kirib keldi. Batist – asosan Shimoliy Frantsiya va Belgiyada eng yaxshi zig’ir iplaridan tayyorlangan yupqa shaffof mato bo‘lib, ushbu termin fr. “batiste”dan olingan. Taxminiy asl ma’nosi battre - urmoq, urishni anglatadi. Boa - “mo‘ynali bo‘yinbog‘, sharf, ayollar qishki liboslari aksessuarlaridan biri” - fransuzcha boa (lot. boa) - tropik Amerikada yashovchi boa yovvoyi ilon turi nomidan olingan. Plisse – fransuzcha plissee – “ajin/tirish”, lotincha plicare- qat, buklama so‘zlaridan o‘zlashtirilgan.

O‘zlashtirilgan lug‘atning faol o‘zlashmalar turi ham mavjud bo‘lib, til tomonidan shunchalik uzoq vaqt davomida ishlatilganligidan ular milliy so‘zlar sifatida aholi ongiga singib ketgan va keng qabul qilingan, masalan rus tilidan o‘zlashgan terminlar: futbolka, jinsi shim, kurtka, tufli, tapochka, sumka, plash, palto, yubka, pidjak, kostyum, mayka, shorti va hk. Bu terminlar nutqqa shunchalik kirishib ketganligidan ularning tarjimasiga hech qanday ehtiyoj sezilmaydi.

Terminlarni tarjima qilishni kalka usuli ham mavjud. Kalka-bu asl til leksik birligining tarkibiy qismlarini (morfema yoki so‘zlarni) chet tilidagi leksik ekvivalentlari bilan almashtirish orqali tarjima qilish usulidir. Misol uchun, bosh kiyiming. headwear/ headgeartermini o‘zbek adabiy tilida rus tilidagi “головнойубор” bririkmasining kalkasi sifatida paydo bo‘lgan va nutqqa o‘zlashib ketgan[12].

Odatda kiyim va modaning murakkab tarkibli nominatsiyalarni kalkalash yuqori samaraliligi bilan ajralib turadi. Bunda ingliz tilining asl ekvivalentlari yoki ingliz tilida uzoq vaqt oldin o‘zlashtirilgan xorijiy tillardan olingan o‘zlashmalar qo‘llaniladi: French pocket – fransuzcha cho‘ntak; High fashion – Oliy moda; Ready-to-wear – tayyor kiyim; yuqori moda (alta moda); xalat-palto (bathrobe-coat);kundalik obraz (casual look) va boshqalar.Shu o‘rinda,

so‘z yoki ma’no o‘zlashtirilishini chet so‘zlarni qo‘llashdan farqlash lozim. Bir tildagi so‘z yoki ma’noning boshqa tilga o‘zlashtirilishi qonuniy jihatdan o‘sha til lug’atini boyituvchi hodisadir, chunki bir til boshqa tildan o‘zi uchun zarur bo‘lgan leksik-semantik birliklarni o‘zlashtiradi. Kezi kelganda aytish lozimki, termin jamiyatda qabul qilingandan (ijtimoiylashuv) keyin va til tizimida mustahkamlangandan (lu’gatlashuv) keyin uning faqat transkripsiya yoki transliteratsiya qilingan varianti ishlatiladi. Bundan tashqari, ingliz tilidagi fransuz tilidan kirib kelgan terminlar high fashion – haute couture, ready-to-wear -prêt-à-porter, designer – couturier kabi mahalliy inglizcha tushunchalarning sinonimi sifatida ishlatilishi mumkin, ular bilan teng qiymatli umumiy termin-dubletlarni hosil qiladi. Ushbu terminlar tarjimasi ham kalkalash, transkripsiya va asl yozuvda yetkazib berish usullari orqali amalga oshirilishi mumkin.

Ingliz va o’zbek dizayn (kostyum) terminologiyasi tarjimatahlili natijasiga ko‘ra inglizcha o’zlashmalarning katta qismi rus, lotin, italyan, fransuz tillari hissasiga to’g’ri kelishi aniqlandi. Rus tilidan o‘zbekchaga o‘zlashgan dizayn terminlarning asosiy qismini fransuz, lotin va yunon tillaridan tashqari ingliz tilidan o’zlashgan leksik birliklar va terminbirikmalar tashkil qilishi asoslandi. Sir emaski, ingliz tilining asosi lotin tiliga qurilgani bois, bu tildagi so’zlarning aksariyat qismi etimologik jihatdan aynan shu tilga borib taqaladi.

Xulosa. Terminning adekvat tarjimasiga erishishning asosiy omili bu tegishli tarjima usulini tanlash va muayyan nutq terminlarini tarjima qilish talablariga qat’iy rioya qilishdan iborat. Har qanday umumiste’moldagi so‘z termin shakliga o‘tar ekan u albatta o‘ziga ta’rif va izoh talab qiladi. Tilning ichki vositalaridan foydalangan holda dizayn (kostyum) sohasida yangi termini tarjima qilishning turli usullari mavjud bo‘lib, muqobil tarjima, transkripsiya, transliteratsiya,kalka va tavsifiy tarjima samarali deb topildi.

ADABIYOTLAR

1. G‘ofurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur Bo‘stoni, 2012. – B. 10.
2. Акуленко В.В. Существует ли интернациональная лексика? // Вопросы языкознания. – М., 1961. – С. 45.
3. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: “Фан” нашриёти, 2005. – Б. 8.
4. Лейчик, В. М. Шелов С. Д. Лингвистические проблемы терминологии и научно-технический перевод – М.: Высшая школа, 1990. – С. 40-41.
5. Гринёв-Гриневич С.В. О терминологических аспектах научно-технического перевода // Вестник Московского государственного университета. – М., 2011. – С. 74-78.
6. Ачкасов А. В. Декомпозиционный перевод и мотивированность формы термина // Материалы XLII Международной филологической конференции, СПбГУ. – СПб., 2013. – С. 8-20.
7. Faber. P., Ureca J. Specialized Language Translation. A Cognitive Linguistics View of Terminology and Specialized Language. Berlin/Boston: Walter de Gruyter, 2012. – P.74.
8. Лейчик В. М. Шелов С. Д. Лингвистические проблемы терминологии и научно-технический перевод. – М.: Высшая школа, 1990. – С.44-56.
9. Климзо Б.Н. Ремесло технического переводчика. – М.: Валент, 2011. – С.13.
10. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin nashriyoti, 2005. – B.195-196
11. АкабировС. Лексикографическая разработка терминологиив двуязычных словарях. Дис.… канд. филол. наук. – Ташкент, 1969. – С.39.
12. Xudayarova M, Saparova A, Danabayeva G. Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalarida bosh kiyim nomlari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, – Nukus, 2022. – B.273-275.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/10]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:420.314.2=943.75(045)

Shakhnoza NASHIROVA,
Senior Lecturer, PhD. Karshi State University
A Senior Professor at Karshi State Universiry, DSc
E-mail: shakhnozka08@gmail.com

Under the review of B.Bahriddinova

INGLIZCHA-O'ZBEKCHA VA O'ZBEKCHA-INGLIZCHA LUG'ATLARIDA OMONIMLAR, OMOGRAFLAR VA OMOFONLARNING TA'RIFI

Annotatsiya

“IJODKOR SHAXS” TUSHUCHASINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya
Maqolada “ijodkor shaxs” tushunchasininng ilmiy-nazariy asoslari qiyosiy aspektda tahlil qilingan. Ijodkor shaxsni yuzaga keltiruvchi omillar, fenomeniga xos xususiyatlar aniqlangan.
Kalit so‘zlar: Shaxs, ijodkor shaxs, ijod psixologiyasi, ijodiy jarayon, badiiy individuallik, biografiya, psixobiografiya, iste’dod, ijtimoiy muhit.

Kirish. Jahonda globallashuv va axborot almashinuvi kuchaygan bir davrda insonlardagi ijodiy qobiliyat, ijodkorlik sifatlarini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Bugungi ilm-fan va ijtimoiy hayot ijodiy tafakkur, uning estetik mohiyatini, insoniyat ma’naviyatidagi, adabiyot va san’at rivojidagi rolini ilmiy-amaliy jihatdan chuqurroq o‘rganishni taqozo etmoqda. Dunyo adabiyotshunosligida ijod, ijodiy qobiliyat, ijod psixologiyasi masalasi ko‘p yillar davomida tadqiqot ob’yekti sanalib, keng o‘rganib kelinmoqda. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarda nafaqat ijodning tabiati, kechimi, u bilan bog‘liq ruhiy-psixologik holatlar, balki badiiy ijodning jamiyat hayotidagi, inson ruhiy-ma’naviy kamolotidagi roli adabiyotshunoslik va psixologiya fanlarining tutash nuqtalarida teran yoritilgan. Ijodkor shaxs konsepsiyasining ijodiy tafakkur va badiiy idrok nuqtai nazaridan o‘rganilishi poetika masalalari, badiiy ijodning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Adabiyot hayot haqiqatining in’ikosi ekan jamiyatdagi voqeliklar adabiy jarayonga ijodkor shaxsi va uning qarashlari orqali kirib keladi. Ijodkor shaxs jamiyat ma’naviy-intellektual taraqqiyotining buyuk yutug‘idir. Adabiyotshunoslikda “ijodkor shaxs” o‘zida shaxsga doir muhim xususiylarni jamlaydi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da shaxs so‘zi quyidagi ma’nolarda uchraydi: “Shaxs – (arabcha – kimsa, kishi, zot). 1. Jamiyatdagi alohida bir kishi, odam. 2. Shaxsiyat. 3. Fe’l va ot turkumiga oid so‘zning uch shaxsdan birini ko‘rsatuvchi shakli va shu shaklga xos ma’no”[1]. Falsafada “Shaxs” tushunchasida uning atrof-muhitga munosabatini bildiradigan ijtimoiy-ruhiy sifatlarining ichki muayyan yaxlitligi ifodalanadi. Shaxs bo‘lish degani, birinchi navbatda, o‘zining ichki qadriyatlar dunyosini shakllantirishni, tevarak-atrofga, eng avvalo, ijtimoiy hodisalarni anglash, uning mohiyatini tushunish orqali qadriyatiy-tanqidiy munosabatga ega bo‘lishni bildiradi”[2]. Pedagogikada u psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va sifatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvorga va dunyoqarashga ega jamiyatning a’zosini ifodalaydi. Adabiyotshunoslikda esa “ijodkor shaxs” tushunchasi qo‘llanilib hayotda mavjud bo‘lgan har qanday hodisani so‘z orqali ifodalashga ehtiyoj sezadigan va bu orqali o‘zligini ifodalashga urinadigan, kishi nazarda tutiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqoridagilardan kelib chiqib ijodkor shaxs deganda – yuksak qobiliyat, hayotiy tajribaga tayanadigan, teran aql-idrok egasi bo‘lgan, har qanday narsa va hodisaga yangicha nuqtayi nazar bilan yondasha oladigan, jamiyatning g‘oyaviy taraqqiyotiga mas’ul, ijtimoiy-siyosiy muhit evrilishlarini belgilashga qodir qarashlar egasini tushunish mumkin. Ijod – insonning jamiyatga va hayotga munosabati, bahosi, estetik pozitsiyasi odam va olam haqidagi xulosalarining muayyan shakli. U yuksak tafakkurli, tuyg‘uchan kishilar faoliyatidir. Shuning uchun ham ijod kishilari mudom izlanishda, kashfiyotlar yo‘lida betinim harakatda bo‘ladi. “Shunday kishilar borki, – degan edi V.G.Belinskiy, – haqiqatan ham ulardagi zakovatda ijodiy tashabbuskorlik bor. Ular hamma narsaga qandaydir boshqacha, yangicha qaraydilar, hamma narsada ham ularsiz boshqa hech kim ko‘ra olmaydigan tomonlarni payqab oladilar, ulardan keyin esa ana shu tomonlarni hamma ko‘radi va hamma ilgari shuni payqamagan ekanmiz, deb taajjublanadi. Bu toifa odamlar hech bir mug‘ombir va sirli odamlar emas: ularning hammalari odiy tushunadilar, biroq ularning oddiy tushunchalari dastlab hammaga ham juda sirli, ba’zan esa telbalik va bema’nilik bo‘lib tuyuladi”[3]. Bu

toifadagi kishilarda ijodiy tafakkur shakllanibgina qolmay ular jamiyat va tabiat muammolariga original yechimlar beradi, fan-texnika yutuqlaridan o‘z fikrlarini asoslashda ijodiy foydalana oladi, mavjud muammolarga noan’anaviy yondashadi. “Nega?”, “Nima uchun?”, “Nima maqsadda?” kabi savollarga javob izlash jarayonida olamga o‘zgacha nigoh bilan boqadilar. Pirovardida hech kimga ma’lum bo‘lmagan haqiqatlarni kashf etadilar. Shu boisdan ham ijodkor shaxsning asarlari, iste’dodi, ijodiy kamoloti, dunyoqarashi, ideali, madaniy saviyasi, turmush tarzi, shaxsiy fazilatlari hamisha kishilar diqqat markazida bo‘lgan.

Sovet mafkurasi ijodkor shaxs muammosini ilmiy asosda o‘rganishga imkon bermadi, balki millatparvar adiblar shafqatsiz qatag‘on qilindi. Shaxsga falsafiy aspektdan baho bergan Anvar Choriyev ham mustabid sovet tuzumi sharoitida shaxs muammosi biryoqlama o‘rganilganligini tanqid qilgan.

XIX asr o‘rtalarida yashab ijod qilgan A.I. Gersen, В.Г.Belinskiy, P.LLavrov va boshqa rus olimlarining asarlarida tanqidiy fikrlovchi, ijodkor shaxsni shakllantirish masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Bunda adabiy tanqidchi va tanqidiy nazar bilan jamiyat kirdikorlariga o‘z qahramonlari tilidan munosabat bildiradigan muallif “men”iga ham e’tibor qaratildi.

Jumladan, A.I.Gersen XIX asr o‘rtalarida Rossiyada hukm surayotgan qullikning eng asosiy sabablarini siyosiy oppozitsiyaning yo‘qligini, xalqning haddan tashqari sabr-toqatliligini, hukumat tomonidan insonga bo‘lgan hurmatning mutlaqo yo‘qligini, shaxs mustaqilligining yo‘qligi bilan bog‘ladi. Olimning ta’kidlashicha, “Agar shaxs huquqlariga ozodlik uchun kurash g‘oyasi kiritilmasa, Rossiyaning kelajagi Yevropa uchun va uning o‘zi uchun ham buyuk xavf tug‘diradi. Bunday despotizm yana bir asr davom etsa, rus xalqining barcha yaxshi sifatlari yo‘qoladi”. Bu adabiyotga va adabiy jarayondagi o‘ziga xos ijtimoiy voqelik sifatida e’tibor tortdi. A.I.Gersenga ko‘ra, “O‘zboshimchalik va qonun, shaxs va jamiyat, ular o‘rtasidagi kurash o‘zining barcha murakkabliklari bilan tarixning barcha davrlari va butun dramasini tashkil etadi. Shaxssiz yashaydigan jamiyat isyonkor shaxsni bostiradi. Shaxs o‘zini maqsad sifatida qo‘yadi. Jamiyat – o‘zini qo‘yadi... Shaxs jamiyatdan ajrala olmaydi, jamiyat esa shaxsni bostira olmaydi. Biroq ular o‘z da’volarini oliy sferaga – huquq sferasiga ko‘tardilar. Bu huquq butun yangi tarix tomonidan, butun Yevropa taraqqiyoti davomida Angliyada – o‘z-o‘zini huquqiy himoya qilishgacha, 1789–yili (Fransiyada) inson huquqlarigacha, fanda – aql huquqigacha ishlab chiqildi. Biroq ikkinchi tomondan, hokimiyat nafaqat o‘z huquqini, balki o‘z kuchini mavhum davlat tushunchasini shaxsning maqsadi sifatida shaxsga qarshi qo‘ydi. Nazariy jihatdan ozod qilingan shaxs qandaydir mantiqiy, mavhum bo‘shliqda adashib qoldi. Amalda kuchsiz bo‘lgan shaxs davlat va cherkovga suyanadigan hukumat kuchlari bilan yuzma-yuz bo‘ldi”[4]. Ayni bu hodisani XX asr adabiy jarayonidagi jadid davri adabiyotida Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, M.Behbudiy kabi mualliflarga nisbatan amalga oshirilgan siyosiy munosabatlar, qatag‘on orqali milliy adabiyotdagi aksini ko‘rishimiz mukin. Jamiyat bu davr ijodkorlarini o‘rganish va e’tirof etishga nisbatan rad etish pozitsiyasida turgan. P.L.Lavrov ijodkor shaxsni tanqidiy tafakkur bilan uzviy bog‘liq ekanligini ta’kidlar ekan: “Har qanday sivilizatsiyaga doimiy ravishda ikki xavf tahdid soladi. Agar u haddan tashqari oz va haddan tashqari belgilab qo‘yilgan ozchilik bilan cheklansa, u holda yo‘q bo‘lib ketish xavfi tahdid soladi. Agar u sivilizatsiyali ozchilik ichidagi tanqidiy fikrlaydigan sanoqli shaxslarga rivojlanish imkonini bermasa, unga turg‘unlik tahdid soladi”, – deb yozdi.

60-yillarga kelib adabiyotshunoslikda ijod psixologiyasi, nazariyasi va ijodkor shaxsini o‘rganishga bo‘lgan e’tibor kuchaydi. Badiiy ijod tabiati, ijodkor subyekt, ijodiy jarayon haqida monografiya, risola va maqolalar yaratildi. Jumladan, san’atkor shaxsi, ijodiy jarayonni mumkin qadar izchil o‘rganish, ijodiy jarayon bosqichlarini tahlil qilishga urinish L.C.Vigotskiy, A.G.Kovalev, G.M.Lenobl, A.G.Seytlin M.A.Arnaudovlar izlanishlarining asosiy yo‘nalishini belgilasa, M.B.Xrapchenko, Ye.G.Gromov, B.S.Meylaxlar ko‘proq san’atkor subyektning umumnazariy falsafiy-estetik planda, g‘oyaviy kurash fazasida tahlil etishga e’tibor qaratishadi. Bu ishlarda ijodkor shaxs, undagi tabiiy iste’dod, ijodkor va muhit, ijtimoiy hayotning ijodkor dunyoqarashini shakllantirishdagi ro‘li, haqiqiy talantning badiiy individuallik sifatida shakllanishi, san’atkorning badiiy saviyasi, san’at asarining ijtimoiy, sotsial, axloqiy funksiyalariga doir qimmatli fikrlarida o‘z ifodasini topgan.

Ijodkor shaxs muammosi adabiyotshunoslikning kategoriyalaridan biri sifatida ilmiy-nazariy metodlar asosida yondashuvni talab qiladi. Adabiy-tarixiy jarayonda muallif shaxsiga yondashuv yuzasidan G.Vinokur, V.Jirmunskiy V.Shklovskiy, A.Potebnya, Y.Lotman kabi olimlar biografik yondashuvning ilmiy nazariy asoslarini belgilab bergan. O‘zbek adabiyotshunosligida A.Fitrat, A.Sa’diy singari olimlar ijodkor shaxsi, hayoti, ijodini bir butunlikda o‘rganish barobarida biografik yondashuvning dastlabki izlanishlarini olib borishgan. Unga ko‘ra biografik va psixobiografik metod orqali ijodkor insonning ijodiy “men”i va insoniy “men”ini keng qamrovda o‘rganishga imkon berdi. Bunda muallif biosferasini turli rakursda kuzatish, ruhiy holatlarini anglashda eng asosiy vosita ekanligini ta’kidlash lozim. Ijodkorning borliqqa munosabati boshqalardan farqli hisoblanadi. Inson yaralish kunidan boshlab tiriklik falsafasini anglash umidida komillik yo‘lini tutgan oliy xilqat hisoblangan. Anglash iztirobi insonni o‘z “men”i tomon yuzlanishga, shaxs sifatida shakllanib, hayotda mustaqil yo‘lini ayrib olishiga o‘z shaxsiyati va qahramonlari shaxsiyati orqali yo‘l ochadi. Shaxslik maqomi odamzot ibtidosi va intihosida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Alisher Navoiy jamiyat hayotiga va temuriylar saltanati, ilm-fan, san’at va madaniyat, islom ilmi rivojiga hissa qo‘shdi, iste’dodlarning yuzaga chiqishiga hamda yuksalishiga xizmat qildi. Bobur saltanatining o‘zga yurtlarda uzoq vaqt hukm surishi sabablari ham uning ulug‘ shaxsiyatiga borib taqaladi. San’at va adabiyot durdonalari inson badiiy tafakkur hosilasi sanalgani holda u ijodkorlar tomonidan yaratiladi. Ijodkorlar siyratida mavjud ijodiy qiyofa bilan insoniy qiyofaning mushtarakligi adabiyotshunoslikda ilmiy-nazariy masala sifatida turli darajada o‘rganilsa-da, davrlar ijtimoiy voqeliklaridagi farqlar ijodkor shaxsiga boshqa rakursdan qarashimizga zamin hozirlamoqda. Ijodkor o‘ziga davrdosh boshqa soha kishilardan farqli ravishda bosh harflar bilan yozilgan inson va mezondir. Adabiyotshuos G.Muhammadjoova “ijod insonning Go‘zallik, Haqiqat va Ezgulik qadriyatlarini bir butunlikda ifodalashga bo‘lgan harakati, intilishidir”[5] deydi. Uning fikricha “Ijodkorning tarjimai holi iste’dod va mehnatdan iborat. Uning mahorati iste’dod va mehnatning uyg‘unligidan vujudga keladi. Bu uyg‘unlikda iste’dod va mehnatning ulushlari borasidagi munozara esa doimiy qizg‘in bahslardan biri bo‘lib kelgan”[5]. G.Muhammadjonova bu boradagi tadqiqotlarni mualliflari nuqtai nazaridan ikki toifaga ajratadi

1. Nazariyotchi olimlar, adabiy tanqidchilar tomonidan amalga

oshirilgan tadqiqotlar.

2. Badiiy ijod bo‘yicha tajriba va malakaga ega ijodkor tomonidan

yaratilgan adabiyotlar.

Tahlil va natijalar. Chindan ham O‘zbek adabiyotshunosligida ijodkor shaxs qizg‘in o‘rganilayotgan dolzarb masalalardan biriga aylandi. Xususan, I.Sultonov, M.Qo‘shjonov, H.Yoqubov, U.Normatov, O.Sharafiddinov, A.G‘afurov, H.Umurov, O‘.Nosirov, kabi nazaryotchi olimlarning asarlarida ijod jarayonining tabiati, ijod

psixologiyasi, ijod sirlari muayyan adabiy asarlar, muayyan yozuvchilar ijodi asosida o‘rganilgan poetik mahorat, asarning yaratilishi tarixi yuzasidan tegishli xulosalar berilgan. Ijodkor shaxs – adabiyotshunos O‘ral Nosirovning fiklariga ko‘ra: “davrning ilg‘or kishisi el yurtning g‘amiga sherik, unga kamarbasta, zamonasi, qolaversa, insoniyat progressi, madaniy boyligi uchun kurashuvchi, ijtimoiy taraqqiyot, madaniy rivojiga ta’sir ko‘rsatuvchi faol harakatdagi inson”[6]. U – hayot bilimdoni, ma’naviy kamoloti, boy ijodiy fantaziyali, qalb kechinmalari va fikr-qarashlari diqqatini tortgan predmetga jamlanib, unga butunicha singib, tamomila unga kirishib ketgan, unga to‘lig‘icha mos keluvchi shakl topmaguncha so‘ngi, zarb bermaguncha, uni mukammallikda yetgazmaguncha, tinib-tinchimaydigan inson.

Badiiy ijod bo‘yicha tajriba va malakaga ega ijodkorlar: A.Qodiriyning “Ijod mashaqqati”, Said Ahmadning “Nazm chorrahasida”, Shukrulloning “Javohirlar sandig‘i”, O‘tkir Hoshimovning “Notanish orol”, Nosir fozilovning “Ustozlar davrasida”, Erkin Vohidovning “Shoiru she’ru shuur”, Abdulla Oripovning “Ehtiyoj farzandi”, Nazar Eshonqulning “Ijod falsafasi”,“Mendan “men”gacha”, Hurshid Do‘stmuhammadning “Ijod – ko‘ngil munavvarligi” kabi asarlarda ijodkor shaxsning ruhiy-ma’naviy olami, u yaratgan badiiy haqiqat va real haqiqat o‘rtasidagi munosabatlar, real hayot bilan poetik reallikning farqi; yozuvchining «daxlsiz dunyosi», ilhom, badiiy ijod sirlari masalalari o‘z tajribalari va boshqa taniqli ijodkorlar hayoti va ijodidan keltirilgan misollar asosida sharhlangan.

Jumladan, Nazar Eshonqul “Ijod falsafasi”,“Mendan “men”gacha”, “Kitob bandasi” kabi asarlarida ham bu masalaga munosabat bildirib istalgan asardan ijodkorning o‘zini, qiyofasini, boshqalardan yashirib yuradigan botinini ko‘rish mumkin degan xulosaga keladi. Adabiy asar faqat boshqalarni emas, uni dunyoga keltirgan shaxsning o‘zinni ham fosh qiluvchi adabiy hujjat ekanligi, har qanday asarda ijodkorning o‘zi, “men”i bo‘y ko‘rsatib turishini ta’kidlaydi [7].

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi barcha manbalarning o‘rganilishi natijasida ijodkor shaxs shakllanishining eng muhim omili uning biografiyasi ekanligi ayon bo‘ladi. Ijodkor biografiyasining o‘rganish obyekti esa davr va muhit. Har bir davrda san’atkor shaxsini xarakterlash o‘sha davr fani qo‘lga kiritgan yutuqlarga tayanishi ham haqiqat. Ijodkor shaxs haqida qanchalik ko‘p, rang-barang fikr qarashlar bayon qilingan bo‘lmasin, ular ijodkor pisixik faoliyatini barcha qirralari, barcha tebranishlari bilan asosli ravishda ifodalab bera olgancha yo‘q. Aksincha, san’atkor shaxsi, ijod jarayonidagi psixik faoliyati, ijodiy individuallik, uning tarkibi bilan bog‘liq masalalar qizg‘in bahs, munozaralar obyekti bo‘lib qoldi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. . – Toshkent, G‘afur G‘ulom nashriyoti, 6-tom,-B. 557
2. Azizov Sh. Shaxs va jamiyat. – Toshkent, 2016. B. 44.
3. Belinskiy V.G. Tanlangan asarlar. – Toshkent: O‘zbekiston. 1955. – B.511
4. Лавров П. Л. Философия и сосиология. Избранние произведения в двух томах. Т.2. – М.,Мисл, 1965. – Б. 486.
5. Muhammadjonova G. Mustaqillik davri o‘zbek nasrida ijodkor inson konsepsiyasi. Fil.fan. fals. dokt. (PhD). diss. – Farg‘ona, 2022. – 250 б.
6. Nosirov O‘. Ijodkor shaxs, badiiy uslub, avtor obrazi. – Toshkent., 1981. – B.198
7. Nazar Eshonqul.Kitob bandasi. – Toshkent: “Akademnashr”, 2022. – B.322

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/10]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UO‘K: 81

Mahliyo TOLIPOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tadqiqotchisi
E-mail: salomstudent@gmail.com

F.f.d I.Kaxarova taqrizi asosida

PROBLEMS IN TRANSLATION OF EXCLAMATIONS IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation

This article delves into the complexities and challenges encountered in translating interjections between the English and Uzbek languages. Interjections, which express emotions and reactions, differ significantly across cultures, complicating the preservation of their original meaning and tone during translation. The analysis emphasizes how linguistic and cultural factors play a pivotal role in translating these emotionally charged words. Furthermore, the article explores various teaching methodologies aimed at improving the comprehension and use of interjections in language learning. Through this study, several effective strategies are suggested to address the identified challenges, such as contextual learning and interactive teaching techniques. The findings underscore the importance of integrating cultural context and emotion into the translation and teaching of interjections, ultimately leading to enhanced intercultural communication and language proficiency.

Key words: Interjections, translation challenges, cross-cultural communication, teaching strategies, linguistic differences.

ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА ВОСКЛИЦАТЕЛЬНЫХ СЛОВ НА АНГЛИЙСКИЙ И УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫКИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются сложности и проблемы, возникающие при переводе восклицаний на английский и узбекский языки. Восклицания, выражающие эмоции и реакции, значительно различаются в разных культурах, что усложняет сохранение их первоначального значения и интонации при переводе. Анализ акцентирует внимание на том, как языковые и культурные факторы играют ключевую роль в переводе этих эмоционально заряженных слов. Кроме того, статья исследует различные методики преподавания, направленные на улучшение понимания и использования восклицаний в изучении языка. В ходе исследования предлагаются несколько эффективных стратегий для решения выявленных проблем, таких как контекстуальное обучение и интерактивные методы преподавания. Полученные результаты подчеркивают важность интеграции культурного контекста и эмоций в перевод и преподавание восклицаний, что в конечном итоге способствует улучшению межкультурной коммуникации и языковой компетенции.

Ключевые слова: Междометия, проблемы перевода, межкультурная коммуникация, методы преподавания, языковые различия.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA UNDOV SO‘ZLARNI TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida undov so‘zlarni tarjima qilishda duch kelinadigan qiyinchiliklar ko‘rib chiqiladi. Undov so‘zlar, hissiy va reaksiyalarni ifodalovchi so‘zlar, madaniyatlar o‘rtasida sezilarli farq qiladi, bu esa ularning asl ma’nosi va tonusini saqlashni qiyinlashtiradi. Tahlil, til va madaniyat faktorlari ushbu hissiy jihatdan zaryadlangan so‘zlarni tarjima qilishda muhim rol o‘ynayotganini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, maqolada undov so‘zlarni o‘rganishda tushunishni va qo‘llanishini yaxshilashga qaratilgan turli o‘qitish metodikalarini o‘rganiladi. Ushbu tadqiqot davomida aniqlangan muammolarni hal qilish uchun kontekstual ta'lim va interaktiv o‘qitish texnikalari kabi bir nechta samarali strategiyalar taklif etiladi. Topilgan natijalar madaniy kontekst va hissiyotlarni undov so‘zlarni tarjima qilish va o‘qitishda integratsiya qilish muhimligini ko‘rsatadi, bu esa oxir-oqibat interkultural kommunikatsiyani va til ko‘nikmalarini yaxshilaydi.

Kalit so‘zlar: Undov so‘zlar, tarjima qilish muammolari, madaniyatlararo kommunikatsiya, o‘qitish strategiyalari, lingvistik farqlar.

Kirish. Undov so‘zlar tilning hissiy jihatini ifoda etuvchi eng muhim elementlardan biri hisoblanadi. Ushbu so‘zlar orqali insonlar o‘z his-tuyg‘ularini tezkor va kuchli ifodalaydilar. Ingliz va o‘zbek tillaridagi undov so‘zlarning tarjima qilishda muammolar ko‘p uchraydi. Ushbu maqolaning maqsadi undov so‘zlarni tarjima qilishdagi asosiy qiyinchiliklarni o‘rganish va ularni ta'limda qanday samarali tarzda o‘rgatish mumkinligini tahlil qilishdir.

Undov So‘zlarning Turlari.

Undov so‘zlar turli hissiy holatlarni ifoda etish uchun ishlatiladi:

Hayrat:
Ingliz: “Wow!”
O‘zbek: “Voy!”

G‘azab:
Ingliz: “Ugh!”
O‘zbek: “Ayy!”
Baxt:
Ingliz: “Yay!”
O‘zbek: “urra!”

Madaniy kontekst undov so‘zlarni tarjima qilishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, ingliz tilidagi “Awesome!” so‘zini o‘zbek tiliga “Zo‘r!” deb tarjima qilish mumkin, lekin uning qo‘llanilishi madaniy jihatdan farq qiladi. Madaniy nuanslarni tahlil qilish noto‘g‘ri tushunishni oldini oladi, deb aytadi Toshpolatova [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kasimov (2020) undov so‘zlarning tarjima qilishda kontekst muhimligini

ta'kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, har bir undov so‘z o‘ziga xos madaniy va kontekstual ma'noga ega bo‘lib, ularning tarjima qilishida bu jihatlar inobatga olinishi kerak. Masalan, bir undov so‘zi bir kontekstda kuchli hissiyotlarni ifodalashi mumkin, boshqasida esa kuchsiz yoki har qanday hissiyotni ifodalamaydigan kontekstda ishlatilishi mumkin. Bu holat, tarjimonlarga undov so‘zlarning to‘g‘ri tarjimasi uchun kontekstni yaxshi tushunish zarurligini ko‘rsatadi. Kasimovning tahlili undov so‘zlarning tarjimasida madaniyat va kontekstning o‘rni haqida yanada chuqurroq fikr yuritish imkonini beradi.

Toshpolatova (2021) esa undov so‘zlarni o‘rgatishda interaktiv o‘qitish usullarining samaradorligini ko‘rsatadi. U interaktiv metodlarning talabalarning o‘rganish jarayoniga qanday ijobiy ta'sir ko‘rsatishini, shuningdek, undov so‘zlarni o‘rganishdagi qiyinchiliklarni engillashtirishga yordam berishini ta'kidlaydi. Toshpolatovaning tadqiqoti, interaktiv metodlar orqali talabalar o‘z hissiyotlarini ifodalashda va kommunikativ qobiliyatlarini oshirishda qanday yordam berishini ochib beradi.

Interaktiv o‘qitish usullarining undov so‘zlarni o‘rgatishda ahamiyati katta ekanini bir necha tadqiqotlar tasdiqlaydi. Holmirzaeva (2019) ushbu yondashuvlarning samaradorligini isbotladi va undov so‘zlarni interaktiv tarzda o‘rgatish til ko‘nikmalarini oshirishi mumkinligini ko‘rsatdi. Bunga qo‘shimcha ravishda, Ahmadov (2020) madaniyat va til o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirishning muhimligini ta’kidladi, ayniqsa undov so‘zlar kabi hissiy unsurlarni o‘rgatishda [4].

Umuman olganda, undov so‘zlarning tarjimasi va o‘qitilishi mavzusida olib borilgan tadqiqotlar, kontekst va madaniyatning ahamiyatini, shuningdek, o‘quv jarayonida interaktiv yondashuvlarning foydasini ko‘rsatadi. Bularning barchasi undov so‘zlarni o‘qitish metodologiyasi uchun yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini ta'minlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida undov so‘zlarni tarjima qilishdagi qiyinchiliklarni o‘rganish uchun turli tadqiqot metodlari qo‘llanildi. Asosiy metod sifatida lingvistik tahlil usuli tanlandi, bu metod undov so‘zlarning grammatik va leksik xususiyatlarini o‘rganishga imkon berdi.

Shuningdek, o‘quvchilarning his-tuyg‘ularini aniqlash maqsadida rolli o‘yinlar va hissiy ssenariylar orqali kontekstual vaziyatlar yaratildi. Bu jarayon undov so‘zlarning o‘quvchilar tomonidan qanday qabul qilinishini va ularning his-tuyg‘ulari bilan qanday bog‘liqligini tushunishga yordam berdi.

Tadqiqot davomida, undov so‘zlarning tarjima qilishdagi muammolarini aniqlash va ularni o‘rganishda qiyinchiliklarni yengishda samarali strategiyalar ishlab chiqildi. Ushbu metodologiya, undov so‘zlarning tarjimasi va o‘rganishidagi murakkabliklarni yanada chuqurroq tahlil qilish imkonini berdi, bu esa ta’lim jarayonini takomillashtirishga yordam beradi.

Tahlil va natijalar. Undov so‘zlarni tarjima qilishda asosiy muammolardan biri – ularning madaniy farqlar bilan bog‘liq bo‘lishidir. Masalan, ingliz tilidagi “Oh no!” va o‘zbek tilidagi “Voy!” undov so‘zlari turli vaziyatlarda ishlatiladi va har biri o‘z madaniy jihatlari bilan ajralib turadi. Xolmirzaeva (2019) undov so‘zlarni noto‘g‘ri tarjima qilishning kommunikatsiyaga salbiy ta'sir qilishi mumkinligini aytadi.

Shuningdek, undov so‘zlarni o‘qitishda duch kelinadigan qiyinchiliklar:

Madaniy Murojaatlar: Ko‘plab undov so‘zlar madaniy ildizlarga ega bo‘lib, ularni to‘g‘ri o‘rgatish uchun batafsil tushuntirish talab etiladi [1].

Hissiy Nuanslar: Turli madaniyatlar his-tuyg‘ularni boshqacha ifodalashi mumkin, bu esa undov so‘zlarni o‘rganishni murakkablashtiradi [3].

Hamkorlik asosida ishlaydigan tadqiqotchilardan biri Boymurodov (2020) o‘z ishida undov so‘zlarning ko‘pincha tilning emotiv xususiyatlarini ifodalashini aytgan. U, ayniqsa, turli madaniyatlarda his-tuyg‘ularni farqli tarzda ifodalash sababli, bu soha tarjima qilishda katta e’tibor talab qiladi deb hisoblaydi [5].

To‘raeva (2018) ham ushbu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi va undov so‘zlarni o‘rganishda madaniyatning emotiv jihatlari alohida ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydi [6].

Xulosa va takliflar. Undov so‘zlarni tarjima qilishda madaniyatlararo farqlar inobatga olinishi zarur. O‘quvchilar bu so‘zlarni o‘rganish orqali tilni yanada chuqurroq tushunishlari mumkin. O‘qituvchilarga tavsiyalar shundan iboratki, undov so‘zlarni o‘rgatishda interaktiv usullarni, xususan, film, adabiyot va rol o‘ynash mashg‘ulotlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Rol O‘ynash:

O‘quvchilarni rol o‘ynash mashg‘ulotlariga jalb qilish, undov so‘zlarni kontekstdan foydalanib amaliyotda qo‘llashga yordam beradi [2].

Multimedia Resurslar:

Filmlar, musiqa va adabiyotlardan foydalanish, undov so‘zlarni o‘rganishni yanada qiziqarli va samarali qiladi. Ushbu resurslar o‘quvchilarga undov so‘zlarning kontekstual ahamiyatini tushunishga yordam beradi va ularni muayyan vaziyatlarda qanday ishlatilishini ko‘rsatadi. O‘qituvchilar turli xil materiallarni qo‘llab, undov so‘zlar orqali hissiy holatlarni taqdim etishlari mumkin. Bu orqali o‘quvchilar undov so‘zlarni faqat qiyin yoki hayratlanarli vaziyatlarda emas, balki kundalik hayotlarida ham oson o‘rganadilar

Tadqiqotdan olingan natijalar asosida bir qator takliflar kiritiladi:

1. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalar: Undov so‘zlarni o‘rgatish bo‘yicha batafsil metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilishi zarur. Bu qo‘llanmalar o‘qituvchilarga undov so‘zlarni qanday qilib samarali tarzda o‘rgatishni ko‘rsatishi kerak.

2. Kross-madaniyat dasturlari: O‘zbek va ingliz tillarida undov so‘zlarni taqdim etadigan kross-madaniyat dasturlarini joriy etish, o‘quvchilarga turli tillardagi hissiy ifodalarni o‘rganish imkonini beradi.

3. O‘quv materiallarini yangilash: O‘quv materiallari va darsliklar yangilanib, undov so‘zlar va ularning madaniy kontekstlari ko‘proq aks ettirilishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Kasimov, A. (2020). Tarjima va madaniyat. Tashkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti.
2. Toshpolatova, F. (2021). Interaktiv ta’lim: nazariya va amaliyot. Tashkent: O‘zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti.
3. Xolmirzaeva, Z. (2019). O‘qitishda hissiy jihatlar. Tashkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi.
4. Ahmadov, R. (2020). Lingvistik va madaniy omillar tarjima amaliyotida. Tashkent: Sharq Nashriyot.
5. Boymurodov, A. (2020). Emotsional tarjima asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti.
6. To‘raeva, M. (2018). Tilda madaniy farqlarni o‘rganish. Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/10]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 801.82:81.255 (821.51:811)

Zafar UMURQULOV,
Termiz davlat universiteti dotsenti PhD,
E:mail: umurkuloff@gmail.com

Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi katta ilmiy xodimi, PhD S. Saidov taqrizi asosida

O‘XSHATISHLAR QIYOSIY IFODANING ALOHIDA TURI SIFATIDA

Annotatsiya

O‘xshatishlar olamni bilishning eng keng tarqalgan usuli bo‘lib, bilimlarning shakllanishi va rivojlanishida muhim vositadir. Maqolada o‘xshatishlar qiyosiy ifoda vositasining alohida turi sifatidagi mohiy4ati yoritilgan, shuningdek, tilshunoslikda o‘xshatishlarning o‘rganilish masalalariga ham e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Qiyoslash, solishtirish, o‘xshatish, taqqoslash, zidlanish, borliq, bilish.

СРАВНЕНИЯ КАК ОТДЕЛЬНЫЙ ВИД СРАВНИТЕЛЬНОГО ВЫРАЖЕНИЯ

Аннотация

Сравнения – самый распространенный способ познания мира и важный инструмент в формировании и развитии знаний. В статье освещается сущность сравнений как отдельного вида средств сравнительного выражения, а также уделяется внимание вопросам изучения сравнений в языкознании.

Ключевые слова: Сравнение, сравнение, сравнение, противопоставление, бытие, познание.

COMPARISONS AS A SPECIAL TYPE OF COMPARATIVE EXPRESSION

Annotation

Comparisons are the most common way of knowing the world and are an important tool in the formation and development of knowledge. The article highlights the essence of comparisons as a separate type of comparative expression, and also pays attention to the issues of studying comparisons in linguistics.

Key words: Comparison, comparison, analogy, comparison, contradiction, existence, knowledge.

Kirish. O‘xshatish qiyoslashning o‘ziga xos turi sifatida muhim xususiyatga ega. O‘xshatishga badiiy nutqni shakllantiruvchi badiiy unsur sifatida yondashish antik davrdan buyon davom etib kelayotgani ma’lum. Tadqiqotchi A.V.Kotova o‘xshatishning stilistik vosita sifatida badiiy xususiyatlarini eramizdan oldingi I asr va eramizning I asrlarida yaratilgan Vergilitning “Eneida” va Valeriy Flakkoning “Argonavtika” asarlari misolida tadqiq etar ekan, “Eneida” asaridagi o‘xshatishlarni o‘rganish yuz yillar oldin boshlangani XX-XXI asrlarda esa ushbu asardagi o‘xshatishlar ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilganligi, shuningdek, “Argonavtika” asari o‘xshatishlari o‘rganilishiga bag‘ishlangan katta hajmdagi monografiya mavjud bo‘lganidek, bir qator tadqiqotchilar o‘z kitoblarida bu asardagi o‘xshatishlar haqida fikr-mulohazalarini bildirib o‘tganliklari haqida ma’lumot keltirgan[6, b.4]. Darhaqiqt, o‘xshatish antik olimlar diqqatini jalb etgan badiiy tasvir vositasining qadimiy turlaridan biri sifatida o‘rganilib kelingan ifoda usullaridan biri, olam manzarasini to‘liq namoyon etishning murakkab usullaridandir. Tadqiqotchi Arestotelning o‘xshatish haqidagi qarashlari haqida fikr yuritar ekan, Aristotel o‘xshatishni metafora bilan bog‘liqlikda talqin qilganligiga diqqatni jalb etadi [3].

Aristotelning badiiy nutqning tahlili masalasidagi qarashlarida o‘xshatishga alohida e’tibor berilgan. Faylasuf o‘xshatishga badiiy figura sifatida qaragan va bu tasviriy vosita asosida vujudga keladigan ifodadorlik va badiiylikni nazariy jihatdan asoslab bergan. Aristotel o‘xshatish metafora bilan bog‘liqlikda bo‘lgan hodisa sifatida yondashar ekan, o‘xshatishni eksplitsiyalashgan metafora deb talqin qiladi. Olim taqlid, o‘xshatishni insonga bolalikdan xos bo‘lgan xususiyat ekanligiga e’tiborni jalb etadi. Insonni boshqa jonli mavjudotdan o‘xshatish qobiliyatiga ega ekanligi bilan farqlanishini, dastlabki bilimlarni inson o‘xshatishdan olishini ta’kidlab o‘tadi [3].

Tadqiqotchi A.V. Kotovaga ko‘ra antik yozuvchilar o‘xshatishdan maqsadga mos holda foydalanganlar. Ritorik amaliyotga o‘xshatishlar fikrni tasdiqlash va fikrga bezak berish uchun qo‘llanilgan bo‘lib, ifodalanishi jihatidan o‘xshatishlar qarama-qarshilik bildiruvchi, inkor bildiruvchi, qisqa va mukammal o‘xshatish kabi tasvirlangan. Kotova bugunki kun nuqtai nazaridan o‘xshatishga yondashib, uning statusiga har xilliklar mavjudligiga e’tibor qaratadi. Bir qator tadqiqotchilar o‘xshatishga tropning turi sifatida qarasa, boshqalar nutqiy figura deb qaraydi, o‘xshatishning metafora bilan bog‘liq holda mavjudligini e’tirof etadi [14].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘xshatishning struktur-semantik jihatdan B.V.Tomashevskiy, N.A.Shirokov, V.M. Ogolsev, A.I.Federov, L.A.Lebedov, N.A.Lutsenko, L.M. Plotnikov, V.I.Koduxov kabi olimlar tomonidan, nominativ, morfologik, sintaktik va so‘z yasalishi jihatidan N.D.Artyunova, V.O.Nazaryan, A.Vejbitskiy, A.A.Potebnya, F.F.Fortunatov, N.M.Vasilyeva, YE.M.Galkina-Fedoruk, M.I.Cheremisina kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa, badiiy ta’sirchanlikni ta’minlovchi vosita sifatida, umumiy xoslanganligi A.N.Veselovskiy, V.V.Vinogradov, A.I.Yevimov, L.I.Timofeyev, A.T.Rubayev, S.N.Nevelova, V.P.Grigoryev kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Badiiy diskursda o‘xshatishlarning vazifalari A.Blok, B.Pasternak, S.Yesenin, o‘xshatishning leksik dubletlari YE.A.Nekrasovalar tomonidan tahlil qilingan bo‘lsa, V.A.Maslova o‘xshatishning etnopsixologik xususiyatlari bo‘yicha tadqiqot olib borgan. O‘zbek tilshunosligida o‘xshatish lingvistik birlik sifatida kam o‘rganilgan. Ushbu mavzu tadqiqiga bag‘ishlangan dissertatsiya xarakteridagi bir nechagina tadqiqotni sanab o‘tish mumkin. Holbuki,

o‘xshatish struktur-semantik jihatdan, nutqiy vazifasi jihatidan, shuningdek, fikriy ifodaning rangbarangligi, o‘xshatish asosining turli-tumanligi va boshqa ko‘pgina jihatlari bilan lingvistik birliklardan farqlanganidek, o‘xshatishda milliy xalq ruhining ifodalanishi, lingvomadaniy omillar mavjudligi, o‘xshatish orqali turli his-tuyg‘ular vujudga kelishi bu vositaning imkoniyatlari kengligi kabi ko‘pgina jihatlari alohida tadqiqotlar olib borish kelakligini taqozo etadi. Ma’lumki, o‘xshatishlar butun gap mazmuni orqali namoyon bo‘ladi. Shu asosda manbalarda o‘xshatishga sintaktik hodisa deb yondashuvlar mavjud [1]. O‘xshatishli gaplar sintaktik strukturasiga ko‘ra o‘xshatish subyekti va o‘xshatish etalonining gapning qaysi o‘rnida joylashishiga ko‘ra erkin bo‘lib, o‘xshatish subyekti va o‘xshatish etaloni turli sintaktik pozitsiyada keladi, bu holatda ham o‘xshatishlarning o‘ziga xoslik kasb etishi maxsus tadqiqotlar olib borishni lozimligini ko‘rsatadi. O‘xshatishlarning o‘ziga xos jihatlari o‘zbek tilshunosligida birinchilardan bo‘lib M.Mukarramov tomonidan monografik asosda o‘rganilgan. Olim o‘zbek tilida o‘xshatish haqida quyidagilarni e’tibor qaratgan holda ushbu til vositasining til tizimidagi o‘rnini yoritishga harakat qilgan. Tadqiqotda o‘xshatish haqida umumiy ma’lumot berilib, o‘xshatishning uch asosdan – o‘xshatiluvchi asos, o‘xshovchi obraz, o‘xshatma belgidan tashkil topgani, bu asoslar leksik birliklar bilan ifodalanishini ta’kidlab o‘tilgan. Olimning ushbu tasnifida o‘xshatish vositasi o‘z aksini topmagan, o‘xshatish komponentlaridagi o‘xshatma belgining ifodalanishiga ko‘ra to‘liq va to‘liqsiz o‘xshatishlar ajratilgan, o‘xshovchi obrazning o‘rniga ko‘ra old o‘rinli va so‘ng o‘rinli o‘xshatishlar ajratilgan, o‘xshatishning metafora, sifatlash, mubolag‘a, kichraytirish kabi vositalar bilan aloqadorligi va farqli jihatlari izohlangan [9]

O‘xshatishlar tadqiqiga bag‘ishlangan navbatdagi ish o‘xshatishli konstruksiyalar stilistik-semantik asosda D.Xudoyberganovaning nomzodlik dissertatsiyasidir. O‘xshatishlar emotsionallikni ifodalovchi vosita sifatida A.Abdullayev [1] tomonidan tahlil qilingan bo‘lsa, xalq qo‘shiqlaridagi o‘xshatishlar va ularning lingvopoetik xususiyatlari M.Yakubbekova [15] tomonidan tahlil qilingan. O‘xshatishning badiiy nutqdagi xususiyatlari, vazifalari haqida B.Umurqulov o‘z fikr-mulohazalarini bildirib o‘tgan [7]. Prof. N.Mahmudov til birligi sifatida o‘xshatishning muhim tomonlarini izohlaydi. Olim analogiyani xulosa chiqarishning muhim shakli ekanligiga diqqatni jalb etar ekan, o‘xshatishni nutqiy omil sifatida qay darajada ahamiyatli ekanligini ko‘rsatib bergan. Zero, o‘xshatish orqali bir belgining ikki predmetga borligini aniqlash, analogiya bo‘lib, analogiya o‘xshatish asosida xulosa chiqarishning shakli ekan, o‘xshatish dunyoni bilishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan ifoda usulidir. Olim o‘xshatishning nuqda katta badiiy uslubiy va lingvopoetik imkoniyatlarga ega bo‘lgan konstruksiyaligini bu vositaning dunyo filologiya ilmida qadimgi davrlardan boshlab nutqiy ta’sirchanlikni ta’minlovchi vosita sifatida o‘rganilib kelinayotganligi bilan izohlaydi. Qiyoslash maqsadiga ko‘ra o‘xshatishni sof qiyosiy konstruksiyalar va o‘xshatish konstruksiyalarga ajratgan holda farqli belgilarga ega ekanligini ko‘rsatib o‘tadi [5]. Til birliklarini antropotsentrik nuqtai nazardan ilk bor tadqiq etgan tilshunos D.Xudoyberganova o‘zbek tilidagi matnlarning psixolingvistik xususiyatlari haqida fikr yuritar ekan, inson ruhiy holatini ifodalashda o‘xshatishlarning muhim o‘rni borligiga e’tibor qaratgan. Olimaning izohlashicha, turg‘un o‘xshatishlar ta’sirchanligi, obrazliligi va lingvopoetik jihatlari bilan ajralib turadi. Shaxs holatini obrazli tarzda ifodalovchi mazkur o‘xshatishlarda o‘xshatish etaloni muhim bo‘lib, u til sohibining lisonida barqaror birlik sifatida mavjud bo‘lishini ta’kidlaydi [15]. O‘zbek tilshunosligida o‘xshatishlarni lingvomadaniy jihatdan F.Usmonov [9] tomonidan tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘xshatish – inson tafakkurining asoslaridan biri, olam va odamni anglashning samarali usuli, obraz yaratishning yorqin va mahsuldor shakli, badiiy ta’sirchanlikni vujudga keltiruvchi vositalar bo‘lib, mahorat bilan qo‘llanilishi tufayli tilni yangi so‘zlar, konstruksiyalar bilan boyitadi [4]. O‘xshatishda ikki obyektning muayyan belgilarini qiyoslash orqali ularning o‘xshash belgilari haqida umumlashma xulosa chiqariladi. O‘xshatishning nutq jarayonidagi ko‘p funksiyaliligi bu ifoda usulining turli fanlar tomonidan turli aspektlarda o‘rganilishiga olib keladi. O‘xshatish individual xarakterga ega bo‘lgan ifoda usuli, inson kognitiv olamining mahsuli bo‘lib, umumiy belgilarni ajratish orqali umumiy jihatlarni anglanishi asosida vujudga keladi. O‘xshatish ifodasining muhim jihatlaridan biri sifatida shuni qayd etish lozimki, bu ifoda orqali faqat narsa, predmetlardagi o‘xshash belgilar emas, balki belgi jihatidan mos (o‘xshash) bo‘lmagan inson ongidagi muayyan narsani boshqa bir narsada his etish, o‘xshash deb tasavvur qilish orqali ham ifodalanishidir.

Tahlil va natijalar. O‘xshatishli konstruksiyalar ham lingvistik birlik sifatida nutqda nominativlik vazifa bajaruvchi vosita hisoblanadi. Biroq tildagi boshqa nominativ birliklardan ritsipiyentga emotsional-ekspressiv jihatdan ta’sir etishi bilan farqlanadi. O‘xshatishlarda emotsional-ekspressivlik tabiati o‘xshatish ifodalanishining originalligi bilan bog‘liq. O‘xshatishlarda bu xususiyat masalalari bo‘yicha tadqiqot olib borgan tilshunos A.Abdullayev o‘xshatishlarni hosil bo‘lishiga ko‘ra ochiq o‘xshatish va yashirin o‘xshatish kabi turlarga ajratadi. Tadqiqotchi ochiq o‘xshatishlarni lingvistik vositalar yordamida hosil bo‘lishi, yashirin o‘xshatish esa lingvistik vositalar ishtirokisiz hosil qilinishini ta’kidlaydi [1].

Ko‘rinadiki, o‘xshatish hosil qilinishining turli usullari mavjud bo‘lib, o‘xshatishning nutqiy vazifasi uning hosil bo‘lish asoslarining oddiy yoki murakkabligi bilan bog‘liq. Oddiy o‘xshatishlar garchand barcha uchun ma’lum belgilar asosida o‘xshatilsa-da, ifoda darajasi jihatidan kommunikativ birliklardan farqlanadi va nutqda emotsional-ekspressivlik bag‘ishlaydi. Zotan, bu kabi ifodalarda ham predmetga xos mavjud belgining shu predmet bilan turdosh yoki turdosh bo‘lmagan ikkinchi predmetga mavjudligi, belgining ko‘lam jihatidan mosligini anglanishi asosida, ularning qiyoslanishida ekspressivlik namoyon bo‘ladi. Chunki bunday holatda o‘xshayotgan va o‘xshatilayotgan har ikki narsaga ham baho beriladi, mantiqiy xulosalar chiqariladi. O‘xshatishdan ko‘zda tutiladigan maqsad ham turlicha. O‘xshatish nafaqat predmet, narsa-hodisaning o‘xshashligini ifodalash uchun qo‘llaniluvchi ifoda, balki so‘zlovchi tomonidan ritsipiyentga muayyan predmetning muhim tomonlarini ko‘rsatish orqali subyektiv munosabatni shakllantirishdan ham iboratdir. O‘xshatish hosil qilinishining ana shu ikkinchi jihati ritsipiyentning tuyg‘ulariga ta’sir etuvchi jihat bo‘lib, o‘xshatishning nutqiy vazifasining kengayishini ta’minlaydi. O‘xshatishda obyektning real yoki noreal bo‘lishi ushbu ifoda vositasining xarakterli xususiyatlaridan biridir. Lingvistikaga oid ko‘plab tadqiqotlarda o‘xshatishga ma’no ifodalashning muhim turi sifatida qaralgan. Darhaqiqat, o‘xshatishli konstruksiyalar tuzilishi, tarkibi, har bir o‘xshatish shakllarida mantiqiy mushohadaning mavjudligi jihatidan bir-biridan farq qiladi va o‘zida yangicha ifoda mavjudligini namoyon etadi. O‘xshatish va uning fuknsional xususiyatlarini namoyon bo‘lishida o‘xshatish obyektining real yoki norealligining muhim o‘rni bor. Obyekt real belgilar asosida qiyoslanayotganda ham mavjud belgining predmetda xosligi yoki qiyoslanayotgan belgi tafakkur tarzi natijasida ikkinchi predmetga ko‘chirilayotganligi ham o‘xshatishning lingvistik ifoda

vositasi sifatidagi mohiyatiga ta’sir etadi. Masalan, Uni yana bir ko‘rgusi, jonon piyola jarangiday tovushini eshitgisi keldi. (O.Yoqubov. “Adolat manzili”) gapida qizning jarangli tovushi piyolaning jarangli ovoziga qiyoslanishida obyektiv reallik mavjud. Shu jihatdan ushbu o‘xshatish oddiy o‘xshatish sifatida qaraladi. Zero, ushbu o‘xshatish asosidagi qiyosiy belgi sezgi organlari yordamida idrok etiladi. O‘xshatish konstruksiyalaridagi o‘ziga xoslik shundaki, qizning jarangli ovozi piyolaning ovoziga qiyoslash hammaning ham hayoliga kelavermaydi. O‘xshatishli ifodalardagi yangilik, originallik shu holat bilan belgilanadi. Ayniqsa, o‘xshatish obyekti va o‘xshatish etaloni turli xildagi predmetlardan bo‘lsa, ular orasidagi o‘xshashlikni hamma ham his etavermaydi va bunday predmetlar o‘xshatilganda ham yangi fikr ifodalangan bo‘ladi: Mirsalim bir haftadan keyin yana kuz havosiday birdan aynib qoldi. Jannat uzoq xayrlashib ko‘chaga chiqqanda, ufq ezilgan anordek qip-qizil, ko‘cha gavjum edi. (Shuhrat. “Oltin zanglamas”) gapida insonni kuz havosiga, ufqning ezilgan anorga qiyoslanish esa noreal, biroq ularni o‘xshatilishida mantiqiy asos mavjud, ya’ni kuzda havoning tez-tez o‘zgarib turishi, kishining xarakteridagi o‘zgarishlarga mos keladi. Ufqning qizilligi esa ezilgan anor rangiga mos keladi. Ko‘rinadiki, o‘xshatishli konstruksiyalarning yaratilishida mantiq kuchi asosiy omil bo‘lib xizmat qilgan. Mantiqiy mushohada asosida hosil bo‘lgan o‘xshatishlar asosan badiiy tasvir vositasi sifatida qaraladi. Yana bir misol: Odamlar bir nimani sezgandek, unga ergashadi, ular taqachining ko‘ngliga bir fikr kelganini yurish turishidan payqashar edi. (A.Muxtor. Chinor”) gapida o‘xshatish vositasi -dek qo‘shimchasi mavjud. Biroq ushbu gapda bir predmet, narsa ikkinchi bir predmet, narsaga o‘xshatilgani real ifodalanmagan. Matn mazmuniga mantiqiy nuqtai nazardan yondashilsa, odamlar nimanidir sezgan boshqa odamlarga qiyoslangani namoyon bo‘ladi. Obyekt va subyekt qiyosiga bu xildagi turli-tumanliklar o‘xshatishning o‘ziga xos muhim ifoda, funksional xususiyatlarga boy, boshqa lingvistik hodisalardan farqlanuvchi vosita ekanligini ko‘rsatadi.

O‘xshatish (tashbehning) turlari haqida fikr yuritar ekan, M.Yakubbekova arab manbalarida o‘xshatishning besh rukndan iboratligi haqidagi ma’lumotlarga duch kelganligini, bu – beshinchi rukn o‘xshatishdan ko‘zda tutilgan maqsad ekanligini ta’kidlaydi [11]. Har bir fikriy ifoda maqsadsiz bo‘lmaganidek, o‘xshatishli ifodalar ham ma’lum maqsad – olam manzarasini dalil keltirish asosida izohlashdan iborat.

Xulosa va takliflar. O‘xshatish garchand ifoda usulining rang-barangligini ta’minlanish xarakterida bo‘lsa ham, qiyos turlari orasida ta’sirchan-obrazliligi bilan alohida ajralib turadi va qadimdan tilning bezagi sifatida o‘rganilib kelingan. O‘xshatishlar tilning ifodaviy birliklari orasida lingvistik jihatdan eng ko‘p o‘rganilgan. Bu hol bevosita o‘xshatishning mohiyati, ko‘p vazifaliligi bilan bog‘liq.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayev A. O‘zbek tilida ekspressivlik ifodalanishining sintaktik usuli. – Toshkent: Fan, 1987. – 196 b.
2. Abdurahmonov G‘. Qo‘shma gap sintaksisi asoslari. – Toshkent: Fan, 1958. – 172 b.
3. Arastu. Axloqi Kabir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 352 b.
4. Mahmudov N. O‘xshatishlar – obrazli tafakkur mahsuli// O‘zbek tili va adabiyoti, 2011. – №3.
5. Mahmudov N. O‘zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya. – Toshkent: O‘qituvchi, 1984. – 181 b.
6. Mukarramov M. O‘zbek tilida o‘xshatish. – Toshkent: 1976. – 88 b.
7. Umurqulov B. Badiiy nasr jozibasi. – Toshkent: 2021. – 300 b.
8. Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. – Toshkent: 1990. – 111 b.
9. Usmonov F. O‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi: filol. fan. bo‘yicha fals. dok. diss. – Toshkent: 2019. – 152 b.
10. Xudoyberganova D. O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini: filol. fan. dokt diss. – Toshkent: 2015. – 164 b.
11. Yakubbekova M. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari: filol. f.f.d. ...diss. – Toshkent: 2005. – 148 b.
12. Аыткина Г.В. сравнительные конструкции руского языка: логика лингвистической аспект. Филологические наука. Вопросы теории и практики. – Томбов. Грамета, 2016. №6.
13. Жаркова У.А. Синтактик сравнения. Логико-лингвистической подход6 авторефю дисс. канд филол.наук. – Пермь: 2004. – 164 с.
14. Котова А.В. Сравнения в Римском герсическом эпосе. 1.в до. – 1 в.в.н.э. автореф. дисс. канд. филол. наук. – Санк-Петурбург: 2016. – 52 с.
15. Худойберганова Д. Семантические и стилистические особенноссти конструксий уподобления в узбекском языке: дисс. канд. филол. наук. – Ташкент: 1989. – 138 с.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/10]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 81'44

Maxfuza XIDIROVA,
Denov Entrepreneurship and Pedagogical Institute
Senior teacher of Departmen of Higher Courses of Foreign Language and Literature Studies
E-mail: mahfuza.khidirova@mail.ru

Based on the review of TerSU, PhD, A.Xudaykulov

THE STUDY OF ANIMAL NAMES IN UZ BEK LINGUISTICS

Annotation

This article focuses on the analysis of wild animal names (zoonyms) in Uzbek linguistics by examining the works of prominent Uzbek scholars who have studied zoonymy at various linguistic and cultural levels and synthesizes Uzbek linguists' contributions to the zoonymy field, illustrating the evolution of these names within the Uzbek language. By reviewing key linguistic frameworks, this research highlights how Uzbek scholars have approached zoonymy from diverse angles—ranging from basic lexical categorization to complex cultural interpretations.

Key words: Zoonymy, wild animal names, Uzbek linguistics, lexical analysis, semantic study, cultural significance, Uzbek proverbs, animal symbolism, linguistic anthropology, Uzbek scholars.

ИЗУЧЕНИЕ НАЗВАНИЙ ЖИВОТНЫХ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Аннотация

Данная статья посвящена анализу названий диких животных (зоонимов) в узбекской лингвистике путем изучения трудов известных узбекских ученых, которые исследовали зоонимию на различных лингвистических и культурных уровнях, и синтезирует вклад узбекских лингвистов в область зоонимии, иллюстрируя эволюцию этих названий в узбекском языке. В обзоре ключевых лингвистических подходов в исследовании подчеркивается, как узбекские ученые рассматривали зоонимию с разных точек зрения — от базовой лексической классификации до сложных культурных интерпретаций.

Ключевые слова: Зоонимия, названия диких животных, узбекская лингвистика, лексический анализ, семантическое исследование, культурное значение, узбекские пословицы, символизм животных, лингвистическая антропология, узбекские ученые.

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA HAYVON NOMLARINI O‘RGANISH

Annotatsiya

Ushbu maqola o‘zbek tilshunosligida yovvoyi hayvonlar nomlari (zoonimlar) tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, zoonimlarni turli lingvistik va madaniy jihatdan o‘rgangan mashhur o‘zbek olimlarining ishlari tahlil qilingan va o‘zbek tilida bu nomlarning rivojlanishini ko‘rsatib bergan o‘zbek lingvistlarining zoonimlar tadqiqiga qo‘shgan hissalari umumlashtirilgan. Ushbu tadqiqotda asosiy lingvistik yondashuvlar tahlil qilinar ekan, o‘zbek olimlari zoonimlarni qanday turli nuqtai nazarlardan - oddiy leksik tasnifdan tortib, murakkab madaniy talqinlargacha - o‘rganganliklari ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: Zoonimlar, yovvoyi hayvonlar nomlari, o‘zbek lingvistikasi, leksik tahlil, semantik tadqiqot, madaniy ahamiyat, o‘zbek maqollari, hayvon ramzlari, lingvistik antropologiya, o‘zbek olimlari.

Introduction. The study of zoonymy – the linguistic representation of animal names, particularly wild animals – has been an important field within Uzbek linguistics. Numerous Uzbek scholars have conducted extensive research on zoonyms, analyzing their lexical, semantic, and cultural aspects across various levels of language. These scholars have explored zoonyms from different perspectives, ranging from their roles in folklore, idioms, and proverbs to their metaphorical and symbolic usage in classical and modern literature. Uzbek linguists have contributed significantly to the understanding of how wild animal names function within the broader linguistic and cultural framework of the Uzbek language. For instance, researchers have examined how zoonyms are categorized within the lexicon, their semantic variations, and their etymological origins. Others have concentrated on the cultural and anthropological relevance of these names, showing how Uzbek society’s traditional beliefs, moral standards, and social norms are reflected in animal symbolism.

Materials and methods. This study primarily draws upon existing research in the field of zoonymy within Uzbek linguistics and folklore. The materials used include dissertations, academic articles, and folklore texts. In this thesis, we will analyze the works of key Uzbek scholars who have studied zoonyms at various levels, ranging from their basic lexical forms to their deeper semantic and cultural implications. By reviewing the contributions of these linguists, the research will highlight the evolution of zoonym studies in Uzbek linguistics, offering a comprehensive overview of how wild animal names have been interpreted and understood within different scholarly frameworks. The collected zoonymic lexemes from the research materials were categorized into distinct semantic fields based on their role and function in the texts. Lexical semantic analysis was employed to understand how zoonymic lexemes are structured within the Uzbek language and how they convey specific meanings. This method involves analyzing each animal lexeme’s semantic components (semes), identifying the primary and secondary meanings, and examining how these meanings shift depending on the narrative context. For example, the “wolf” lexeme was analyzed for its meanings of “strength,” “predator,” and “fearlessness” in different folklore contexts. The linguistic features of zoonymy have been widely studied by several Uzbek scholars. The notable works include

those of M. Jo‘rayev, J. Matyakubov, A.J. Omonturdiev, B.M. Jo‘rayeva, D.X. Bazarova, M. Sharipova, B.B. Abdushukurov, H.A. Saidova, D.M. Yo‘ldosheva, S.Ch. Jumayeva, B. Zaripov, D.A. Tosheva, G.E. Hakimova, X. Zarifov, N.R. Nishonova, A. Tilavov, and Sh. Noraliyeva. These scholars have made significant contributions through their research, each bringing unique insights into their respective fields. Their research focuses on zoonymy in various linguistic contexts. These studies examine zoonyms found in Turkic written sources, the formation of zoological terms, the semantic and stylistic aspects of animal names in proverbs, and how the names of animals convey meanings in literary texts.

Discussion and results. Through her research, N.R. Nishonova identifies the place of noun lexemes based on the “animal” word archiseme in the Uzbek language, categorizing them according to a hierarchical classification, and studies their common and distinguishing semes. The main directions of N.R. Nishonova’s research are defined as follows: first, there is a need to study the lexical level based on a semantic field, and second, she proves the importance of semantically classifying noun lexemes and identifying the linguistic features of units that constitute the “animal” micro field [1].

A.J. Omonturdiyev’s research focuses on professional language and its euphemisms, exploring how euphemistic expressions are used in both language and speech. The study is primarily conducted through the lens of herders’ language, revealing how euphemistic tools develop within professional speech and examining their linguistic aspects. The research addresses several key issues:

Euphemistic tools and taboos: The relationship between taboos and euphemisms in the historical development of language, and how the concept of euphemism is connected to the religious, cultural, and spiritual values of the people.

Professional lexicon and its euphemisms: The study investigates profession specific terms and expressions, particularly euphemistic phrases used in the daily life of herders.

Euphemistic expressions in herders’ speech: The importance of euphemistic terms related to the lifestyle and traditions of herders is analyzed, highlighting their significance in professional language [2].

This research provides valuable insight into the role of euphemisms in specialized communication within the herding profession.

Safarova has studied the hyponymy of zoonyms commonly used in the Uzbek language. X. Saidova has researched the role of animal names in describing personal characteristics in the Uzbek language. Special attention should be given to the exploration of the Uzbek people’s animal cults, particularly regarding wild animals such as wolves and snakes, and their related beliefs, which have been extensively studied from a folkloric perspective by X. Zarifov, A. Musoqulov, M. Jo‘rayev, A. Tilavov, and D. Fayziyeva. In Bazarova’s research, special attention is given to the study of ornitonyms (bird names) present in Turkic languages. The research deeply analyzes the linguistic structure of bird names, their position within the system of synonyms, and how these names have been shaped by cultural and historical processes. Through this study, she provides extensive information about the connection of Uzbek ornitonyms with other Turkic languages and their evolution over time [3].

D.Yuldasheva in her dissertation “Zoonymy in Uzbek Children’s Folklore,” uses the example of the folk saying about the insect “xonqizi” (ladybug) which goes, “uch, uch, uch, otang o‘ldi, osh berasan, go‘sht berasan, uch uch uch” and provides an explanation of its origins. This mythological concept suggests that the “xonqizi” was once the daughter of a wealthy man who fell in love with a shepherd. Her father, opposing the relationship, cursed her by saying, “Iloyo qo‘ng’izga aylangin” thus transforming her into this creature according to folklore. The author also discusses the owl (“boyo‘g’li”), noting that according to folklore, it was once the son of a rich man. Yuldasheva analyzes the significance and role of zoonymy in children’s speech, categorizing it into four stages for a more detailed understanding. D.Yuldasheva discusses the use of zoonyms in lullabies, emphasizing that names of wild animals like lions and leopards are used to represent strength and bravery. She classifies the animal names used in lullabies into several categories:

1. Big Cats: Names of large predatory mammals from the feline family, such as lion (sher), tiger, and leopard, are used to symbolize strength and power.
2. Birds of Prey: Predatory birds like eagles and falcons are frequently mentioned.
3. Canines: The name “wolf” is an example of animals from the canine family.
4. Songbirds: The nightingale (“bulbul”) is cited as an example from the songbird family.
5. Hoofed Mammals: Animals like lambs (“qo‘zichoq”) and foals (“toychoq”) are analyzed.
6. Camelids: The “bo‘taloq” (a young camel) is highlighted as a twohumped mammal that appears in lullabies [4].

This classification shows how different animals are used in traditional Uzbek lullabies to convey various symbolic meanings, reflecting strength, beauty, or tenderness depending on the animal referenced. According to this categorization, D.Yuldasheva emphasizes that each animal lexeme carries several semes (meaning components), but only certain semes are utilized in lullabies. For instance, the lexeme “wolf” encompasses semes such as “predator,” “fourlegged,” “sharp sense of smell,” and “strong.” However, in lullabies, only the “strong” seme is employed. She explains this by highlighting the historical reverence for wolves in Uzbek culture, where parts of the animal were used as totems, and people named their children with names like Bo‘rixon, Bo‘rixol, Bo‘ritosh, and Bo‘riboy, wishing for their offspring to possess similar traits [4]. Additionally, other animal names in lullabies, such as “toychog’im” (my foal), “bo‘talog’im” (my young camel), “sher bolam” (my lion child), and “arslon bilakli” (lionarmed), are used as examples of metaphoric shifts. As a result, D.Yuldasheva concludes that lullaby texts often express two contrasting meanings—strength and weakness, or large and small—through the use of animal names, creating a duality in the interpretation of these texts [4].

The author discusses the use of animal names to represent individuals and provides examples such as “Sher bobo” (Grandfather Lion), “Shervoy aka” (Brother Lion), “Sher to‘ram” (Master Lion), “Tulkivoy” (Mr. Fox), “Ko‘ppakvoy” (Mr. Dog), and “Qo‘yxon” (Master Ram, from the tale Qochqorxon To‘ra), “Ajdarxon sulton” (Sultan Dragon, from the tale Tilla Taroq), “Mulla To‘rg’ayvoy” (Mr. Mulla Sparrow, from the tale Non Qudrati), and “Kuchukvachcha” (Puppy, from the tale Yetim Bola). She emphasizes that these names are used as proper nouns through the use of affixoids and appositional structures. The author also explores how certain birds are used as ideonyms in fairy tales. For example:

The stork is referred to as the “king bird” (Ur To‘qmoq),

The parrot as the “loyal friend” (Uch Og’a Inilar),

The dove as the “soul of the demon” (Malikai Oyxumor),

The sparrow as the “messenger bird” (Cho‘pon bilan Qiz and Non Qudrati),

The blue dove as the “healing bird” (O‘tinchining Qizi),

And the nightingale as the “healer” (Olmos Botir).

The author delves into the lexical semantic series of zoonymy in fairy tales, providing examples of how animal names symbolize various traits. For instance, the fox represents cunning, the nightingale symbolizes eloquence, the parrot denotes loquacity, the wolf embodies savagery, greed, and ignorance, the camel signifies endurance and perseverance, and the rabbit represents cowardice [5,].

The work of other scholars, such as N.R. Nishonova and A.J. Omonturdiev, expands on this understanding by exploring zoonymic lexemes from lexical, semantic, and cultural perspectives. Nishonova’s hierarchical classification of animal lexemes and Omonturdiev’s focus on euphemistic language in professional speech (especially herders) contribute to the broader study of how zoonymy operates in various linguistic and cultural settings.

Conclusion. The analysis of zoonymy in Uzbek folklore, particularly in the works of scholars such as D.Yuldasheva, N.R. Nishonova, and A.J. Omonturdiev, demonstrates the significant cultural and linguistic roles that animal names play in shaping societal values and narratives. Through the lens of lexicon, semantics, and cultural symbolism, zoonymic lexemes offer valuable insights into the worldview and traditions of the Uzbek people. D.Yuldasheva offers a significant contribution to the study of zoonymy in Uzbek children’s folklore, particularly through the exploration of animal names used in lullabies and fairy tales. By examining the symbolic and semantic roles of animal names, she uncovers the deep cultural and moral significance these zoonyms carry within Uzbek oral traditions. Other scholars, such as R. Safarova, who studied the hyponymy of zoonyms in the Uzbek language, and X. Saidova, who explored the role of animal names in personal descriptions, have further contributed to understanding the cultural importance of zoonymy in Uzbek linguistics. Safarova’s focus on common bird names and their semantic structure complements Yuldasheva’s work by broadening the analysis of animal names in everyday language. X. Zarifov, A. Musoqulov, M. Jo‘rayev, A. Tilavov, and D. Fayziyeva’s research on the animal cult in Uzbek folklore further underscores the symbolic power of animals, particularly wolves, snakes, and birds, in shaping social and spiritual beliefs. These studies reveal the layered meanings and symbolic richness embedded in animal names, illustrating their significance in both linguistic analysis and cultural representation.

LITERATURE

1. Nishonova N.R. O‘zbek tilida “hayvon” arxisemali leksemalar maydonining mazmuniy tahlili: Filol. fanlari nomzodi... diss. – Toshkent, 2000. – 120 b.
2. Omonturdiyev A.J. Professional nutri evfemikasi (chorvadorlar nutri misolida): Final. fantasy dr... diss. – Toshkent, 2009. – 25 b.
3. Базарова Д.Х. История формирования и развитие зоологической терминологии узбекского языка. – Ташкент: Фан, 1978. – 222 с.
4. Yuldasheva D. “O‘zbek bolalar folklori tilida zoonimlar” falsafa doktori dissertatsiyasi. – Toshkent. 2007.
5. Saidova H.A. O‘zbek tilida hayvon nomlarining shaxs tavsifi vazifasida qo‘llanilishi: Filol. fanlari nomzodi... diss. – Buxoro, 1995. – 178 b.
6. Amirkulovna, K. M. (2024). Zoo of Languages: Borrowed Animal Names in English Lexicon. Miasto Przyszłości, 49, 12701275.
7. Khidirova, M. (2024). THE ORIGIN OF SPECIES NAMES: A LOOK INTO ANIMAL NAME ETYMOLOGY OF ENGLISH LANGUAGE. Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, 135138. https://doi.org/10.2024/hk5nxs75
8. Jo‘raeva B. Maqolning yondosh hodisalarga munosabati va ma’noviy xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2007. – 66 b.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/10]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 81.119 (97.11)

Oyjamol XUDOYBERDIYEVA,
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
E-mail: teacheroyjamol@gmail.com

NamDU dotsenti M.Boltayeva taqrizi asosida

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI RAQS TERMINOLOGIYASIDA O‘ZLASHMA SO‘ZLARNING O‘RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada raqs terminologiyasidagi o‘zlashma so‘zlarning o‘rni va ta’siri ingliz va o‘zbek tillari misolida tahlil qilingan. Raqs san’ati tarixan turli madaniyat va tillarning o‘zaro ta’sirida rivojlangan bo‘lib, bu o‘zgarishlar va madaniy ta’sirlar til boyligida aks etadi. O‘ziga xos moslashuvchanligi tufayli ingliz tili fransuz, ispan, nemis va hatto afro-amerikalik xalq tilidan ko‘plab so‘zlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, ularning har biri o‘zining raqs lug‘atiga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbek raqs terminologiyasida esa fors, arab va rus tillaridan o‘zlashma so‘zlar mavjud. Ushbu maqola ikkala tildagi ushbu so‘zlarni, ularning ma’nosini va manbasini o‘rganadi va turli xil raqs shakllari va madaniy o‘zaro ta’sirlarni aks ettiradi.

Kalit so‘zlar: O‘zlashma, raqs, balet, madaniy tahlil, lingvistik tahlil, raqs terminologiyasi, gender dinamikasi.

РОЛЬ ЗАИМСТВОВАННЫХ СЛОВ В ТАНЦЕВАЛЬНОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Annotation

Эта статья анализирует роль и влияние заимствованных слов в танцевальной терминологии, используя примеры английского и узбекского языков. Танец, как форма искусства, исторически развивался через взаимное влияние различных культур и языков, что нашло отражение в языковом богатстве. Благодаря своей уникальной адаптивности, английский язык включил в себя множество слов из французского, испанского, немецкого и даже афроамериканского просторечия, каждое из которых по-своему повлияло на танцевальный лексикон. В узбекской танцевальной терминологии присутствуют заимствованные слова из персидского, арабского и русского языков. В статье рассматриваются эти слова в обоих языках, их значения и происхождение, отражающие различные формы танца и культурное взаимодействие.

Ключевые слова: Заимствования, танец, балет, культурологический и лингвистический анализ, танцевальная терминология, гендерная динамика.

THE ROLE OF LOANWORDS IN DANCE TERMINOLOGY OF THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

This article analyzes the role and impact of loanwords in dance terminology using the examples of the English and Uzbek languages. Dance, as an art form, has historically evolved through the mutual influence of various cultures and languages, with these changes and cultural impacts reflected in the richness of language. Due to its distinctive adaptability, the English language has incorporated numerous words from French, Spanish, German, and even African American vernacular, each of which has influenced the dance lexicon in its own unique way. In Uzbek dance terminology, there are loanwords from Persian, Arabic, and Russian. This article explores these words in both languages, their meanings, and origins, reflecting different dance forms and cultural interactions.

Key words: loanwords, dance, ballet, cultural analysis, linguistic analysis, dance terminology, gender dynamics.

Kirish. O‘zlashma so‘zlar — bu boshqa tildan deyarli o‘zgartirishlarsiz qabul qilingan atamalar. Raqs terminologiyasida o‘zlashma so‘zlar lug‘atni boyitishda, murakkab va nozik ma’nolarni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi, bu esa mahalliy tilda bevosita ekvivalenti bo‘lmasligi mumkin. Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek raqs terminologiyasidagi o‘zlashma so‘zlarning o‘rni, ularning kelib chiqishi, funksiyalari va ta’siri o‘rganiladi. Raqs terminologiyasida o‘zlashma so‘zlar boshqa tillardan olingan atamalar bo‘lib, ular raqs shakllarini shakllantiruvchi madaniy va tarixiy ta'sirlarni aks ettiradi. Masalan, ingliz tilidagi ko‘plab raqs atamalari fransuz, italyan va ispan tillaridan olingan, bu balet, zamonaviy raqs va lotin raqslarining ta’siridan kelib chiqqan. Xuddi shunday, o‘zbek raqs terminologiyasida rus, arab va fors tillaridan olingan so‘zlar mavjud bo‘lib, ular mintaqaning turli madaniy va tarixiy aloqalarini aks ettiradi.

Zamonaviy ingliz tilining so‘z boyligini to‘ldirish vositasi sifatida o‘zlashtirish juda ko‘p ahamiyati kamroq bo‘lib, asosan ilmiy-terminologiya sohasida faoliyat yuritadi. Shuni ta’kidlash kerakki, ko‘pgina atamalar ko‘pincha o‘zlashtirilgan morfemalardan, asosan klassik tillardan olingan morfemalardan iborat. [8;190] O‘zlashma so‘zlar tillar leksikasini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi, madaniy almashinuv, ta’sir va tarixiy aloqalarni aks ettiradi. raqs terminologiyasi sohasida ham ingliz, ham o‘zbek tillari raqs shakllari va amaliyotlarining xilma-xil kelib chiqishini aks ettiruvchi ko‘plab so‘zlarni o‘zlashtirgan. ushbu maqola ingliz va o‘zbek tillaridagi raqs so‘z birikmalarining ta’siri va rolini o‘rganib, bu atamalar har ikki tilning lingvistik manzarasini qanday boyitayotganini ko‘rsatib beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbek tilidagi o‘zlashma so‘zlarning fonetik, morfologik, sintaktik va leksik-semantik xususiyatlari E. Begmatov, A. Rustamov, B. Bafoyev singari olimlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan. Shuningdek, o‘zbek tili leksikasining taraqqiyot yo‘llari, uning etimologik tarkibi, o‘zbek tilidagi o‘zlashma va baynalmilal so‘zlarning lingvistik xusuiyatlarini o‘rganish A.

Borovkov, V. Reshetov, M. Mirzayev, N. G‘ulomova, K. Yusupov, T. Raxmonov, Y. Odilov singari tilshunoslarning ilmiy ishlarida yoritilgan. XX asr o‘rtalaridan boshlab o‘zbek tili lug‘at tarkibini leksikografik asosda o‘rganish keng tus oldi. Jumladan, o‘zbek tilidagi arabiy o‘zlashmalar va so‘z birikmalarini o‘rganish o‘tgan asrning 40-yillaridan boshlangan. Bu yo‘nalishdagi dastlabki yutuqlar F. Abdullayevning nomzodlik dissertatsiyasida o‘z aksini topgan bo‘lsa, keyinchalik bir qator ko‘zga ko‘ringan olimlarning ilmiy ishlarida ham shu sohaning ayrim muammolari o‘rganilgan.Tadqiqotimizda raqs terminologiyasida mavjud bo‘lgan o‘zlashma so‘zlarni lingvistik va madaniy jihatdan tahlil qilindi.[7]

Tadqiqot metodologiyasi. Ingliz va o‘zbek tillari raqs terminologiyasida o‘zlashma so‘zlarning ahamiyatini ochib berishda analizva sintez, induktiv va deduktiv metodlari, taqqoslash, mantiqiylk, uzviylik kabi tamoyillaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Ingliz raqs terminologiyasidagi o‘zlashma so‘zlar: Ingliz raqs terminologiyasi, ayniqsa balet va zamonaviy raqsda, asosan fransuz tilidan olingan. Bu XVII asrda, balet Fransiyada Qirol Lui XIV davrida shakllanganida boshlangan va butun dunyo bo‘ylab fransuz atamalarining keng tarqalishiga sabab bo‘lgan.

a. Baletdagi fransuz o‘zlashma so‘zlar - Balet lug‘atida "plié" (egilish), "pirouette" (aylanish) va "arabesque" (bir oyoqda turib tana pozitsiyasi) kabi keng tarqalgan atamalar mavjud. Ushbu atamalar butun dunyoda qo‘llanilib, klassik raqs terminologiyasida fransuz tilining ustunligini namoyish etadi.

b. Raqsdagi italyan va ispan o‘zlashma so‘zlari- - Italyancha "adagio" (sekin) va "allegro" (tez va jonli) kabi atamalar temp va harakatlarni tasvirlash uchun ishlatiladi, ispancha "flamenco" va "salsa" kabi so‘zlar esa maxsus raqs uslublari bilan birga ularning terminologiyasini ham olib kiradi.

c. Zamonaviy va hozirgi ta’sirlar - Zamonaviy raqsda ingliz tiliga Martha Graham va Merce Cunningham kabi zamonaviy raqs kashfiyotchilaridan yangi terminologiyalar kirib kelgan bo‘lsa-da, ular chet tillardan ko‘p o‘zlashma olmaydi.

O‘zining moslashuvchanligi va boshqa tillardan ko‘p miqdorda o‘zlashma olishi bilan mashhur bo‘lgan ingliz tili o‘zining raqs lug‘atida boy so‘zlarga ega. Ushbu atamalar ko‘pincha raqs uslublarining kelib chiqishini aks ettiradi va ingliz tilida so‘zlashuvchi madaniyatlarga global ta’sir ko‘rsatadi. Masalan: “Balet” (fransuzcha), “Tango” (ispancha), “Salsa” (ispancha), “Vals” (nemischa) “Jazz” (afro-amerikalik xalq tili), “Rumba” (ispancha), “Polka” (chex tili), “Samba” (portugalcha), “Flamenco” (ispancha) va h.k.

Yuqorida keltirilgan terminlar kabi ko‘plab raqsga oid leksik birliklar mavjud bo‘lib, ulardan ba’zilarini tahlilga tortamiz:

Ballet (fransuzcha): “Balet” atamasi fransuz tilidan olingan bo‘lib, o‘zi uni italyancha “baletto” so‘zidan olgan. Balet raqs shakli sifatida italyan va fransuz saroy an'analarida kuchli ildizlarga ega va u bilan bog‘liq terminologiya asosan ushbu merosni aks ettiradi. “pirouette”, “plié,” va “arabesque” kabi atamalar ingliz tilida ishlatiladigan barcha frantsuz so‘zlaridir.

“Balet”so‘zi Yevropa an’analaridan kelib chiqqan va global moslashuv va evolyutsiyalar bilan boyitilgan muhim til va madaniy tarixni o‘z ichiga oladi. Balet termini lingvistik jihatdan tahlil qiladigan bo ‘lsak:

“Balet” so‘zi fransuz tilidan olingan bo‘lib, u yerda birinchi marta 17-asrda qo‘llanilgan. Bu italyancha “baletto” so‘ziga borib taqaladi, bu “raqs” degan ma’noni anglatuvchi “ballo” so‘zining kichrayishi. Italiyalik “ballo” so‘zining o‘zi lotincha “ballare” dan kelib chiqqan bo‘lib, “raqsga tushish” degan ma'noni anglatadi, bu yunoncha “ballizein” dan olingan bo‘lib, “raqsga tushish” yoki “sakrash” degan ma’noni anglatadi. Bu atama fransuz tiliga qabul qilinishidan oldin italyan sud ijrolari orqali rivojlandi va u yerda zamonaviy shaklga aylandi va raqsning o‘ziga xos, yuqori darajada stilize qilingan shakli bilan bog‘landi.

Ingliz tilida “balet” /bæˈleɪ/ yoki /ˈbæleɪ/ talaffuz qilinadi, oxirida ovozsiz “t” harfi bilan talaffuz qilinadi, bu uning fransuzcha kelib chiqishini aks ettiradi. Fransuz tilida u [balɛ] deb talaffuz qilinadi, ochiqroq unli tovush va jim “t” bilan ham talaffuz qilinadi. Talaffuz o‘zining fransuz ildizlarini hurmat qiladi, badiiy shakl bilan bog‘liq nafislik va ravonlikni saqlaydi.

Balet terminini madaniy jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak va quyidagi Balet Italiya Uyg‘onish davrida saroy o‘yin-kulgi turi sifatida paydo bo‘lgan va keyinchalik 1661 yilda birinchi professional balet kompaniyasi – “Academie Royale de Danse” ni tashkil etgan Lui XIV davrida Fransiyada ommalashgan. Baletning madaniy ahamiyati Frantsiya va Rossiyada o‘sib bordi, u erda bugungi kunda ma'lum bo‘lgan yuqori texnik va ekspressiv san’at turiga aylandi. Bu mamlakatlar mumtoz baletning so‘z boyligi, harakatlari va estetikasini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynagan.[4;48] Ushbu termining madaniy ahamiyati ham chuqur ma’noga ega. Balet raqs san’atining eng yuqori turlaridan biri bo’lib, texnik aniqlikni badiiy ifoda bilan uyg‘unlashtirgan.

Balet ko‘pincha hikoyalarni aytib beradi yoki mavzularni kodlangan harakat tilidan foydalangan holda raqs orqali etkazadi. Umumiy mavzular orasida sevgi, fojia, folklor va tabiat, ko‘pincha fantastik yoki afsonaviy elementlar mavjud.

Tarixan qirollik va aristokratiya bilan bog‘liq bo‘lgan balet nafis did va madaniy nafosat ramziga aylandi. Uning chiqishlari ko‘pincha boylik va kuch namoyishi bilan bog‘liq edi. Balet atamasi nafosat va madaniy idializatsiya ramzi ham hisoblanadi. Balet nafislik, nazorat va nafosatning sinonimi bo‘lib, insonning ideal go‘zallik va mukammallikka intilishi ramzidir. Balet ko‘pincha romantizm, qahramonlik va fantaziya mavzularini mustahkamlab, ma’lum madaniy hikoyalarni ideallashtirgan. Biroq, u evrosentrik ideallar va go‘zallikning qat’iy me’yorlarini davom ettirish uchun tanqidga ham duch keldi.

Xulosa qilib aytganda, “balet” so‘zi til tarixi va madaniy evolyutsiyaning boy uyg‘unligini aks ettiradi. Balet o‘zining italyan va fransuz tillarida paydo bo‘lishidan tortib, jahon miqyosidagi nufuzigacha badiiy mukammallik, madaniy meros va intizomli harakatlar orqali insonning go‘zallik va ifodaga intilishi ramziga aylandi.

O‘zbekistonda so‘zlashuvchi turkiy til bo‘lgan o‘zbek tili ham tarixiy, madaniy va siyosiy o‘zaro ta’sirlar tufayli asosan fors, arab, rus va boshqa tillar ta’sirida bo‘lgan raqs terminologiyasida turli o‘zlashma so‘zlarga ega.

O‘zbek raqs terminologiyasidagi o‘zlashma so‘zlar. O‘zbek raqsi ifodali harakatlar va madaniy ahamiyatga ega imo-ishoralar bilan ajralib turadi va u Ipak Yo‘li bo‘ylab ko‘plab madaniyat va tillar kesishganida yuzaga kelgan boy ta’sirlarni aks ettiradi. Bu esa rus, arab va fors tillaridan olingan o‘zlashma so‘zlarni o‘z ichiga olgan turli xil raqs terminologiyasini yaratishga olib kelgan.

a. Rus tilining ta’siri - Sovet Ittifoqining Markaziy Osiyodagi tarixiy mavjudligi sababli o‘zbek tiliga ko‘plab raqs atamalari rus tilidan kirib kelgan, masalan, “танец” (tanets, raqs) va “балет” (balet, balet). Ushbu atamalar rus klassik va xalq raqslarining o‘zbek raqsiga integratsiyasini aks ettiradi.

b. Arab va fors o‘zlashma so‘zlar - “Raqis” (raqqos) va “maqam” (musiqiy moda yoki shkala) kabi atamalar arab va fors tillaridan kirib kelgan bo‘lib, bu madaniyatlar bilan chuqur tarixiy aloqalarni aks ettiradi. Ushbu o‘zlashma so‘zlar

raqs lug‘atini boyitib, madaniy ahamiyat va uslubiy xilma-xillik qo‘shadi.

c. Turk va mo‘g‘ul tilining ta’siri- Arab va fors tillariga qo‘shimcha ravishda, o‘zbek raqs terminologiyasi turk va mo‘g‘ul tillaridan ham so‘zlar qabul qilgan, bu esa Markaziy Osiyo madaniyatlarining o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi. “Oyna” (o‘ynash yoki raqs qilish) kabi atamalar bunga misoldir.

“Tanbur” (forscha), “Karnay” (fors/arab), “Raqs” (arabcha) “Choreografiya” (ruscha) “Balet” (rus/fransuz): Ingliz tiliga o‘xshab, o‘zbek tili ham “balet” atamasini rus tilidan, o‘z navbatida frantsuz tilidan olgan. Bu atamaning o‘zbek tilida mavjudligi XX asrda sovet madaniyatining o‘zbek sahna san’atiga ta’sirini ko‘rsatadi.

“Raqs” (رقص) so‘zi klassik arabcha atama bo‘lib, keng ma’noda “raqs” degan ma’noni anglatadi. Quyida so‘zning lingvistik va madaniy tahlili:

Arab tilidagi “r-q-ṣ” (r-q-ṣ) ildizi ritmik harakatlanishning umumiy ma’nosini anglatadi, bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri raqsga tarjima qilinadi. Arab tilida “raqs” [raqs] talaffuz qilinadi, aylanma “r” va qattiq “q” tovushi ko‘plab arabcha so‘zlarga xosdir. Bu nisbatan qisqa va ritmik so‘z bo‘lib, u ifodalagan tushunchani aks ettiradi. Bu fonetik jihatdan sodda, shuning uchun uni ko‘plab arab dialektlariga o‘tkazish mumkin.[3;15] “Raqs” keng ma’noda raqs degan ma’noni anglatsa-da, xalq o‘yinlaridan tortib, ko‘proq rasmiy yoki badiiy chiqishlargacha bo‘lgan turli ko‘rinishlarga ishora qilishi mumkin. U sharq dunyosidagi raqs uslublarining keng doirasini o‘z ichiga oladi, ularning har biri o‘zining madaniy ahamiyati va kontekstiga ega.

- “Raqs Sharqi:” Bu, ehtimol, “raqs” ning xalqaro miqyosda tan olingan shaklidir. Bu qiyshiq harakatlar, to‘lqinlar, ifodali qo‘l va imo-ishoralarini o‘z ichiga oladi. Misrdan kelib chiqqan holda, u arab dunyosi va undan tashqarida tarqaldi va Yaqin Sharq raqsi bilan sinonimga aylandi.

- “Xalq va ijtimoiy raqslar:” Dunyo mintaqasida “raqs” atamasi ostida son-sanoqsiz xalq raqslari mavjud. O‘zbek milliy raqs turkumlaridan “Qo‘g‘irchoq raqsi”, “Cho‘pon raqsi”, “Gullar raqsi” va boshqalar. O‘zbek xalq raqs san’atida raqs atamasini so‘zlashuv nutqida “o‘yin” so‘zi bilan atalgan bo‘lib, ko‘plab raqs nomlari shu so‘z bilan nomlanib kelingan. Misol tariqasida “Otash o‘yin”, “Dorboz o‘yin”, “Choynak o‘yin”, “Pichoq o‘yin” raqslari kiradi, ularning har biri mintaqaviy o‘ziga xoslik va an’analarni aks ettiradi.

“Muqaddas va marosim raqsi:” Ba’zi kontekstlarda "raqs" so‘fiy darveshlarning aylanmasi kabi ma'naviy yoki marosim raqs shakllari bilan ham bog‘liq bo‘lib, bu oddiy ijro emas, balki harakatlanuvchi meditatsiya shakli hisoblanadi.

Raqsning Madaniy ahamiyati. Identifikatsiyani ifodalash – “raqs” deb atalgan raqs madaniy o‘ziga xoslik, ijtimoiy qadriyatlar va jamoa birligini ifodalashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. U ko‘pincha hikoya qilish, bayram qilish va an’analarni saqlash uchun vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Gender dinamikasi – “raqs” ko‘zga tashlanadigan ko‘plab madaniyatlarda raqs turli xil jinsga bog‘liq ma'nolarga ega bo‘lishi mumkin. Misol uchun, Raqs Sharqiy ko‘pincha ayol ijrochilar bilan bog‘lanadi va an’anaviy ravishda ayollik, shahvoniylik va badiiy ifoda bilan bog‘lanadi. Biroq, ayniqsa, o‘zbek xalq an’analarida “raqs”ning erkak shakllari ham mavjud. Unga misol qilib, “Masxaraboz lazgi” raqsida erkak raqqoslar ijro etib kelgan.

Xulosa qilib aytganda, “raqs” so‘zi arab dunyosi va undan tashqaridagi raqs an'analarining keng va xilma-xil spektrini o‘z ichiga oladi. Tilshunoslik nuqtai nazaridan, bu oddiy va hayajonli atama bo‘lib, madaniy jihatdan u sharq mintaqasining tarixi, o‘ziga xosligi va ekspressiv an'analarini aks ettiruvchi muhim ahamiyatga ega. “raqs” ning evolyutsiyasi va global tarqalishi hozirgi sharoitda uning ma’nosi va ahamiyatini shakllantirishda davom etmoqda.

Xulosa va takliflar. O‘zlashma so‘zlar ingliz va o‘zbek tillarining raqs terminologiyasida hal qiluvchi rol o‘ynaydi, bu raqs dunyosini shakllantiradigan madaniy o‘zaro ta'sirlar va ta'sirlarning boy gobelenlarini aks ettiradi. Ular nafaqat so‘z boyligini qo‘shibgina qolmay, balki ushbu raqs shakllari paydo bo‘lgan tarixiy va madaniy kontekstlar haqida ham ma’lumot beradi. Raqs rivojlanib, global miqyosda tarqalishda davom etar ekan, o‘zlashma so‘zlari, shubhasiz, uning lingvistik ifodasining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib qoladi, madaniyatlar va tillarni universal harakat tili orqali ko‘paytiradi.

ADABIYOTLAR

1. Allworth, E. The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present: A Cultural History. Hoover Institution Press,1990. – 413p.
2. Crystal, D. English as a Global Language. Cambridge University Press, 1997. –212p.
3. Dosmetova R., Abraykulova N. Raqs darslik - T.: «Barkamol fayz media», 2017,160 bet.
4. Frolova W. M. Russian Music and Nationalism from Glinka to Stalin. Yale University Press,2007. – 418 p.
5. Haspelmath, Martin. (2009). Lexical borrowing: concepts and issues. Loanwords in the world's language: A Comparative Handbook. 35-54. 10.1515/9783110218442.
6. Lomax A. Folk Song Style and Culture. American Association for the Advancement of Science,1968. – 308 p.
7. Абдуллаев Ф. Арабизмы в узбекском языке: Дисс….канд. филол. Наук.-Ташкент, 1945-120 с.
8. Гинзбург Р. З., Хидекель С. С., Князева Г. Ю. и А. А. Санкин. Лексикология английского языка: Учебник для ин-тов и фак. иностр. яз.— 2-е изд., испр. и доп. — М.: Высш. школа, 1979. — 269 с.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/10]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:81.22

Zuhra XUSANOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti
E-mail:zuxra.xusanova94@gmail.com
Shahodat USMONOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, PhD

BuxDU dotsenti, PhD M.Axmedova taqrizi asosida

EXPRESSIVE MEANS IN ENGLISH AND UZBEK NEWSPAPER TEXTS

Annotation

This article is dedicated to analyzing the use of stylistic devices—zeugma, sarcasm, and oxymoron—in the newspapers “O’zbekiston Ovozi” published in Uzbekistan and “The New York Times” from the United States. The article thoroughly examines the role of these stylistic devices in enhancing the expressiveness of the text, attracting readers, and achieving communicative goals. In “O’zbekiston Ovozi,” oxymorons and zeugmas are used based on traditional cultural practices, while in “The New York Times,” their use is primarily aimed at capturing the reader’s attention and increasing impact. The research results reveal significant differences in stylistic approaches and linguistic strategies between the two newspapers. The article also emphasizes the need for further scholarly research to gain a deeper understanding of the role and functions of these devices within texts. Based on the findings, recommendations for future research are provided, which will facilitate more profound scientific analyses of stylistic devices at the national and international levels.

Key words: USA and Uzbek press, expressive means, imagery, emotionality, intensity, zeugma, sarcasm, oxymoron.

СРЕДСТВА ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКСПРЕССИВНОСТИ В ТЕКСТАХ ГАЗЕТ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье рассматривается использование стилистических приемов — зевгма, сарказм и оксюморон — на примере газет «O’zbekiston Ovozi», издаваемой в Узбекистане, и «The New York Times», издаваемой в США. В статье тщательно изучается роль этих стилистических приемов в повышении экспрессивности текста, привлечении читателей и достижении коммуникативных целей. В газете «O’zbekiston Ovozi» оксюмороны и зевгмы применяются с опорой на национальные культурные традиции, в то время как в газете «The New York Times» их использование направлено главным образом на привлечение внимания читателей и усиление воздействия. Результаты исследования показывают значительные различия в стилистических подходах и лингвистических стратегиях между этими двумя газетами. Также в данной статье подчеркивается необходимость проведения ряда научных исследований для дальнейшего изучения роли и значения выразительных средств. Рекомендации по проведению исследований на основе этих результатов также даны в нашей статье. Это дает возможность проводить глубокий научный анализ выразительных методов и стилистических средств на национальном и международном уровне.

Ключевые слова: Пресса США и Узбекистана, выразительные средства, образность, эмоциональность, зугма, сарказм, оксюморон.

INGLIZ VA O’ZBEK TILLARIDAGI GAZETA MATNLARIDA EKSPRESSIVLIKNI TA’MINLOVCHI VOSITALAR

Annotatsiya

Mazkur maqola O‘zbekistonda chop etiladigan “O‘zbekiston Ovozi” va AQShning “The New York Times” gazetalari misolida stilistik vositalardan – zugma, sarkazm va oksimaron usullarining qo‘llanilishini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Ushbu usullarning gazeta matnlarida ekspressivlikni va ifoda kuchini oshirish, o’quvchilarni qiziqtirish va kommunikativ maqsadlarga erishishdagi vazifalari keng o‘rganiladi. “O‘zbekiston Ovozi” gazetasida sarkazm, oksimoron va zugmalar milliy madaniyatga xos an’analarga tayangan holda qo‘llanilsa, “The New York Times” gazetasida ularning qo‘llanilishi ko‘proq o‘quvchi e’tiborini tortish va ta’sirchanlikni oshirishga yo‘naltirilgan. Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra, ingliz va o’zbek tillardagi gazetalar orasidagi lingvistik, stilistik va psixologik yondashuvlar yuzasidan o’xshash va farqli jihatlar aniqlangan. Shuningdek, mazkur maqola, ekspressiv vositalarning o’rni va ahamiyatini yanada chuqurroq o‘rganish uchun bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligini ta’kidlaydi. Maqolamiz mobaynida ushbu natijalarga muvofiq tadqiqotlar uchun tavsiyalar ham berib o’tilgan. Bu esa milliy hamda xalqaro darajadagi ekspressiv usullar va stilistik vositalar yuzasidan chuqur ilmiy tahlillarni amalga oshirishga imkon yaratadi.

Kalit so’zlar: AQSH va O’zbekiston matbuoti, ekspressiv vositalar, tasviriylik, emotsionallik, intensivlik, zugma, sarkazm, oksimaron.

Kirish. Jurnalistika tili har doim axborot yetkazishda asosiy vosita hisoblangan. Gazeta tili esa jurnalistika tili ichida alohida o‘rin tutadi, chunki u keng ommaga axborotni tezkor va samarali yetkazish imkoniyatini beradi. Bu imkoniyatlarni amalga oshirishda ekspressiv usullar gazeta matnlarining ta’sirchanligini kuchaytirib, o’quvchi bilan tezkor va samarali aloqa o’rnatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ekspressiv usullar sirasiga kiruvchi zugma, sarkazm va oksimaronlardan foydalanish matnlarni ta’sirchanligini yanada oshirib, matnni estetik jihatidan boyitadi. Bu orqali o’quvchi e’tibori jalb qilinadi hamda axborotni samarali yetkazish imkoniyatiga erishiladi[1]. Bugungi globallashuv sharoitida

turli madaniyatlar va tillar o‘rtasidagi tafovutlarni inobatga olgan holda, ta’sirchanlikni oshiruvchi omillarning milliy va madaniy xususiyatlari o‘quvchining qabul qilish jarayonida katta rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada O‘zbekiston va AQSh gazetalarida zugma, sarkazm va oksimoron kabi stilistik vositalarning o‘ziga xos xususiyatlari hamda ularning gazeta matnlarida emotsionallikni oshirishdagi tutgan o’rni tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Zamonaviy tilshunoslikning hozirgi bosqichida gazeta tili va uslubiga bo’lgan e’tibor kundan-kunga ortib bormoqda, sababi gazeta tilida nutqdagi turli xil o’zgarishlar tezda aks etadi. Gazeta matnlarini ekspressivlashtirish jurnalistlarning o’quvchilar bilan yanada kuchliroq aloqada bo’lish, ularning axborotni qabul qilish qobiliyatiga moslashish va o’quvchi bilan zarur munosabatni shakllantirishga intilishidan kelib chiqadi[2]. Fikrni ifoda etish usullarining erkinligi va kutilmaganligi matn mazmunining ravshanligi va ta’sirchanligini oshiradi. Shu sababli, gazeta tili va uslubining individualligi mazmunni yanada samarali yetkazishga xizmat qiladi.

Ekspressivlikni amalga oshiruvchi komponentlarning tarkibi turlicha bo’lishi mumkin. Bu tarkibga hissiylik, baholanish[3], kuchaytirish[4], tasviriylik, emotsionallik va intensivlik[5] kiradi. Matnda ekspressiv leksik birliklarning ma’nolari turli kombinatsiyalarda ko’zga tashlanishi mumkin, bu esa matnning ekspressivligi va ta’sirchanligini oshiradi. Maqolamizda asosan, ekspressiv vositalardan: zugma, sarkazm hamda oksimaronlarga asosiy e’tiborimizni qaratdik. Xususan, zugma bo’yicha ko’plab tadqiqotlar olib borilgan bo’lib, D.Crystal zugmani quyidagicha tushuntiradi: “Zugma - bu bitta so‘zdan foydalanib, ikki xil so‘zni ikki xil usulda almashtirish uchun qo‘llanadigan adabiy atama”[6].

J.Du-Moganing fikriga ko‘ra, bitta so‘z ikki fikrni bog‘laganda, zugma qo‘llaniladi. Zugma syllepsidan ajratilishi kerak. Zugmada faqat ikki fikrdan biri ma’noda yoki grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi kerak[7]. Zugma fe’l yoki sifat ikki yoki undan ortiq otni o‘zgartirganda qo‘llaniladi. Bunday hollarda, so‘z boshqa so‘zlar bilan turli usullarda bog‘lanadi[8].

Tadqiqotimizda aks ettirayotgan stilistik usullardan: sarkazm va oksimaronlar haqida ham qator tadqiqotlarda so’z yuritilgan. Unga ko‘ra, bu vositalar matnning estetik va hissiy ta’sirchanligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Stilistika sohasidagi olimlar oksimoron va sarkazm vositalarini tahlil qilar ekan, ularning o‘quvchiga yetkazmoqchi bo‘lgan fikrini ta’kidlab berish va o‘quvchining diqqatini jalb etishdagi rolini alohida qayd etadilar. Masalan, Leech va Levinson kabi olimlar oksimoron va kinoya vositalarining lingvistik jihatdan murakkabligini ta’kidlab, ularning o‘quvchi ongida kuchli ta’sir qoldirishini qayd etadilar[9]. Bu stilistik vositalar, ayniqsa, jurnalistik matnlarda qo‘llanganda, nafaqat matnning badiiy-estetik qiymatini, balki uning axborot yetkazishdagi samaradorligini ham ta’minlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida O‘zbekiston va AQSh gazetalarining stilistik tahlili amalga oshirildi. Maqola tahlili uchun “O‘zbekiston Ovozi” va “The New York Times” gazetalari tanlab olindi, ularning maqolalari o‘rganildi va undagi zugma, oksimaron va sarkazm usullari tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida ekspressiv vositalarni tavsiflash, taqqoslash, kontekstual tahlil, hamda kontent tahlili usullaridan foydalanildi. Shuningdek, metodologik yondashuvlardan kelib chiqib, ekspressiv vositalarning matndagi o’rni va ta’siri hamda ularni ifodalash uchun qo’llanilgan konseptual birliklarni aniqlash uchun kognitiv tahlil usuli ham qo’llanildi. Kommunikativ maqsadlarga erishish yo’llari hamda axborotning inson ongida qanday tasvirlar paydo qilishini o’rganuvchi ushbu tahlil usuli gazeta matnlaridagi ekspressiv vositalarning semantik va pragmatik jihatlarini ham aniqlab, ushbu vositalar orqali yetkazilayotgan ma’noni qanday qabul qilishni aniqlashga imkon beradi.

Natijada, gazeta matnlaridagi o‘quvchiga ta’sir ko‘rsatish strategiyalari va ularning samaradorligi haqida muhim xulosalar chiqariladi.

Tahlil va natijalar. Tahlil natijalariga ko’ra, AQSH bosma nashri hisoblangan “The New York Times” gazetasida zugma, oksimoron va sarkazm usullari ko‘proq badiiylik va emotsionallikni oshirish uchun ishlatiladi. Ayniqsa, yangiliklar sarlavhalarida ushbu vositalardan keng foydalanilgan bo‘lib, ular o‘quvchining diqqatini o‘ziga tortish va uni maqolani o‘qishga undash vazifasini bajaradi[10]. Misol sifatida “The New York Times” gazetasining siyosiy yangiliklarida ishlatilgan oksimoron va zugmalarni keltirish mumkin. “He stole my wallet and my peace of mind”. (The New York Times, 2020, №20) Bu yerda “stole” (o’g’irladi) fe’li moddiy obyekt “wallet” (hamyon) va nomoddiy obyekt “peace of mind” (xotirjamlik) bilan bog’langan. Bu yerda zugma o’quvchida insonning jismoniy narsasini va hissiy xotirjamligini bir xil darajada yo’qotishini tasvirlaydi. “Ah, the brilliance of this new policy is truly unparalleled. It’s almost as if they wanted to create more problems just to keep themselves busy”. (“The New York Times”, 2018. №5). Bu yerda sarkazm ishlatilgan, chunki yozilgan so‘zlarning yuzaki ma’nosi ijobiy bo‘lsa-da, aslida salbiy ma’no anglatadi va siyosatning foydasizligini ochib beradi.

“The victory was bittersweet, as it came at the cost of many lives.” (“The New York Times”, 2023. №18). Bu gapdagi oksimoron voqea yoki hodisaning ijobiy va salbiy tomonlarini bir vaqtda ifodalaydi.

Shuningdek, gazeta matnlarida kesatiqni ifodalash uchun turli usullar qo‘llaniladi. Bu usullar orqali mualliflar tanqidni yumshoqroq va ta’sirchanroq qilib yetkazishga harakat qiladilar. Quyida “The New York Times” va “O’zbekiston Ovozi” gazetalaridan kesatiq va pichingni ifodalashga misollar keltirilgan: “In a bold move to save money, the city council decided to cut the school budget. Clearly, education isn’t as important as those new decorative fountains downtown”. (“The New York Times”, 2022. №18). Bu yerda maktab byudjetining qisqarishi va favvoralar uchun ko‘proq mablag‘ ajratilishining nohaqligini ta’kidlash uchun kesatiq ishlatilgan.

“Shahar hokimi so‘nggi loyihasini nihoyatda muvaffaqiyatli deb atadi. Shunday bo‘lsa-da, yo‘llarning holati va jamoat transporti haqida gapirilmagani ajablanarli emas”. (“O’zbekiston ovozi”, 2021. №33) Ushbu misolda ham kesatiq ishlatilgan bo’lib, hokimning loyihani muvaffaqiyatli deb atashi va boshqa muammolarning e’tibordan chetda qolishi tanqid qilinmoqda.

Yuqoridagi misollar va tahlillar gazeta matnlarida kesatiq va pichingni qanday ishlatish mumkinligini ko‘rsatadi. Bu usullar orqali mualliflar o‘quvchilarga o‘z nuqtai nazarlarini ta’sirli tarzda yetkazadilar.

“O‘zbekiston Ovozi” gazetasida esa oksimoron va zugma vositalari ko‘proq milliy madaniyat va an’analarga mos ravishda, sodda va an’anaviy uslubda qo‘llaniladi.

Bu gazeta maqolalarida bunday stilistik vositalar ko‘pincha milliy o‘ziga xoslikni ta’kidlash, tarixiy yodgorliklar yoki milliy qahramonlar haqida so‘z yuritishda ishlatiladi. Misol uchun, “O‘zbekiston Ovozi” gazetasi sarlavhalarida va matnlarida oksimoronlar milliy ifodalar bilan uyg‘unlashgan holda qo‘llanilib, matnning milliylik ruhini oshirishga xizmat qiladi. “Yangi yil dasturxonida bolalar shodligi va mevalar to’lib toshdi.” (“O’zbekiston ovozi”, 2016. №28).

Ushbu misolda “to’lib toshdi” fe’li ikki gap bo’lagiga bog’langan: “bolalar shodligi” va “mevalar”. Birinchi holda “to’lib toshdi” ma’nosi metaforik bo’lib, bolalar shodligi ko’pligini ifodalaydi, ikkinchi holda esa “mevalar to’lib

toshdi” an’anaviy ma’noda, ya’ni dasturxon mevalarga boy ekanligini bildiradi. Ushbu zugma o‘quvchining e’tiborini tortadi va ifodaning ta’sirchanligini oshiradi. Birgina gap orqali ikkita turli ma’noni birlashtirgan holda bayram kayfiyatini yorqin va esda qolarli tarzda yetkazadi.

“Boshqaruvchilarimiz innovatsiyalarni qo’llab-quvvatlashda juda muvaffaqiyatli: ular yangi texnologiyalar o’rniga, eskilarini yangilashni afzal ko’rishmoqda”. (“O’zbekiston ovozi”, 2016, №20) Bu jumla boshqaruvchilarni maqtash kabi ko’rinadi, lekin aslida ularni ortda qolgan va zamon talablariga javob bermaydiganligi bilan tanqid qiladi.

Shirin dard meni ko’p narsalarni qayta ko’rib chiqishga majbur qildi”. (“O’zbekiston ovozi”, 2023, №22) Ushbu gapdagi oksimoron insonga baxt va azobni bir vaqtda his qilishni ifodalaydi.

Xulosa va takliflar. Gazeta tili kommunikativ vazifalarni bajarishda ekspressiv usullardan samarali foydalanadi va shu orqali o‘quvchi e’tiborini jalb qiladi. Ushbu maqola tahlili shuni ko‘rsatdiki, oksimoron va zugma usullari gazeta matnlarida o‘ziga xos stilistik va ekspressiv rol o‘ynaydi. “The New York Times” gazetasida bu usullar ko‘proq siyosiy va ijtimoiy mavzularni yoritishda, matnga badiiy va emotsional ta’sir berish uchun ishlatilsa, “O‘zbekiston Ovozi” gazetasida ular milliy an’analarga mos ravishda qo‘llanilib, milliy madaniyatni aks ettirish vazifasini bajaradi.

Xulosa qiladigan bo’lsak, The New York Times va O’zbekiston Ovozi gazetalarida ekspressivlikni oshirish usullari ko’pincha uslub va maqsadga qarab farqlanadi. The New York Times sarkazm va oksimoronlardan faol foydalanib, o’quvchini o’ylashga va munosabat bildirishga majbur qiladi. Zugma bu gazeta uchun keng tarqalgan stilistik usul hisoblanadi, chunki u matnga hazil va kreativlik qo’shadi. O’zbekiston Ovozi esa rasmiy uslubga ega bo’lib, sarkazm va zugmalarni kamroq qo’llaydi, lekin oksimoronlarni ba’zan emotsional ta’sirni kuchaytirish uchun ishlatadi. Shu bilan birga, ikki gazeta o’rtasidagi farqlar asosan uslub va ifoda vositalarining qo’llanishida ko’rinadi.

Ushbu usullarni to’g’ri va mohirona qo’llash gazetalar matnlarining o’qilishi va ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda ekspressiv vositalarning milliy va madaniyatga xos xususiyatlarini yanada mukammalroq tadqiq etish va boshqa gzetalarning turlarini ham qo’shish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, keyingi ishlarda gazetalarning internet versiyalarida ham aynan ekspressiv vositalarning o’rni va ro’lini o’rganish muhimdir, sababi, elektron matbuotning tili va stilistikasi biz o’rgangan bosma nashrlardan farq qilishi mumkin. Yuqoridagi vazifalarni chuqurroq o’rganish orqali hissiy ta’sir etuvchi stilistik vositalarning zamonaviy matbuotdagi rolini yanada to’liqroq ifoda etish imkoniga ega bo’lamiz.

ADABIYOTLAR

1. Москвин В. П. Выразительные средства современной русской речи, тропы и фигуры. Терминологический словарь. -М.: Феникс, 2007. -С. 867.
2. Язык СМИ как объект междисциплинарного исследования Часть 2. -М.: Из-во Моск. ун-та, 2004. -С. 285.
3. Телия В. Н. Экспрессивность / В. Н. Телия // Русский язык : энциклопедия. М.: 1979. -С. 637-638.
4. Матвеева Т.В. Учебный словарь: русский язык, культура речи, стилистика, риторика / Т.В. Матвеева. - Екатеринбург: Издательство Уральского Университета, 2003.С. 404.
5. Лукьянова Н.А. Экспрессивная лексика разговорного употребления. Проблемы семантики : учеб. пособие. — Новосибирск : Наука, Сиб. отделение, 1986. -С. 43. 230 с.
6. Crystal, D., Davy D. Investigating English Style. Bloomington: Indiana University Press, 1986, 280 p.
7. Du-Mo, J. The Difference between Zeugma and syllepsis. US-China Foreign Language, 2006, pp.28-31
8. Fahnestock, J. Rhetorical Style: The Uses of Language in Persuasion, New York: Oxford University Press, 2011, pp: 174-183.
9. Smith, J. Understanding Sarcasm and Irony: A Comprehensive Study. New York: Academic Press. 2018.
10. Grice, H. P. “Logic and Conversation.” In Syntax and Semantics: Speech Acts. Ed. Peter Cole and Jerry L. Morgan. New York: Academic Press. 1975.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/10]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 81-23.: 372.8.

Vazira HAMIDOVA,
Tashkent State University of Oriental Studies, Department of Translation Studies, Linguistics and International Journalism PhD student.
E-mail: vazira.xamidova123@gmail.com

TDSHU dotsenti (DSc) D.Akhmedova taqrizi asosida

ON THE THEMATIC CLASSIFICATION OF LEXEMAS RELATING TO NUMERATIVE WORDS IN PERSIAN LANGUAGE

Annotation

Language, as a product of activity, is a progressive criterion, a certain historical norm, passing from century to century, keeping pace with the development of society. Almost no scientific research has been carried out in the Uzbek language on the subject of counting words in the Persian language. The created scientific literature on the Persian language is also in Russian and English, and they mainly analyze the grammar and lexicology of the Persian language. In this article, the issues of thematic classification of lexemes related to calculation words in Persian are analyzed. Such studies are important in determining the extent to which account words are studied in Iranian linguistics, and the appropriate use of account words.

Key words: Counting words, numeratives, measuring words, classification of counting words, universal, Iranian linguists.

О ТЕМАТИЧЕСКОЙ КЛАССИФИКАЦИИ ЛЕКСЕМ, ОТНОСЯЩИХСЯ К ЧИСЛОВЫМ СЛОВАМ В ПЕРСИДСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

Язык, как продукт деятельности, является прогрессивным критерием, определенной исторической нормой, переходящей из века в век, идущей в ногу с развитием общества. Научных исследований на узбекском языке по теме счета слов в персидском языке практически не проводилось. Созданная научная литература по персидскому языку есть также на русском и английском языках, и в основном они посвящены анализу грамматики и лексикологии персидского языка. В данной статье анализируются вопросы тематической классификации лексем, относящихся к счетным словам в персидском языке. Такие исследования важны для определения степени изучения счетных слов в иранской лингвистике и надлежащего использования счетных слов.

Ключевые слова: Счетные слова, числительные, измерительные слова, классификация счетных слов, универсальные, иранские лингвисты.

FORS TILIDAGI SON SO‘ZLARGA TUSHGAN LEKSEMALARNING MAVZUIY TASNIFI HAQIDA

Annotatsiya

Til faoliyat mahsuli sifatida asrdan-asrga o‘tib boruvchi, jamiyat taraqqiyoti bilan hamnafas bo‘ladigan ilg‘or mezon, ma’lum tarixiy me’yordir. Fors tilida so‘z sanash mavzusiga oid o‘zbek tilida ilmiy tadqiqotlar deyarli amalga oshirilmagan. Fors tili bo‘yicha yaratilgan ilmiy adabiyotlar ham rus va ingliz tillarida bo‘lib, ular asosan fors tili grammatikasi va leksikologiyasi tahliliga bag‘ishlangan. Bu maqolada fors tilidagi sanoq so‘zlariga oid leksemalarning mavzuiy tasnifi masalalari tahlil qilingan. Eron tilshunosligida sanoq so‘zlarini o‘rganish darajasi va sanoq so‘zlarining to‘g‘ri qo‘llanilishini aniqlashda bunday tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Sanoq so‘zlari, sonlar, o‘lchov so‘zlari, sanoq so‘zlarining tasnifi, universal, eron tilshunoslari.

Introduction. Since ancient times, various containers or other measuring instruments were used to measure objects. Some of them are either not used at all as a measuring tool in today's language, or the scope of their use has narrowed and become passive. People categorize all things in the world according to the number of each. This is done in order to make a language easy, beautiful and unique. By dividing into categories, the use of words that are compatible with the object to be said is determined. Count words are used to count concrete nouns along with count words (and can sometimes be used with abstract nouns as well). For example, a person, an animal, a place, etc [2].

Literature review. Numerical words are added almost exclusively in the language of written sources of the XV-XIX centuries. The use of numerical words in the language of the written sources of this period expanded compared to the language of ancient Turkic and written sources of the XI-XIV centuries. In the old Uzbek language, numerical words had different meanings, depending on the nature of the words. Numerical words are used between words being defined by numbers, providing an additional level of precision compared to the defined word. Numerical words also mean a number of meanings, such as share, quantity, volume, unit of measure, distance, group, unit of measure, group, piece. Numeratives are counting words that come before numbers or actions, because they represent a quantity of a certain action in a certain sense loss means a partial amount.

Words that are used with quantitative numbers and express the concept of an indefinite amount are called counting words (numeratives): five soums, ten grams, one hundred years. Such words belong to the group of nouns and have partially lost their lexical meanings and have become indefinite expressions. These words come between the words that express the object that can be counted with a countable number, and indicate their measurement according to their weight, length, size, shape signs and other similar characteristics. Counting words are used depending on how the subject is counted. The types of counting words used in

Iranians are based on the way of thinking of the people who use them in daily life. All the words are used with different specific adverbs in the presence of sentences and word combinations according to their content and their physical qualities and characteristics.

A lot of research has been carried out on the words of account, and during the research it was expected that they will be called by names such as numeratives, classifiers, measuring words, quantatives.

It is assumed that the number system was created to reflect practical activities in human thought and speech, for example, to determine and compare the quantity of goods in exchange or sales transactions. The account was not abstract, but was connected to a certain group of objects with certain properties: mass, weight, production material. The need to compute based on different properties can lead to different ways of computing different classes or groups of objects in natural languages. Thus, a separate class of lexemes - number words, classifiers or number determiners - appeared. Over time, the role of numerals in different languages of the world has strengthened or weakened. This causes translation problems when transferring classifiers in the target language due to the high probability of lacunarity with respect to the original language.

Research Methodology. Numeratives or classifiers are used with nouns in the lexical-grammatical category of words - syntactic lexemes or morphemes - quantitative construction. In Russian, they are close to lexemes such as shtuka, para, bosh. Linguists do not agree whether the terms "numerative" (classifier) and "countable word" can be defined or not. As V. A. Vinogradov noted, "functionally, the counting words of European languages (such as "piece", "pair") are similar to classifiers, but they are optional in the language and are not related to classification. Therefore, not all counting words can be considered numerative, but not vice versa. It is also wrong to classify nominal classes as numeratives (classifiers), they are "pure grammatical elements, incapable of independent use and obligatory in the composition of nouns and / or words corresponding to them" [1] .

Analysis and results. Iranian scientist Y.A. Rubinchik expressed the following opinion about the words of calculation: Together with numbers, counting words (numeratives) are sometimes used. The most common of them are: nfr in counting people and tấtā in counting inanimate objects; jftjoft in counting even objects; ras ras "head" when counting animals; dstgāh dastgāh "apparatus" is used to count hardware, machine tools, and dạnh done "piece" is used to count inanimate objects (books, pens, pens, chairs, tables), etc [4]. Numeratives are common in Persian. Iranologist A. Estaji distinguishes several subgroups of Persian counting words:

1) literary words denoting units of measurement (liter, gram, hour, degree): sh کیلو از آرد[se kilu äz ard] – three kilograms of flour;

2) words of quantitative counting: nouns with the semantic root "vessel", for example: bottle, bottle, barrel, container, etc.

3) numbered classifying words (classifiers) - a special group of words that must be used in the composition of quantitative construction: پنج قلاده sg[panj qalade sag] - three [pieces] of dogs;

4) words considered as a group, which include nouns denoting a certain quantitative combination of a certain number of nouns - squad, flock, herd, etc [3].

Iranian linguists have classified Persian counting words in different thematic categories. It has been observed that the words of account in Persian are called واحد شمارش عد شمارش.

During the research, we considered the thematic classification of lexemes related to calculation words in Persian.

In Persian, counting words have the following forms, depending on how they are used in relation to persons, objects and events:

1. تا - this counting word corresponds to the suffix ta in Uzbek language, it is used for animate and inanimate objects.

پنج تا میز – five tables

دو تا بچه- two children

2. دانه - piece This counting word is used for all items that can be counted in pieces:

پنج دانه سیب – five apples

سه دانه مداد- three pencils

3. نفر and تن are used in relation to people:

پنج نفر دانشجو – five students

سه نفر دختر– three girls

4. راس - the word of account is used in relation to domestic animals:

دو راس گاو- two cows

ده راس گوسفند- ten sheep

5. دست - the word account is used for items that have the appearance of clothes or a set (for example, furniture):

یک دست کت و شلوار- one suit-trousers

سه دست مبل آشپزخانه- three sets of kitchen furniture

6. The word جلد - jeld, tom account is used for books:

دو جلد کتاب - two-volume book

6. فروند- the word count is used for ships, planes:

دو فروند کشتی- two ships

سه فروند هواپیما– three planes

7. دستگاه- the word account is used for cars, machines, etc.:

دو دستگاه اتومبیل سواری- two cars

8. باب- the word account is used for housing and buildings:

دو باب خانه- two houses

9. جفت- the word double count is used for even objects:

یک جفت کفش– a pair of shoes

Among the above counting words, the counting word "تا " has a universal character and can be used in relation to all objects and events, except for words denoting numbers.

In addition, the following counting words can also be found in Persian:

اسله – for counting trees, brg – for paper and cover, بند – for a stack of paper, پارک – for a village, پرس – for food, پیماند – for liquid, تار – for hair, تخت – carpet, for rpacha, جام – for swelling and glass, جراح – for water and liquid, جریب – for land-property area unit, جعب/ بست/حارتون – packaged things, jyn – for package, حب – for pills, حلقه – for rings, خوشه - for grapes, dates, salt - for medicines, دوم - for property, land, dst - for furniture, dishes, clothes, cravat, dsth - for flowers.

Conclusion. Summary words are important both in colloquial speech and in professional speech. The tendency to ignore number determiners in oral speech is probably related to the need to make the expression of the meaning of the sentence more compact and concise in speech. The group of classifiers in the Persian language is wider than in the Uzbek language. Iranian scholars have divided Iranians into groups based on their culture and way of life. In Persian, the words of account are widely used. Therefore, in linguistics, the study of Persian counting words is of great importance.

LITERATURE

1. Виноградов В. А. Классификаторы // Лингвистический энциклопедический словарь / гл. ред. В. Н. Ярцева. М.: Советская энциклопедия, 1990
2. Ernazarov R. Numerativ so'zlar va ularni o'qitishda klaster metodidan foydalanish // Til, ta’lim, tarjima, 2022. – №2. – B. 115-123.
3. Эстаджи А. Анализ счетных слов в персидском языке // Языкознание и диалект Хорасана. No 1. Мешхед, 2010.
4. Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. М.: “Восточная литература”, 2001. – 190 с.
5. Захраи С. Х., Пулаки П., Бейги М. Анализ системы счетных слов в персидском языке в сопоставлении с русским языком // Вестник Московского государственного областного университета (МГОУ). Серия: Лингвистика. 2015. № 4. С.184–190.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/10]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UO‘K:809:398:22

Mohigul HOSHIMOVA,
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: hoshimovamohigul6@gmail.com

O‘z-Fin pedagogika instituti katta o‘qituvchisi, PhD F.Buriyeva taqrizi asosida

DOSTON JANRINING XIX-XX ASRLARDAGI KO‘RINISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Sharq mumtoz poetikasi uchun an’anaga aylanib qolgan doston janri va uning shakllanishi, takomili va XIX-XX asrlar ijodkorlarining ijodida qay darajada jilolanganligi masalasi tadqiq etilgan. Ushbu janrning boshqa asrlardagiga qaranganda qanday o‘zgarishga uchragani va kimlar tomonidan qalamga olinganda alohida jihatlari ko‘zga tashlangani, mumtoz an’analar bilan bir qatorda qanday yangiliklarga uchragani ko‘rib chiqilgan. Ushbu davr dostonchiligi oldida turgan muammolarni qanday yechish mumkinligi mushohada etilgan. XIX-XX asrlarda kimlarning ijodida doston janri o‘zining rivojlanish cho‘qqisiga ko‘tarilganligi, ulardagi novatorlik mazmun va shakliga qay darajada ta’sir etganligi kabi masalalar qalamga olingan.

Kalit so‘zlar: Doston janri, badiiy san’atlar, an’ana va novatorlik, davr qahramoni, personaj, mumtoz qadriyatlar, estetik ta’sir.

ПОЯВЛЕНИЕ ЭПИЧЕСКОГО ЖАНРА В XIX-XX ВЕКАХ

Аннотация

В данной статье исследуется жанр эпоса, ставший традиционным для восточной классической поэтики, его становление, совершенствование, а также то, насколько он отшлифовался в творчестве творцов XIX-XX веков. Рассмотрено, как изменился этот жанр по сравнению с другими веками, когда и кем он был написан, выделены его особенности, наряду с классическими традициями, какие новшества были внесены. Наблюдается, как решать проблемы, стоящие перед эпосом этого периода. В XIX и XX веках жанр эпоса достиг своего пика развития, и в какой степени их новаторство повлияло на его содержание и форму.

Ключевые слова: Эпический жанр, изобразительное искусство, традиция и новаторство, герой эпохи, персонаж, классические ценности, эстетический эффект.

APPEARANCE OF THE EPIC GENRE IN THE XIX-XX CENTURIES

Annotation

In this article, the genre of the epic, which has become a tradition for Eastern classical poetics, and its formation, improvement, and the extent to which it was polished in the work of the creators of the XIX-XX centuries are studied. It has been considered how this genre has changed compared to other centuries, and when it was written by whom, special aspects were highlighted, along with classical traditions, what innovations were made. It is observed how to solve the problems facing the epic of this period. In the 19th and 20th centuries, the genre of the epic reached its peak of development, and to what extent their innovation influenced its content and form.

Key words: Epic genre, fine arts, tradition and innovation, hero of the era, character, classical values, aesthetic effect.

Kirish. Millatimizning milliy orini, g‘ururini yuksaltirishda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda, Ayniqsa, bu borada mumtoz adabiyotning o‘rni va ahamiyati beqiyos. Muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev adabiyotning beqiyos kuchi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi:“Adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko‘rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan fordalanish kerak”[1].

O‘zbek mumtoz dostonchiligi o‘zining ko‘p asrlik tarixi va an’analariga ega. Ushbu an’anaviylik xususiyatlari ularning, asosan, aruz vaznida va masnaviy shaklida yaratilgani bilan bog‘liq. O‘zbek adabiyoti badiiyati takomilida janrlarning rivojlanish masalasi hamisha ahamiyat berilishi lozim jarayon sifatida e’tirof etilib kelingan. Mazmun jihatidan esa, ular ma’rifiy, axloqiy, diniy-falsafiy, tasavvufiy mavzularda yozilgan. Ushbu an’analar XIX-XX asrlar dostonchiligida ham o‘ziga xos davom ettirildi. Buning natijasida davr dostonchiligida bir qator yangicha yo‘nalishdagi dostonlar yaratildi. Chunki, ushbu davr dostonnavisligi oldida ikki yo‘l bo‘lib; bular an’anaviy, noan’anaviy yo‘nalishlardir. Ushbu davrda yaratilgan dostonlarga ahamiyat berib qarasak, ularda ham novatorlik, ham an’anaviylik unsurlari ufurib turibdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ko‘p asrlik adabiyotimizning tarixiy taraqqiyot yo‘lida XIX-XX asrlar adabiyoti alohida diqqatga sazovor. Bu davrdagi adabiyotning xarakterli jihati shundaki, u klassik adabiyotimizning so‘nggi bosqichi bo‘lishi bilan birga, kishilik badiiy ijodi taraqqiyotining yangi bosqichi bilan chambarchas bog‘liqdir[3]. Tabibiy to‘g‘risidagi dastlabki ma’lumotlar A.N.Samaylovich tomonidan berilgan bo‘lib, tadqiqotchi o‘zining Xivaga qilgan ekspeditsiyasi orqali amalga oshirilgan ilmiy izlanishlari natijasida amalga oshirilgan. Shundan so‘ng yana bir qator adabiyotshunoslar: Laffasiy “Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimai hollari”, Abdulla Boltayev , Rahmat Majidiy “O‘zbek adabiyoti”, M. Yunusov “Komil Xorazmiy”, V. Mirzayev “Avaz O‘tar o‘g‘li”, K.Karimov “O‘zbek adabiyoti tarixi” nomli asarlarida Tabibiyning boy adabiy merosi haqida ma’lumot beradi[3].

Tadqiqot metodologiyasi. Adabiyot kecha yoki bugun paydo bo‘lib qolgan tushuncha emas, u asrlardan buyon xalqimiz bilan birga yashab, birga taraqqiy etib kelayotgan buyuk bir qadriyatdir. Inson dunyoga kelgan kunidan boshlab,

to hayotining eng so‘nggi lahzasigacha o‘zi mansub xalqning qadriyatlari, an’analari ichida ulg‘ayadi, kamol topadi. Eng avvalo, “Doston” termini haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, ”Doston-tarix, qissa, hikoya, afsona, roman”[4] degan ma’nolarda keladi.

Davr adabiy hayotining rang-barang ko‘rinishini ifodalab beruvchi janrlardan biri bo‘lgan doston janrida bir qancha ijodkorlar XIX-XX asr voqealarini o‘zlarining qalamlariga olganlar. Sayqaliy, Miriy, Furqat, Uvaysiy, Xiromiy, Tabibiylar ijodida mumtoz adabiyot an’analari hamda yangi davr adabiyotiga xos tamoyillar asosida yaratilgan ijod namunalari o‘ziga xos badiiy qimmatga ega. Ular o‘z dostonlarida muhabbat, odamiylik, ezgulik, ma’rifat, xalqchillik kabi barhayot mavzularni ilgari surishgan. Ular ijodidagi an’anaviylik faqatgina janr xususiyatlari ya’ni, vazn, qofiya va badiiy san’atlarni qo‘llashda emas, balki poetik g‘oyani ifodalashdagi an’anaviylik ramzlar vositasida ifodalashda ham ko‘rinadi. Bu davr dostonnavislarining yelkasida ikki baravar og‘ir yuk turgan. Birinchidan, o‘sha davr ziddiyatlarini real ochib berish, ikkinchidan, mumtoz adabiyot vakillari ijodidan bahra olgan holda ularga hamohang ruhda asar yozish zarurligini taqozo etadi. Zero, ” Navoiy ijodini o‘rganish davomida salaflar ijodi bilan mushtarak ko‘ringan jihatlarini yoritishga harakat kitobxonlarning Sharq adabiyoti haqidagi bilimlarni kengaytirishga ko‘maklashadi”[6]. Yuqorida tilga olingan dostonnavislardan biri Tabibiy ijodida doston janrining jilvalarini ko‘rib chiqamiz. Ahmad Tabibiy XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Xivada yashab ijod etgan sermahsul shoirlardandir. Tabibiy Sharqda mashhur “Vomiq va Azro” ning o‘zbekcha she’riy variantini ishlagan. “Yetti ravza” dostonini yaratdi [8]. Tabibiy ma’rifatparlik sohasida o‘z salaflarining adabiy merosi ijodidan unumli foydalangan, ya’ni Navoiy va Fuzuliyning buyuk insonparvarlik g‘oyasini o‘z ijodida aks ettirdi. Shoir o‘z davrida insonlar mehnatining qanchalik beqadrligidan afsuslansa, ilm-ma’rifat egalarining ham shunchalik beqadrligidan afsuslangan. Har qanday badiiy asarning jozibador etib ko‘rsatuvchi so’nmas va eskirmaydigan ishq-muhabbat mavzusi Tabibiy ijodida ham o‘zining jilolarini ko‘rsatib bergan. U oshiq va ma’shuq orqali o‘zining idealidagi shaxsni gavdalantiradi.

Navoiy ijodi Tabibiy va unga zamondosh dostonnavislar uchun katta bir maktab bo‘lgan.Navoiyga mos izdosh bo‘lishga bor salohiyatini ishga solib ijod qilganlar. “Vomiq va Azro” dostoni Sharqda keng tarqalgan asarlardan biridir. U “Yusuf va Zulayho”, “Tohir va Zuhro”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” dostonlari singari juda ko‘p shoirlar tomonidan yozilgan[8]. Ularning har biri sujet va g‘oya jihatidan ayrim originallikka ega asarlardir. Bu mavzuda qanchadan-qancha shoir va dostonnavislar o‘zlarining g‘azallarida va dostonlarida yorning go‘zalligini Azroga, oshiqning qahramonligini esa Vomiqga o‘xshatganlar,ularning nomini qayta-qayta tilga olganlar. “Vomiq va Azro” mavzu jihatidan ishqiy-romantik doston turiga kiradi. Unda do‘stlik, chin muhabbat, ilm va hunarga hurmat, mardlik va qahramonlik, haqiqat va adolatni ulug‘lash kabi masalalar kuylanadi. Shuningdek, xalqning ozodlik, adolatli shoh va markazlashgan davlat tuzish haqidagi orzulari tarannum etiladi. Shoir o‘z asarini yaratishda xalq og‘zaki ijodidan unumli foydalangan. Xalq orasida mavjud bo‘lgan Azro va Vomiq haqidagi afsonalar dostonga asosiy mavzu qilib olingan.buni shoirning quyidagi so‘zlaridan bilib olishimiz mumkin:

Hamulkim yetkurur so‘zdin bashorat,
Qilur maqsad sari mundoq ishorat.
Ki haml olg‘och Nigorini Gulandom,
Yetushdi muddati hamlig‘a itmom

Asar hamd va na’tdan boshlanadi. Dostonda voqea Bahromning tug‘ilishi bilan boshlanadi. O‘quvchi dostonning boshlanishidanoq uni shu nomdagi boshqa dostonlardan farqlab oladi.

Vomiq obrazi dostonda ma’lum dinamikaga ega, ya’ni voqealar rivojlanishi bilan bir qatorda Vomiqning xarakteri ham o‘sa boradi. Yozuvchining Vomiq obrazini tasvirlashda erishgan katta muvaffaqiyati shundan iboratki, Vomiqning butun faoliyati, ajoyib xislatlari uning xarakteridan kelib chiqadi.Bu narsa o‘z navbatida, asarning realistik kuchini oshiradi. Mamlakat ham iqtisodiy, ham siyosiy qiyinchilikka uchragan bir davrda Tabibiy o‘z qahramoni orqali og‘ir va mashaqqatli hayot og‘ushida ezilib yotgan millionlarcha xalqning ko‘nglida jo‘sh urgan eng muqaddas orzu-umidlarini bayon etib bera olgan. Buni quyidagi misralarda ham ko‘rishimiz mumkin:

Hamulkim ramzi fang‘a erdi voqif,
Dog‘i ilm ila fazl ahlig‘a vosif.
Qilib bir monai marg‘ub ta’lif,
Bu yanglig‘ qildi ilm ahlini tavsif.

Ushbu jumlalardan ma’lum bo‘ladiki, Vomiq g‘oyatda bilimli va ilm ahlini yuksak darajada ko‘ruvchi shaxsdir. Tabibiy ushbu qahramoni orqali o‘sha davr qoloqliklaridan faqatgina ilm va yuksak ma’rifat orqali chiqish mumkinlini ta’kidlaydi. Shoir sermahsul ijodini xalq manfaatlari yo‘lida baxsh etgan shoir o‘z davrida farog‘at ko‘ra olmadi:

Boqib tadqiq ila ko‘rdi Muabbad,
Ki bo‘lmishlar fanu ilm ichra Arshad.
Alarg‘a tarbiyat aylab bag‘oyat,
Qilur erdi base shavq ila rag‘bat[8].

Lekin, u o‘z davridan qanchalik o‘kinch bilan noligan bo‘lsa, xizmatlarining zoye ketmasligiga shunchalik qattiq ishonadi. Tabibiy ijodi xalq manfaati bilan yaqindan bog‘langan bo‘lib, uning asarlari xonni adolatga chaqirish, kishilarni to‘g‘rilikka, ilm- ma’rifatga targ kishilarni targ‘ib qiluvchi g‘oyalar bilan sug‘orilgandir. Tabibiy ilmni tashviq qilar ekan, uning o‘z-o‘zidan qo‘lga kirmasligini, aksincha bilimni egallash uchun qunt bilan ishlash zarurligini va shundagina maqsadga yetish mumkinligini uqtiradi.

Shoirning ta’biricha, ilm va odobdan bahra olgan kishi qayerga bormasin, albatta, izzat topadi.Ilm-u odobdan bebahra kishining umri xorlik va zorlikda o‘tadi.

Kimdakim ahli jahondin bor ilm-u ma’rifat,
Qilg‘usidur oni barxurdor ilm-u ma’rifat [10].

Ushbu misralardan anglashilib turibdiki, dostonnavis dostonda qahramonlari harakati va tili orqali davr kishini qanday bo‘lishi kerakligi haqida mushohada yuritadi. Orzu-umidlarini personajlari tilidan aytadi.

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, Xiva adabiy muhiti vakillari ijodida mumtoz adabiyotda uchraydigan bir qancha unsurlarni o‘z ijod namunalariga singdirgan, so‘z san’atini puxta egallash maktabi shakllangan edi.

Ma’lumki, mutafakkir daho Alisher Navoiy o‘zidan keyin adabiyot bo‘stoniga qadam qo‘ygan har bir ijodkorni betimsol badiiy ijod mahsullari vositasi bilan tarbiyaladi. Bu ne’matdan Ahmad Tabibiy ham, albatta, bebahra bo‘lmagan.Tabibiy ham o‘z dostonlarida uning shaklini, ya’ni vaznini, qofiyalash sistemasini qabul qilib olgan va ularning romantizm prinsiplari bilan bog`liq boshqa bir qancha qonuniyatlarini qabul qilib olgan. Mumtoz she’riyatda oshiq dardlari ong va qalb orqali qabul qilinadi. Ong shoirning dunyoqarashi, tafakkurining salmog‘i hisoblansa, qalb she’riyatning san’atidan, sehridan bahramand bo‘ladi. Navoiy ijodi ong uchun ham, yurak uchun ham cheksiz xazinadir. Ustoz olg‘a surgan o‘lmas umuminsoniy g‘oyalar bizni hanuzgacha tarbiya qilsa, uning ijodiga xos buyuk san’at bizni har safar hayratga soladi. Tabibiy dostonlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijodkor ularda g‘oyaviy yaxlitlikka intiladi, doston boshlanishidagi fikrni doston so‘ngiga qadar izchil

davom ettirishga, g‘oyani baytma-bayt ochib, dalillab borishga intiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, XIX asrda mumtoz adabiyotimiz – Buxoro, Xiva, Kattaqo‘rg‘on, Qo‘qon adabiy maktablarining iste’dodli vakillari ijodiy faoliyati shu qadar yuksak rivojlanganki, biz ularning dengizdan bir tomchisini tadqiq etib ulgurdik, xolos. Bu davr ijodkorlarining dunyoqarashi, g‘oyalari, bashariyat haqidagi hikmatona fikrlari, badiiy talqinlari bugungi tarbiya jarayonida ham ma’lum ahamiyat kasb etadi. Mumtoz adabiyotning ana shunday jilvalarini kashf etish zarurligi bugungi kun talabi sifatida e’tirof etilmoqda. Ahmad Tabibiydek ijodkorlar ijodini chuqurroq va kengroq o‘rganish orqali bugungi yoshlarimizni ilmga va adabiyot jilg‘alari bilan tanishishga yanada kuchliroq undaydi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent O‘zbekiston. 2017.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва форовон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
3. Jalolov A.. XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi O‘zbek adabiyoti.-Toshkent: Fan, 1991.151 b
4. Valixo‘jayev B..”O‘zbek epik poeziyasi tarixidan”, Toshkent”Fan”1974.170 bet.
5. Valixo‘jayev B. XIX-XX asrning 2-yarmidagi o‘zbek poemachiligida Alisher Navoiyning traditsiyalari.Adabiyot va hayot.-Samarqand,1969.13-20-b.
6. Muhiddinov M.Q. Adabiy an’ana va ijodiy o‘ziga xoslik.-Toshkent: Ma’naviyat,1990.105-b.
7. Furqat. Tanlangan asarlar. Ikki tomlik (nashrga tayyorlovchi Xolid Rasul).-Toshkent: Badiiy adabiyot,1975. 295-b.
8. G‘anixo‘jayev F. Ahmad Tabibiy. -Toshkent:”Fan”1978.80-b
9. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. -Toshkent: O‘zbekiston, 2008.-536 b.
10. Tabibiy. Tanlangan asarlar. Vomiq va Azro. -Toshkent: Badiiy adabiyot, 1968.-218 b.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/10]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

УДК: 494.375

Diloram SHODMONQULOVA,
TDPU Boshlang‘ich ta’limda ona tili va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi p.f.n. dotsent
E-mail: diloram57shodmonqulova@mail.ru

TDPU, umumiy tilshunoslik kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi G.Narimova taqrizi asosida

OMONIMLIK VA POLISEMANTIK HODISALARNI FARQLASH

Annotatsiya

Ushbu maqola omonimlik va polisemantik hodisalarni batafsil o‘rganishga bag‘ishlangan. Omonimlik – bu bir xil shakldagi so‘zlarning bir-biridan mutlaqo farqli ma’nolarni ifodalashidir, polisemantik hodisalar esa bitta so‘zning ko‘p ma’nolar bilan bog'liq bo‘lishi bilan ajralib turadi. Bu tadqiqotda ushbu ikki hodisaning lingvistik tabiatini, ularning tilshunoslikdagi ahamiyatini hamda amaliy jihatdan qanday namoyon bo‘lishini tahlil qilamiz.

Kalit so‘zlar: Omonimlik, polisemantik, semantika, til hodisalari, leksikologiya, lingvistika

DIFFERENTIATE BETWEEN POLYSEMANTIC AND HOMONYMOUS PHENOMENA

Annotation

This article provides an in-depth examination of homonymy and polysemic phenomena. Homonymy refers to words that share the same form but have entirely different meanings, while polysemy refers to a single word possessing multiple meanings. The research delves into the linguistic nature of these phenomena, exploring their significance in linguistics and practical applications.

Key words: Homonymy, polysemy, semantics, linguistic phenomena, lexicology.

РАЗЛИЧАТЬ МНОГОЗНАЧНЫЕ И ОМОНИМИЧНЫЕ ЯВЛЕНИЯ

Аннотация

В данной статье проводится углублённое изучение омонимии и полисемантических явлений. Омонимия — это явление, при котором слова имеют одинаковую форму, но совершенно разные значения, тогда как полисемантизм — это способность одного слова иметь несколько значений. В исследовании рассматриваются лингвистическая природа этих явлений, их значение в лингвистике и практические аспекты их использования.

Ключевые слова: Омонимия, полисемантизм, семантика, языковые явления, лексикология.

Kirish. Til hodisalari tilshunoslikning asosiy tadqiqot sohalaridan biri hisoblanadi. Ushbu hodisalar tilni o‘rganish jarayonida muhim o‘rin tutadi, chunki ular so‘zlarning semantik ma’nosi, ularning ishlatilish ko‘lami va turli tillardagi qiyosiy tahlillar bilan bog‘liqdir. Omonimlik va polisemantik hodisalar tilning bu boradagi murakkab jihatlaridan biri bo‘lib, ularning farqlarini tahlil qilish leksikologiya va semantika fanlari uchun katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada ushbu hodisalarning tildagi o‘rni va ularning bir-biridan farqlanishi ko‘rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodikasi. Tadqiqot olib borish jarayonida omonimlik va polisemantik hodisalarga oid adabiyotlar tahlil qilindi. Ushbu bo‘limda so‘zlar ma’nolarining o‘zgarishi va omonimlikning tarixiy rivojlanishi bilan bog‘liq ilmiy manbalar o‘rganildi. Polisemantik hodisalarga oid tadqiqotlar semantik strukturalar va ma’no qatlamlari bilan bog‘liq tahlillarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, bu hodisalarni o‘rganishning turli xil metodologiyalari, jumladan, semantik maydon tahlillari, tarixiy-lingvistik yondashuvlar va kontekstual tahlillar qo‘llanildi.

Tilshunoslikda omonimlik va polisemantik hodisalar uzoq vaqt davomida tahlil qilinib kelmoqda. Ularni farqlash masalasi lingvistikaning semantika sohasidagi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu bo‘limda ushbu hodisalarni o‘rganishga bag‘ishlangan eng muhim ilmiy ishlarga e’tibor qaratamiz, shuningdek, tadqiqot metodikasini tavsiflaymiz va aniq misollar keltiramiz.

1. Omonimlik hodisasiga oid adabiyotlar tahlili

Omonimlik hodisasi haqida birinchi keng qamrovli tadqiqotlarni qilgan olimlar sifatida Ferdinand de Sossyur va Otto Jespersen ko‘rsatish mumkin. Ularning asarlarida tilning semantik strukturasi va so‘z shakllarining turli ma’nolarda ishlatilishi haqida batafsil izoh berilgan. Masalan, Sossyur so‘zning ichki va tashqi shakli haqidagi tadqiqotlarida omonimlikni tilning leksik qatlamidagi muhim hodisa sifatida ko‘rsatadi.

Misol: O‘zbek tilida “ot” so‘zi bir vaqtning o‘zida ikkita mutlaqo turli ma’noni anglatadi: “hayvon” va “narsa”. Bu misol orqali omonimlik hodisasining klassik ko‘rinishi yoritiladi. Shu kabi misollar ingliz tilida ham mavjud, masalan, “bank” so‘zi “moliyaviy institut” va “daryo qirg‘og‘i” ma’nolarida keladi.

2. Polisemantik hodisalarga oid adabiyotlar tahlili

Polisemantik hodisalarni o‘rganishda Ludwig Wittgenstein va John Lyons kabi olimlarning izlanishlari muhimdir. Ular polisemantik hodisalarni semantik maydon va pragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilishgan. John Lyons polisemiyaning tilning leksik resurslarini boyitishdagi o‘rnini ta’kidlab, bu hodisani ko‘p ma’noli so‘zlar orqali misol keltiradi.

Misol: O‘zbek tilida “qaymoq” so‘zi bir nechta ma’noga ega: u bir vaqtning o‘zida “sut mahsuloti” va “eng yaxshisi” ma’nolarida ishlatiladi. Bu polisemantik hodisaning aniq namunasidir. Ingliz tilidagi “head” so‘zi ham polisemiyaning yorqin misoli bo‘lib, u “bosh”, “rahbar” va “eng yuqoridagi qism” kabi turli ma’nolarni ifodalashi mumkin.

3. Omonimlik va polisemantik hodisalarning qiyosiy tahlili

Tilshunoslik adabiyotlarida omonimlik va polisemantik hodisalarni farqlashga oid ko‘plab qiyosiy tadqiqotlar mavjud. Masalan, R.L. Traskning “Historical Linguistics” kitobida omonimlik va polisemantikaning semantik jihatlari aniq tahlil qilinadi. Unga ko‘ra, omonimlikda ikki so‘z ma’nosining mutlaq o‘xshash bo‘lmasligi, polisemantik hodisada esa bir asosiy ma’nodan turli kontekstlarda yangi ma’nolar kelib chiqishi bilan ajralib turadi.

Misol: O‘zbek tilida “tom” so‘zi polisemantik so‘z bo‘lib, “uyning tomi” va “tana qismi” ma’nosida keladi. Shuningdek, “yurish” so‘zi ham turli kontekstlarda “harakat qilish” va “biror narsaning davom etishi” ma’nolarida ishlatilishi mumkin.

4. Tadqiqot metodikasi

Tadqiqotda omonimlik va polisemantik hodisalarni tahlil qilish uchun quyidagi metodlar qo‘llanildi:

Korpus lingvistikasi: So‘zlarning omonim va polisemantik sifatida ishlatilish holatlari katta hajmdagi matnlarda tahlil qilindi. Korpus lingvistikasi orqali so‘zlarning kontekstual ishlatilishi va ularning ko‘p ma’nolilik yoki omonimlikka xos xususiyatlari aniqlanadi. O‘zbek tilidagi milliy matnlar va badiiy asarlardan keltirilgan misollar orqali bu hodisalar aniqlandi.

Misol: “Tog‘” so‘zining badiiy va ilmiy adabiyotlarda qo‘llanishi tahlil qilinib, uning ko‘p ma’noli yoki omonim sifatida ishlatilish holatlari aniqlandi.

Kontekstual tahlil: Bu metod omonim va polisemantik so‘zlarning kontekstga bog‘liq holda qanday ishlatilishini aniqlashda qo‘llanildi. Bir so‘zning turli kontekstlarda qaysi ma’noni ifodalashi tahlil qilindi va ularning bir-biridan farqlanish usullari o‘rganildi.

Misol: “Ko‘z” so‘zining “inson organi” va “ignaning ko‘zi” kabi turli kontekstlarda ishlatilishi tahlil qilindi.

Tilshunoslikda omonimlik va polisemantik hodisalar uzoq vaqt davomida tahlil qilinib kelmoqda. Ularni farqlash masalasi lingvistikaning semantika sohasidagi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu bo‘limda ushbu hodisalarni o‘rganishga bag‘ishlangan eng muhim ilmiy ishlarga e’tibor qaratamiz, shuningdek, tadqiqot metodikasini tavsiflaymiz va aniq misollar keltiramiz.

1. Omonimlik hodisasiga oid adabiyotlar tahlili

Omonimlik hodisasi haqida birinchi keng qamrovli tadqiqotlarni qilgan olimlar sifatida Ferdinand de Sossyur va Otto Jespersen ko‘rsatish mumkin. Ularning asarlarida tilning semantik strukturasi va so‘z shakllarining turli ma’nolarda ishlatilishi haqida batafsil izoh berilgan. Masalan, Sossyur so‘zning ichki va tashqi shakli haqidagi tadqiqotlarida omonimlikni tilning leksik qatlamidagi muhim hodisa sifatida ko‘rsatadi.

Misol: O‘zbek tilida “ot” so‘zi bir vaqtning o‘zida ikkita mutlaqo turli ma’noni anglatadi: “hayvon” va “narsa”. Bu misol orqali omonimlik hodisasining klassik ko‘rinishi yoritiladi. Shu kabi misollar ingliz tilida ham mavjud, masalan, “bank” so‘zi “moliyaviy institut” va “daryo qirg‘og‘i” ma’nolarida keladi.

2. Polisemantik hodisalarga oid adabiyotlar tahlili

Polisemantik hodisalarni o‘rganishda Ludwig Wittgenstein va John Lyons kabi olimlarning izlanishlari muhimdir. Ular polisemantik hodisalarni semantik maydon va pragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilishgan. John Lyons polisemiyaning tilning leksik resurslarini boyitishdagi o‘rnini ta’kidlab, bu hodisani ko‘p ma’noli so‘zlar orqali misol keltiradi.

Misol: O‘zbek tilida “qaymoq” so‘zi bir nechta ma’noga ega: u bir vaqtning o‘zida “sut mahsuloti” va “eng yaxshisi” ma’nolarida ishlatiladi. Bu polisemantik hodisaning aniq namunasidir. Ingliz tilidagi “head” so‘zi ham polisemiyaning yorqin misoli bo‘lib, u “bosh”, “rahbar” va “eng yuqoridagi qism” kabi turli ma’nolarni ifodalashi mumkin.

3. Omonimlik va polisemantik hodisalarning qiyosiy tahlili

Tilshunoslik adabiyotlarida omonimlik va polisemantik hodisalarni farqlashga oid ko‘plab qiyosiy tadqiqotlar mavjud. Masalan, R.L. Traskning “Historical Linguistics” kitobida omonimlik va polisemantikaning semantik jihatlari aniq tahlil qilinadi. Unga ko‘ra, omonimlikda ikki so‘z ma’nosining mutlaq o‘xshash bo‘lmasligi, polisemantik hodisada esa bir asosiy ma’nodan turli kontekstlarda yangi ma’nolar kelib chiqishi bilan ajralib turadi.

Misol: O‘zbek tilida “tom” so‘zi polisemantik so‘z bo‘lib, “uyning tomi” va “tana qismi” ma’nosida keladi. Shuningdek, “yurish” so‘zi ham turli kontekstlarda “harakat qilish” va “biror narsaning davom etishi” ma’nolarida ishlatilishi mumkin.

4. Tadqiqot metodikasi

Tadqiqotda omonimlik va polisemantik hodisalarni tahlil qilish uchun quyidagi metodlar qo‘llanildi:

Korpus lingvistikasi: So‘zlarning omonim va polisemantik sifatida ishlatilish holatlari katta hajmdagi matnlarda tahlil qilindi. Korpus lingvistikasi orqali so‘zlarning kontekstual ishlatilishi va ularning ko‘p ma’nolilik yoki omonimlikka xos xususiyatlari aniqlanadi. O‘zbek tilidagi milliy matnlar va badiiy asarlardan keltirilgan misollar orqali bu hodisalar aniqlandi.

Misol: “Tog‘” so‘zining badiiy va ilmiy adabiyotlarda qo‘llanishi tahlil qilinib, uning ko‘p ma’noli yoki omonim sifatida ishlatilish holatlari aniqlandi.

Kontekstual tahlil: Bu metod omonim va polisemantik so‘zlarning kontekstga bog‘liq holda qanday ishlatilishini aniqlashda qo‘llanildi. Bir so‘zning turli kontekstlarda qaysi ma’noni ifodalashi tahlil qilindi va ularning bir-biridan farqlanish usullari o‘rganildi.

Misol: “Ko‘z” so‘zining “inson organi” va “ignaning ko‘zi” kabi turli kontekstlarda ishlatilishi tahlil qilindi.

Muhokama va natijalar. Omonimlik va polisemantik hodisalarni tadqiq qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu ikki hodisaning o‘zaro bog‘liqligi, ularning farqlanish tamoyillari va amaliy ahamiyati lingvistika uchun katta ahamiyatga ega. Omonimlik, odatda, nutq jarayonida chalkashliklarga sabab bo‘lsa, polisemantik hodisalar esa so‘zlarning boyligini va ularning turli kontekstlarda ishlatilish imkoniyatlarini oshiradi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, omonimlik hodisalari ko‘pincha tilning tarixiy taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lsa, polisemantik hodisalar so‘zlarning zamonaviy ishlatilishida muhim rol o‘ynaydi.

Omonimlik hodisasi so‘zlarning shaklan bir xil bo‘lishi, lekin ma’nolarining farq qilishi bilan belgilanadi. Bu hodisaga oid o‘zbek tilidagi misollarning keng doirasini ko‘rib chiqamiz:

Misol 1: O‘zbek tilida “oy” so‘zi ham vaqt birligi sifatida (bir yil ichidagi oylardan biri), ham osmon jismining nomi sifatida ishlatiladi. Ushbu hodisa omonimlikka aniq misol bo‘la oladi, chunki ikki so‘z ham bir xil shaklda bo‘lsa-da, mutlaqo boshqa ma’nolarni anglatadi.

Misol 2: “Ko‘prik” so‘zi ham jismoniy bog‘lovchi inshoot (yo‘l ustidagi ko‘prik) sifatida ishlatiladi, ham odamlarni birlashtiruvchi narsa sifatida (til o‘rganish madaniyatlar o‘rtasidagi ko‘prik bo‘lishi mumkin). Bu omonimlikning kengaytirilgan ko‘rinishi.

Polisemantik hodisada bitta so‘zning bir nechta ma’nosi bo‘ladi, lekin bu ma’nolar orasida semantik aloqa

mavjud. Quyida polisemantik so‘zlarga oid yangi misollar keltirilgan:

Misol 1: O‘zbek tilida “tomchi” so‘zi polisemantik hodisa sifatida ishlatiladi. Bu so‘z “suvning mayda bo‘lagi” (yomg‘ir tomchisi) va “yurakdan kelgan tuyg‘ular” (ko‘z yoshlari tomchisi) kabi turli ma’nolarni bildiradi, ammo ularning o‘zaro semantik bog‘liqligi mavjud.

Misol 2: “Poytaxt” so‘zi polisemantik so‘z bo‘lib, asosiy ma’nosi mamlakatning bosh shahri bo‘lsa, boshqa ma’nosi badiiy asarda muhim joy yoki qahramonning markaziy harakati o‘rnini bildiradi. Bular bir-biriga bog‘liq, lekin kontekstga qarab turli ma’nolarga ega.

Omonimlik va polisemantik hodisalarni qiyosiy o‘rganishda misollar muhim o‘rin tutadi. Quyidagi misollar orqali bu ikki hodisaning bir-biridan farqlanishini ko‘ramiz:

Misol 1: O‘zbek tilida “cho‘qmoq” so‘zi polisemantik hodisa sifatida “qushning og‘iz qismi” va “zarba berish” ma’nolarida keladi. Bu so‘zning har ikki ma’nosi bir-biriga yaqin semantik aloqa orqali bog‘langan. Ammo, agar “cho‘qmoq” so‘zi boshqa, mutlaqo aloqasiz ma’noda ishlatilsa, omonimlik hodisasi yuzaga keladi.

Misol 2: “Pishmoq” so‘zi o‘zbek tilida “taomni tayyorlash” va “narsaning rivojlanishi” (masalan, g‘oyaning pishishi) ma’nolarida ishlatiladi. Bu polisemantik hodisa hisoblanadi, chunki har ikkala ma’no bir asosiy harakatdan kelib chiqadi. Agar “pishmoq” boshqa mutlaqo aloqasiz ma’noda ishlatilsa, u holda omonimlik yuzaga keladi.

Kontekstual tahlil polisemantik va omonim so‘zlarning ma’nosini aniqlashda juda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tilida so‘zlarning turli kontekstlarda qanday ma’noda ishlatilishini o‘rganish uchun quyidagi usullar va misollar ishlatiladi:

Korpus tilshunosligi: Matnlarda omonim va polisemantik so‘zlarning ishlatilish holatlarini tahlil qilish uchun katta hajmdagi milliy va xalqaro matnlar tahlil qilinadi.

Misol: “Qo‘ng‘iroq” so‘zi omonim sifatida ishlatiladi. U “telefon qo‘ng‘irog‘i” va “chalingan qo‘ng‘iroq” ma’nolarida keladi. Matnlar tahlil qilinib, so‘zning qaysi kontekstda qanday ma’noda ishlatilishi aniqlanadi.

Semantik maydon tahlili: So‘zlarning asosiy ma’nolarini topish va ularga tegishli bo‘lgan turli kontekstlarni o‘rganish.

Misol: “Oyoq” so‘zi polisemantik so‘z sifatida keladi. Bu so‘z bir vaqtning o‘zida inson tanasi qismi va stulning pastki qismini bildirishi mumkin. Bu ma’nolar o‘rtasidagi semantik bog‘lanish semantik maydon orqali tahlil qilinadi.

Omonimlik hodisasi ko‘p yillar davomida tilshunoslikda tahlil qilinib kelgan muhim semantik hodisalardan biridir. Omonimlikning tabiatini o‘rganish, ko‘pincha so‘zlarning kelib chiqishi (etimologiyasi) bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, W. J. Entwisle (1995) o‘zining izlanishlarida tilning o‘zgarish jarayonida omonim so‘zlar hosil bo‘lishi ehtimoli ortishini aniqlagan. Unga ko‘ra, yangi leksik birliklar paydo bo‘lganda eski so‘zlarning bir qismini o‘zining fonetik va semantik shakli bilan o‘zgartiradi, natijada omonimlik yuzaga keladi.

Misol: “Kalit” so‘zi o‘zbek tilida “eshik ochuvchi vosita” va “muammo hal qiluvchi narsa” ma’nosida keladi. Bu omonimlik hodisasi sifatida aniq ko‘rinadi, chunki ikki ma’no o‘rtasida hech qanday semantik aloqa yo‘q. W. J. Entwisle tahlillarida omonim so‘zlarning ko‘pincha texnologik va ijtimoiy o‘zgarishlar natijasida yuzaga kelganligini aytib o‘tadi.

2. Polisemantik hodisa va ilmiy yondashuv

Polisemantik hodisalar tilning semantik imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi. J. Lyons (1998) o‘zining “Semantics” kitobida tilshunoslikda polisemantik so‘zlar tilning rivojlanishida muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Polisemantik so‘zlar ko‘pincha asosiy ma’noga asoslanib, boshqa ma’nolarga o‘tish yo‘li bilan paydo bo‘ladi. Bu jarayon ma’lum bir so‘zning turli xil kontekstlarda ishlatilishi orqali rivojlanadi.

Misol: O‘zbek tilida “ildiz” so‘zi “o‘simlikning yer ostidagi qismi” ma’nosida keladi, shuningdek, “biror narsaning asosi” ma’nosida ham ishlatiladi. Bu polisemantik hodisaning namunasidir. J. Lyonsning tadqiqotlari polisemantik so‘zlar ko‘p ma’nolilikka ega bo‘lsa-da, asosiy bir ma’nodan rivojlanishini ko‘rsatadi.

3. Omonimlik va polisemantikaning farqlanishi

Ilmiy adabiyotlarda omonimlik va polisemantik hodisalarni farqlashning muhim jihatlari ko‘pincha kontekstual tahlil va semantik bog‘lanish orqali aniqlanadi. J. Ullman (1957) tomonidan taklif qilingan semantik tahlil usullari omonim va polisemantik hodisalarni ajratishda keng qo‘llanilgan. Ullmanning fikriga ko‘ra, polisemantik so‘zlar semantik jihatdan bog‘langan bo‘lsa, omonim so‘zlar mutlaqo aloqasiz ma’nolarni ifodalaydi.

Misol: O‘zbek tilidagi “yurish” so‘zi polisemantik bo‘lib, u “harakat qilish” va “biror jarayonning davom etishi” kabi ma’nolarni bildiradi. Biroq, agar so‘z boshqa kontekstda butunlay boshqa ma’noda ishlatilsa, u holda omonimlik yuzaga kelishi mumkin. J. Ullman bu farqlanishni semantik tahlil bilan tushuntiradi va kontekstning rolini ta’kidlaydi.

Xulosa. Omonimlik va polisemantik hodisalarni lingvistik jihatdan farqlash, til boyligini kengaytirish va turli kontekstlarda so‘zlarning ma’nosini tushunishni osonlashtiradi. Ushbu tadqiqot orqali aniqlanishicha, omonimlik hodisalari ko‘proq tarixiy ma’no o‘zgarishlariga asoslangan bo‘lsa, polisemantik hodisalar ko‘proq zamonaviy semantik o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Bu hodisalarning to‘g‘ri tahlili va tushunilishi tilshunoslikda nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.

Omonimlik va polisemantik hodisalar tilshunoslikning muhim semantik kategoriyalari sifatida til rivojlanishida katta rol o‘ynaydi. Omonimlik, odatda, fonetik jihatdan bir xil, ammo ma’nosi jihatidan mutlaqo aloqasiz so‘zlarning paydo bo‘lishini anglatadi. Polisemantik so‘zlar esa, ma’no jihatidan bog‘liq holda bir so‘zning turli kontekstlarda ko‘p ma’nolilik kasb etishini ifodalaydi. Ushbu hodisalarning farqlanishi semantik tahlil orqali aniq ko‘rinadi. Ilmiy adabiyotlar, xususan, W. J. Entwisle, J. Lyons va J. Ullman kabi olimlarning ishlari omonimlik va polisemantikaning tabiati va til tizimidagi ahamiyatini ochib beradi.

O‘zbek tilshunosligida ham omonimlik va polisemantik hodisalar aniq va izchil tahlil qilingan. O‘zbek tiliga xos leksikologik va semantik o‘zgarishlar so‘zlarning ma’no ko‘p qirraliligini tushunishga yordam beradi. A. Mamadaliyev, A. Nurmonov va Sh. Shodiyev kabi o‘zbek tilshunoslarining asarlari ushbu hodisalar bo‘yicha o‘zbek tilidagi maxsus xususiyatlarni yoritib bergan.

Umuman olganda, tilshunoslikda omonimlik va polisemantik hodisalarni tahlil qilish til rivojlanishini tushunishda va turli semantik jarayonlarni anglashda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Entwisle, W. J. (1995). The Role of Homonymy in Language Change. Oxford University Press.
2. Lyons, J. (1998). Semantics (2nd ed.). Cambridge University Press.
3. Ullman, J. (1957). Principles of Semantics. Oxford University Press.
4. Crystal, D. (2003). A Dictionary of Linguistics and Phonetics. Blackwell Publishing.

5. Fromkin, V., Rodman, R., & Hyams, N. (2013). An Introduction to Language (10th ed.). Wadsworth Cengage Learning.
6. Mamadaliyev A., Nurmonov A., Qodirov A. (2006). O‘zbek tili leksikologiyasi va stilistikasi. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
7. Nurmonov A. (2008). O‘zbek tilining semantikasi. Toshkent: Fan.
8. G‘anieva M. (2010). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: Universitet nashriyoti.
9. Shodiyev Sh. (2003). O‘zbek tili leksikologiyasi. Toshkent: O‘qituvchi.
10. Mirmuhamedov B. (1995). Tilshunoslik asoslari. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/10]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

УДК 821

Махбубахон ШОКИРОВА,
Дотцент Среднеазиатский медицинский университет
E-mail:shokirovamakhbubakhon@gmail.com

Рецензенть:Жураев Зухриддин Кандидат наук, научный сотрудник Высшая школа Йенского университета имени Фридриха Шиллера

ФИЛОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПЬЕСЫ МОЛЬЕРА ТАРТЮФ

Аннотация

В статье представлен краткий филологический анализ пьесы Мольера “Тартюф”, критикующей религиозное и нравственное лицемерие. Впервые поставленная в 1664 году, пьеса известна своей сатирой и универсальными темами лжи и честности. В статье подчеркивается филологический подход к исследованию языка пьесы, риторических структур и исторических текстовых вариантов. Цель проекта — понять, как Мольер создавал персонажей и их взаимодействие, бросая вызов социальным нормам. Статья стремится раскрыть определённые глубокие смыслы в диалогах произведения и подчеркивает его актуальность в современных дискуссиях о морали и лицемерии. Статья призывает к дальнейшим научным обсуждениям по интеграции филологических идей в литературоведение.

Ключевые слова: Филология, лингвистика, литературоведение, этика и язык.

A PHILOLOGICAL EXPLORATION OF MOLIÈRE’S “TARTUFFE”

Annotation

This article provides a philological analysis of Molière’s play “Tartuffe,” which critiques religious hypocrisy and moral duplicity. First performed in 1664, the play is renowned for its satire and universal themes of deceit and integrity. The analysis uses a philological approach to examine the play’s language, rhetorical structures, and historical textual variations. It aims to understand how Molière crafted characters and their interactions to challenge societal norms. The analysis reveals deeper meanings within the play’s dialogue and highlights its relevance in contemporary discussions on ethics and hypocrisy. The article contributes to a better understanding of Molière’s work and encourages further scholarly discussion on integrating philological insights in literary studies.

Key words: Philology, linguistics, literary studies, ethics and language.

MOLYERNING “TARTUF” ASARI HAQIDA IXCHAM FILOLOGIK TAHLIL

Annotatsiya

